

MUTAXASSISLIKKA KIRISH

fanidan ma`ruzalar matni

Samarqand - 2012

Тилшунослик назарияси” курси тилнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, тил ва тафаккур, тил ва нутқ, тил ва жамият ўртасидаги муносабатлар, тилнинг жамиятдаги ўрни, ички тузилиши, тилнинг таснифи, уни таҳлил қилиш усуллари ва шу каби масалаларга доир қарашларни ўрганади.

Tuzuvchi: prof. Karimov S.A.

1-курс кундузги бўлим, 1-семестр

Маъруза – 22

Амалий машғулот – 18

Семинар – 18

Консультация – 2

Оралиқ баҳолаш – 15

Якуний баҳолаш - 13

Мустақил иш – 20

Жами – 88+20=108

*1-ma`ruza: TILSHUNOSLIK FANINING
O`RGANISH SOHASI VA MAVZULARI*

R e j a :

- 1.Tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari.
- 2.«Tilshunoslik nazariyasi» kursining mundarijasi.
- 3.Tilshunoslik fanining tarmoqlari.
- 4.Tilshunoslik fanining aspektlari.
- 5.Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: til, tilning ta`rifi, tilni o'rganish tarmoqlari, ekstralolingvistika (sotsioling vistika, metalingvistika), intralingvistika, komparativistika (qiyosiy-tarixiy, chozishtirma, areal, tipologik) tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, tilshunoslik aspektlari, tilshunoslik nazariyasi.

1. Tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari.

Til faqat kishilik jamiyatni mahsulidir. Tilsiz hech bir vogelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o'rni, jamiyat taraqqiyoti yo'llarini bilish, o'rganish mumkin emas.

Tilshunoslik yoki til bilimi (lingvistika til haqidagi mustaqil va aniq fan bo'lib, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini ilmiy asosda o'rganadi. Bu fan muayyan va umumiyl tilshunoslik sohalaridan iborat.

Muayyan (xususiy) tilshunoslik ma'lum bir tilning lutfat tarkibi, fonetik tizimi va grammatik qurilishi, taraqqiyot yo'llari hamda qardosh tillarga munosabatini ilmiy asosda sinchiklab o'rganadi va shu yo'l bilan tilning lutfat boyligi, fonetikasini sinchiklab tekshiradi, ilmiy grammatikasini yaratib beradi.

Umumiy tilshunoslik esa umuman tilning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyatini, jamiyatdagi o'rni va vazifasini, taraqqiyot yo'lini, til bilan tafakkurning bir-biriga uzviy borliqligini, tilning o'zaro munosabatini o'rganadi hamda tilshunoslikni tekshirish usullarini yaratadi. Umumiy tilshunoslik ayrim tilshunoslikni, bir guruh tilshunoslikni va qardosh tilshunoslikni o'rganish, tekshirish natijasida aniqlangan til hodisasini, til dalillarini umumlashtirib, ilmiy xulosalar chiqaradi va shu asosda til qonuniyatlarini aniqlab beradi.

Ko'rinadiki, tilshunoslik inson tilini o'rganadigan mustaqil fandir. Tilshunoslik dastlab, amaliy ahamiyatgagina ega bo'lган fan sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, hozir sof nazariy xarakterdag'i fanga aylandi.

Bashariyat XX asr bilan xayrlashib, uchinchi ming yillikka qadam qo'ydi. Insoniyat bugungi kunga kelib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi. Odamzod o'zining aql-zakovati va mehnati bilan juda ko'p yangiliklar yaratdi.

Ma`naviy boyliklar orasida tilshunoslik ilmida to'plangan bilimlar muhim o'rin tutadi. Har bir davrning buyuk tilshunoslari bo'ladi. Ular o'z yurti va xalqining tili haqidagi fikrlarini o'rtaga tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari etaklovchi bayroq sifatida namoyon bo'ladigan rojalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida tilshunoslik bilimlari katta ahamiyat kasb etadi.

Til va uning ta'rifi. Hozirgacha til ikkita bir-biriga zid dunyoqarash idealistik va materialistik nuqtai nazardan ta'riflanadi. Ongni birlamchi, materiyani ikkilamchi deb biluvchi idealistik yo'nalishdagi olimlar tilga quyidagicha ta'rif berishadi:

«Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir» (F.de Soseyur). «Til – odam ongingin ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lган mexanik harakatidir» (L.Bluemfil'd). «Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir» (B.Grosse).

Bu ta'riflarning birortasi tilning to'liq ta'rifi emas, chunki ular tilning ijtimoiy mohiyatini ochib berolmaydi.

Olimlar tilning kishilik jamiyatida tutgan o'rni naqadar muhim ekanini ko'rsatib, til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir, deb ta'riflaydilar.

Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi, ularning ehtiyojlarini to'la-to'kis bajaradi, garchand, til o'zgaruvchan hodisa bo'lsa-da, u faqat o'zining ichki ob'ektiv qonunlari asosida rivojlanadi.

Til o‘ziga xos semiologik tizim bo‘lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta‘minlovchi, avloddan-avlodga madaniy-tarixiy an`analarni etkazuvchi vosita xizmatini o‘taydi.

2. «*Tilshunoslik nazariyasi*» kursining mundarijasi.

«Tilshunoslikka kirish» kursi tilning boshqa hodisalar ichida tutgan o‘rni, tuzilishi va tilning taraqqiy etish qonuniyatlar haqidagi, umuman til haqidagi fanning asosiy tushunchalarini o‘rganadi. Bu kursning yana bir muhim vazifasi shundan iboratki, tilshunoslik fanida qo‘llaniladigan terminlar, tushunchalar tizimi bilan tanishtiradi. SHuning uchun bu kurs umumiy tilshunoslikning dastlabki bosqichi bo‘lib, umuman murakkab til hodisalarini to‘fri tushunishga, ma`lum bir til hamda qardosh til guruhlarni bir-biriga solishtirib, ma`lum til hodisalarini, lufat tartibini, fonetik tizimi va grammatic qurilishini ilmiy asosda chuqur o‘rganish uchun nazariy va amaliy jihatdan zamin yaratib beradi.

3. *Tilshunoslik fanining tarmoqlari*. Kishilarning eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan tilni tilshunoslik fani o‘rganadi. Uning uch tarmoqi mavjud:

1. ekstralengvistika (ekstra – tashqi, lingvistika – tilga xos) tildan tashqarida, ammo bevosita til bilan borliq bo‘lgan xususiyatlarni o‘rganadi. ekstralengvistika quyidagi tarmoqlarga ajraladi:

A. Sotsiolingvistika. Bunda tilning tabiatini va ijtimoiy vazifasi o‘rganiladi.

B. Metalingvistika. Bunda til va tafakkur, tilning mazmun tomoni, nutq faoliyati, til birliklarining matn va sharoit bilan aloqasi o‘rganiladi.

2. Intralingvistika. Bunda tilning ichki tizimi, uning birliklari va kategoriyalari, tilning fonologik, leksikologik va grammatic qurilishi o‘rganiladi.

3. Komparativistika. Bunda tillar qiyosiy tarzda o‘rganiladi. Bu soha uchga bo‘linadi:

A. Qiyosiy tilshunoslik. Bu soha o‘z navbatida qiyosiy-tarixiy va chorishtirma tilshunoslikka bo‘linadi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bir-biriga qarindosh bo‘lgan tillarni o‘rganadi.

Turli tizimdagи tillarni qiyosiy o‘rganish chorishtirma tilshunoslik ob`ektidir.

B. Areal (maydon) tilshunoslik. Tilning tarqalish doirasi, tillar xaritasi, mamlakatlarni til tomonidan tasvirlash areal tilshunoslik predmeti sanaladi.

V. Tipologik tilshunoslik. Tipologiya tillarning qurilishidagi umumiy, universal holatlarni tekshiradi. Bunda barcha tillar, ularning qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat`iy nazar o‘rganilaveradi.

Tilshunoslik fanining sanab o‘tilgan tarmoqlari negizida turli nazariyalar paydo bo‘lgan.

4. *Tilshunoslik fanining aspektlari*. Tilshunoslik fani ham ko‘p aspektli fanlar qatoriga kiradi. Uning aniq til faktlariga ko‘ra bir necha turi mavjud:

Struktural tilshunoslik.

Xususiy tilshunoslik.

Umumiy tilshunoslik.

Amaliy tilshunoslik.

Nazariy tilshunoslik.

Tilshunoslikda til komponentlarining ichki munosabatlarini, o‘zaro borliqligini, tilning strukturna tomonini yoritish maqsad qilib qo‘ylgan yo‘nalishi struktural tilshunoslik deb ataladi.

Xususiy (konkret) tilshunoslik har bir konkret tilning fonetik tizimi, lufat tarkibi, grammatic qurilishi va ularning taraqqiyot yo‘llari hamda bu tilning boshqa tillarga munosabatini o‘rganadi va shu asosda konkret tilning ilmiy grammaticasini yaratishga intiladi.

Umumiy tilshunoslik ma`lum bir tilning emas, balki umuman til qonunlari, tilning paydo bo‘lishi, tilning jamiyatdagi o‘rni va vazifasi kabi masalalarni tadqiq etadi. SHuningdek, bu fanda konkret tillarni, til guruhlarni, qardosh tillarni o‘rganish natijasida aniqlangan til faktlari umumlashtirilib, muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi.

Umumiy tilshunoslik – inson tilini ilmiy o‘rganadi- gan fan bo‘lib, uning asosiy maqsadi tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari, tilning mohiyati, tilning tuzilishi, til va nutq, til va tafakkur, tildagi belgilar tizimi, til va jamiyat, til taraqqiyoti, tilshunoslik maktablari va yo‘nalishlari, tillarni ilmiy tadqiq etish usullari haqida ma`lumot berishdan iborat. SHu jarayonda tilning tipologik belgilari aniqlanadi.

Umumiy tilshunoslik fani tilning tabiatni va mohiyati, tilning jamiyatni va tafakkur bilan munosabati, tilning strukturasi va sistemalilik xarakteri, tilning kelib chiqishi va taraqqiyot qonunlari, tillar tipologiyasi va tasnifi, tilni o‘rganish metodlari kabi muammolarni o‘rganadi.

Tilshunoslikning lingvistik masalalarini amaliy yo‘l bilan o‘rganuvchi sohalari amaliy tilshunoslik sanaladi. Uning eksperimental fonetika, lingvistik tahlil, leksikografiya kabi yo‘nalishlari mavjud.

Nazariy tilshunoslik – tilshunoslikka doir asosiy qarashlar, rоyalar, nazariyalar haqidagi tizimdir. Unda til haqidagi asosiy tushuncha va tamoyillar, qarashlar umumlashtiriladi. Tilning asosiy muammolari va dolzarb masalalari haqidagi yangi nazariyalar olfa suriladi.

«Tilshunoslik nazariyasi» kursida tillarni o‘rganish sohasida quyidagi muammolar doirasida mavjud bo‘lgan nazariyalar haqida ma`lumot beriladi:

1. Tilshunoslik tarixida mavjud bo‘lgan oqimlar va maktablarda til muammolarining o‘rganilishi.

2. Tilshunoslikdagi falsafiy yo‘nalish.

3. Tilning nazariy masalalari. Til va nutq. Til va tafakkur. Tildagi belgining tabiatni haqida. Mantiqiy va grammatik kategoriyalar. Til va jamiyat. Tilda shakl va mazmun.

4. Til qurilishi masalalari. Til qurilishida pragmatika va sintagmatika. Til fonologiyasi, leksikologiyasi, grammatikasi, so‘z yasalishi. Lingvistik tipologiya. Tillarning tipologik va geneologik tasnifi.

5. Tillarni o‘rganishdagi qiyosiy-tarixiy, chorishtirish, tasviriy, riyoziyot, avtomatlashtirish, jo‘rofija metodlar va ularning mohiyati.

5. *Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi*. Til tilshunoslik fanining ob`ekti bo‘lib, u insonning bevosita kuzatishi va mustaqil ilmiy izlanishlari uchun ham xizmat qiladi.

Tilshunoslik fani til bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borganda, boshqa fan materiallarini ham hisobga oladi. Jumladan:

1. Tilshunoslik birinchi navbatda falsafa bilan chambarchas boqliqdir, chunki falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab beradi. Masalan, dialektika, sinergetika, til va tafakkur haqidagi ta`limot tilshunoslikning metodologik asoslarini tashkil etadi.

2. Tilshunoslik psixologiya bilan ham chambarchas boqliqdir. Tilshunoslik bilan psixologiya o‘rtasida mavjud bo‘lgan muammolar psixolingvistikada o‘rganiladi.

3. Tilshunoslik tarix bilan ham o‘zaro boqliq, chunki tilning lufat tarkibi, uning ish ko‘rish doirasi va xarakteri jamiyat tarixi bilan uzviy aloqadadir.

4. Tilshunoslik etnografiya bilan ham borqliq. etnografiya xalqlarning kelib chiqishi, tarkibi, urf-odatlari, moddiy, ma`naviy va ijtimoiy madaniyatini o‘rganadi. Tilshunoslik fani u yoki bu tilni o‘rganishda xalq etnografiyasi materiallaridan foydalanib ish ko‘radi.

5. Tilshunoslik tafakkur qonunlari va fikrlesh shakllari haqidagi fan bo‘lgan mantiq bilan ham borqliq.

6. Ma`lumki, ijtimoiy tuzumga aloqador, hayot bilan va kishilarning jamiyatdagi munosabatlari bilan boflangan; ijtimoiy jamiyatning sinflarga bo‘linishi, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini o‘zgartirish bilan borqliq qonunlarni sotsiologiya fani o‘rganadi. Bu fan tilshunoslik bilan uzviy borqliq holda taraqqiy etadi.

7. Qadimiy moddiy madaniyat yodgorliklari asosida kishilik jamiyatining o‘tmishini o‘rganuvchi fan – arxeologiya ham tilshunoslik bilan boqliqdir.

8. Tilshunoslik adabiyotshunoslik bilan uzviy boflan gandir. Ularning aloqasi, stilistika, adabiy til tarixi, badiiy adabiyot muammolarini o‘rganishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

9. Garchi tilshunoslik fani ijtimoiy fan bo'lsa-da, fizika, kibernetika, matematika, fiziologiya kabi tabiiy fanlar bilan ham bofliq holda rivojlanadi.

Nutq tovushlari xususiyatlarini tasnif qilish tamoyillarini o'rganishda fizika fanining akustika bo'limi tilshunoslikka, uning fonetika sohasiga katta yordam bermoqda.

CHet tillarni o'qitish, mashina yordamida tarjima qilish, turli tipdagi luratlarni tuzishda tilshunoslik matematik metodlarga va kibernetika fani yutuqlariga tayanadi.

Tovushlar artikulyatsiyasi va eshitish qobiliyatini o'rganganda, nutqiy qobiliyatning buzilish sabablarini tekshirganda tilshunoslik fiziologiya, tibbiyot singari fanlarning yutuqlariga tayanib ish ko'radi.

Tilshunoslikning turli fanlar bilan aloqasi natijasida har xil nazariyalar paydo bo'ldi.

Tilshunoslik til haqidagi mustaqil ijtimoiy-tarixiy fan bo'lib, uning ob`ekti bo'lgan til tilshunoslikdan tashqari bir necha fanlar tomonidan o'rganishni talab qiladigan murakkab soha bo'lib hisoblanadi.

SHunday qilib, tilshunoslik tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi – tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadigan fandir.

2-ma`ruza. TIL IJTIMOIY HODISA SIFATIDA

Reja:

1. Tilning ijtimoiy mohiyati.
2. Til shakllanishi va rivojinining ijtimoiy shartlanganligi.
3. Kishilarning tarixiy birlklari, shakli va til.
4. Adabiy til va adabiy me`yor shakllanishining ijtimoiy shartlanganligi.
5. Jamiyat talabiga ko'ra til sathlarining notebris rivojlanishi.
6. Tilning vazifaviy uslublari.
7. Til tizimi va til qurilishining ijtimoiy shartlanganligi.
8. Sotsiolingvistik nazariyaning shakllanishi va uning ob`ekti.
9. Sotsiolingvistik tipologiyaning mezonlari.
10. Tillarning sotsiolingvistik tasnifi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: strukturalizm, til, jamiyat, tilning ijtimoiyligi, tilda o'zgarish, nutqiy faoliyat darajalari, urue, qabila, qabila ittifoqi, xalq, dialekt, til me`yori, nazariy yo'naliishlar, vazifaviy uslublar, til tizimi va qurilishi, tilning ijtimoiy tabaqalanishi, sotsiolingvistika, tipologiya mezonlari, tipologik tasnif.

XX asrning 30-yillarda maydonga kelgan strukturalizm tilni asosan bir tomonlama o'rganishni, tilning tuzilishi va uni tashkil etuvchi birliklar orasidagi munosabatlarni o'rganishni tilga oid boshqa masalalardan ustun qilib qo'ydi. Natijada til birliklariga xos bo'lgan shakl va ma`no birligini rad etib, faqat shaklni o'rganishga zo'r berildi. Ko'p o'tmay bu oqim inqirozga uchrab, qo'yilgan maqsadlarni uzil-kesil hal qila olmadidi. Tilning yashashi va rivojlanishi bu tilda gaplashuvchi jamiyat bilan uzviy bofliq ekani ravshan bo'lib qoldi. Natijada tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan bo'lmish til va jamiyat masalasini yana kun tartibiga qo'ydi.

Til jamiyatning aloqa-aratashuv quroli sifatida jamiyat bilan uzviy aloqadadir. CHunki jamiyatda ro'y bergan har bir o'zgarish shu jamiyatning tilida o'zining ma'lum izini qoldiradi. SHuning uchun ham jamiyat tarixinining muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar ojizlik qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin. Til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri, uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bofliq.

Tilning ijtimoiyligi jamiyatda bajaradigan vazifasi, roli va bizning qanday ehtiyojimizni bajarishi bilan belgilanadi. V. Gumbol'dt va Gegel' asarlarida til kishilarning jamiyatdagi ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilishi haqida fikr bildirilgan.

Til va jamiyat muammosini turli xil dunyoqarash asosida yoritish e. Sepir, B. Uorf, G. O. Vinokur, B. A. Larin, N. YA. Marr, E. D. Polivanov, L. V. SHcherba, L. P. YAkubinskiy asarlarida ham uchraydi. Ularning ko'pchiligidagi tilning asosiy vazifasi aloqa quroli ekanligi alohida ta'kidlanadi.

1. Jamiyat uzlusiz harakatda, rivojlanishda, o'zgarishda bo'lgani kabi, uning tili tinimsiz harakatda, o'zgarishda, rivojlanishdadir. SHuning uchun ham tilshunoslik tarixida tilni o'rganishda uning tarixiy taraqqiyotiga turlicha munosabatda bo'ldilar. Tilning ijtimoiy shartlanganligi asosida uning ijtimoiy vazifa bajarishi aniqlanadi.

Til jamiyatda nutqiy faoliyat uchun xizmat qiladi. Nutqiy faoliyat esa kishilarning bir-biri bilan aloqasi uchun xizmat qiladi. Nutqiy faoliyat quyidagi darajalar bilan belgilanadi:

1.Motivatsion daraja. So'zlovchi va tinglovchining bir-birini bir xil anglash darajasi.

2.Semantik daraja. Nutqiy faoliyatda ma'nosi mos va tushunarli so'zlarni tanlash darajasi.

3.Grammatik daraja. Nutqda fikrni ifodalashga mos va xos grammatik shakllarni tanlash darajasi.

4.Fonetik daraja. Nutqiy faoliyatda tovushlarni artikulyatsion to'pri talaffuz qilish darajasi.

Sanab o'tilgan darajalar asosida nutqiy faoliyatning ijtimoiy tabiatini ta'minlanadi.

2. Til uruf va qabila, elat va millat tarixi bilan chambarchas bo'qliq bo'lganligi uchun unda kishilik jamiyatining tarixi bevosita o'z aksini topadi. Har bir tilning paydo bo'lishi va hozirgi holatiga etgunga qadar uruf, qabila, qabila ittifoqlari va xalq tillari darajasiga ko'tarilib, ulardan aloqa vositasi va kurash quroli sifatida foydalanib kelganlar. Jamiyatning o'sha taraqqiyot davrlariga qarab, bu tillar ajdodlarimizning talablarini qondirgan va jamiyat taraqqiyoti hamda sharoit talablariga ko'ra o'z ichki taraqqiyot qonunlari asosida asta-sekinlik bilan taraqqiy etib kelgan. Nihoyat, bizning hozirgi aloqa vositamiz darajasiga ko'tarilgan.

Ijtimoiy jamoa tuzumi davrida uruf va qabilalar ning a'zolari uchun tushunarli va umumiy tillari bo'lgan. Har bir qabilaning ayrim, o'ziga xos dialekti bo'ladi. Qabila aslida dialekt demakdir. Qadimgi davrlarda ajdodlarimiz qabila-qabila bo'lib hayot kechirar ekanlar, ular boshqa kabilalardan farq qiluvchi o'z tillariga ham ega bo'lganlar.

Hozirgi vaqtida har bir tilda bir qancha dialekt va shevalar mavjud bo'lib, ular o'zlariga xos xarakterli xususiyatlarini saqlab kelmoqda. Bu shevalarning saqlanib kelishi feodal tarqoqligi davri bilan bo'flangan bo'lsa ham, ularning paydo bo'lishi davri va saqlanib kelishining asli sababini juda qadim zamondan, ibridoijamoa tuzumi va undan ham oldin boshlangan deb izohlash kerak.

Dialekt va shevalar qadimgi ajdodlarimizning o'zaro so'zlashadigan, aloqa bo'flaydigan birdan-bir yagona va maxsus tillari bo'lib xizmat qilgan. Ularning har biri o'z davriga qarab o'zgarib, rivojlanib kelgan.

Turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot yo'llarini belgilashda Mahmud Koshfariyning «Devonulurot turk» asaridagi quyidagi so'zлari muhim ahamiyat kasb etadi: «Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha uruflari bor, men bulardan asosini yozdim, shahobchalarini tashladim». Jamiyatning shundan so'nggi taraqqiyot bosqichida qabilalar birlashish jarayonini o'z boshidan kechira boshladilar. Ana shu ko'p sonli turkiy qabila va qabila ittifoqlaridan o'zbek, qozoq, qirғiz, qoraqalpoq xalqlari va ularning tillari paydo bo'lgan va rivojlanib hozirgi holatiga etib kelgan. Feodal tarqoqligi emirilishi va uning o'rniga kapitalistik tuzumning paydo bo'lishi hamda taraqqiyoti bilan xalq o'rtaida jonli aloqalarning yo'lga qo'yilishi talab qilinadi. Xuddi mana shunday sharoitda hamma uchun tushunarli bo'lgan yagona bir til zaruriyati turiadi. Bunday til o'tgan davrlarda mavjud bo'lgan umumxalq tili bazasida vujudga kelishi juda murakkab va uzoq vaqt o'tishi bilan bo'ladi. Bu til o'zining xarakterli xususiyatlari jihatidan milliy til bo'lib millatning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi va uning uchun aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Kishilarning tarixiy birliklari shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularning adabiy tili va me'yori mavjud bo'lgan. Bu o'rinda taniqli tilshunos B. S. SHvartskopfning quyidagi fikrini keltirish o'rinnlidir: «Me`yor masalasi va adabiy tilni me`yorashtirish bilan bo'qliq bo'lgan muammolarni

bayon qilish umuman til me`yori, xususan, adabiy til me`yorining mohiyati haqidagi nazariy qarashlar rivojlanishining sharhisiz bu muammoni to`liq yoritib bo`lmaydi.

Gap shundaki, lingvistik adabiyotda me`yor tushunchasining mohiyatiga, bu til hodisasining har xil aspektlariga turlicha yondashilgan va juda ko`p ta`riflar berilgan.

Ana shu har xilliklarda nazariy izlanishlarning bir necha yo`nalishlarini ko`rish mumkin».

Til me`yorini o`rganish bo`yicha mavjud ishlarni kuzatish bu muammolarni o`rganish borasida to`rt asosiy markaz mavjudgini ko`rsatdi:

1. Praga tilshunoslik maktabi namoyandalari til me`yorini, adabiy tilning asosiy vazifalarini adabiy til me`yori kodifikatsiyasining amaliy masalalari bilan birga uzviy holda tahlil qildilar. Til me`yori va adabiy tilni me`yorlash ishida B. Gavranek, V. Matezius, A. Edlichka, V. Barnet, E. Vaxek kabilarning xizmatlari diqqatga molikdir.

2. E.Koseriuning ilmiy nazariyalari. e.Koseriu me`yorni ijtimoiy nuqtai nazaridan ob`ektiv, tartibga solingan va tanlangan hodisa deb tushunsa, kodifikatsiyani - sub`ektiv, faqat til nuqtai nazaridan to`fri bo`lgan hodisa, kategoriyalar deb tushunadi. Uningcha, til sistemasi va strukturasi tilning hamma hodisalarini o`z ichiga qamrab ololmaydi. Har bir til ifoda tomonidan ham, ma`no tomonidan ham o`zining variantdorlik xususiyatlariga ega. e. Koseriu tildagi variantdorlik tushunchasi sistemaning xususiyatidan emas, balki me`yorning o`z mohiyatidan kelib chiqqan hodisa ekanligini isbotlaydi va nutqda mavjud bo`lgan turli xil chekinishlarni ham me`yor belgilaydi, deb hisoblaydi.

3. Amerika, ingлиз va nemis tilshunoslaring ilmiy qarashlari. Ular me`yorning tabiatini, xususiyatlarini lingvistik va sotsiolingvistik ishlarida yoritdilar. Me`yorni umumjamoa tomonidan qo`llaniladigan va til jamiyat tomonidan to`fri deb qabul qilingan til shakllari deb tushundilar.

4. XX asr rus tilshunosligidagi ilmiy-nazariy qarashlarni quyidagilardan iborat deb hisoblash mumkin:

1) Me`yorni tilning sistem-struktur imkoniyatlarining o`rganilishi bilan bo`fliq holda tahlil qilish.

2) Me`yorni adabiy til ijtimoiy vazifasining kengayishi va uning funksional rang-barangligining o`sishi bilan bo`fliq holda o`rganish

3) Me`yorni adabiy tilning ba`zi sotsiologik jihatlari bilan bo`fliq holda kuzatish.

4) Me`yorni nutq madaniyati masalalari bilan bo`fliq holda o`rganish.

5) Me`yorni tilning psixologik va kommunikativ jihatlari bilan bo`flagan holda tahlil qilish.

Jamiyat uzluksiz harakatda, rivojlanishda, o`zgarishda bo`lgani kabi uning tili tinimsiz harakatda, o`zgarishda, rivojlanishda bo`ladi. Har bir xalqning tili turli xil rivojlanish bosqichini o`tadi. SHuning natijasida til lufat tarkibi, semantikasi, morfologiyasi, sintaksisida turli o`zgarishlar yuz beradi.

Til sistemasining barcha sathlari ham jamiyat tarixi bilan bir xil bo`flangan emas. Jamiyat hayotidagi turli xil yangiliklar shu jamiyat tilining lufat tarkibida o`z ifodasini topganligi tufayli til sistemasining leksik sathi boshqa sath birliklariga nisbatan ko`proq jamiyat tarixi bilan bo`fliq bo`ladi.

Tilning leksik sathida jamiyatning turmush tarzi, hayotidagi o`zgarishlar o`z ifodasini topganligi tufayli so`zni tahlil qilish asosida shu til egasi bo`lgan jamiyat hayotiga bo`fliq bo`lgan tarixiy ma`lumotlarga ega bo`lish mumkin. Masalan, hozirgi o`zbek tilida tub so`z deb qaraluvchi *ora*, *o`git*, *o`yin*, *o`zil*, *adash*, *o`sha* so`zlarining; *ola ip kesildi*, *dumini likkilatmoq* frazeologizmlarining etimologiyasiga e`tibor beraylik.

Til va jamiyat muammosi doirasida ko`zdan kechirish lozim bo`lgan masalalardan yana biri har bir tilning vazifaviy uslublaridir.

Vazifaviy uslublarning rivojlanishi tarixiy va zaruriy hodisa bo`lib, bu rivojlanayotgan hamda shakllanayotgan milliy birlikning ijtimoiy-siyosiy, xo`jalik va madaniy hayotning yanada o`sishi, jamiyatda tilga bo`lgan yangi ehtiyojlarning paydo bo`lishini taqozo etadi. Bu jarayonda har bir tilda uslublarning quyidagi guruhlari shakllandı:

1. Adabiy-badiiy uslub. Buning o`zi she`riy uslub va nasriy uslub deb ikkiga bo`linadi.

2. Ijtimoiy-publitsistik uslub. Bunga gazeta-jurnal, adabiy-tanqidiy ishlar, pamfletlar, maqolalar va ocherklar uslubi kiradi.

3. Ilmiy bayon uslubi. Buning tarkibi nutq vositalarining turli ko‘rinishidan iborat (tibbiyat, huquq, falsafa va boshqalar). Ilmiy, ilmiy-ommabop asar, maqola, risolalarining uslubi ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi.

4. Kasb-hunar, texnika uslubi. Bu ishlab chiqarish, texnika adabiyotlari uslubidir. Bu uslub ishlab chiqarish, texnika, harbiy va boshqa turli xil kasblar sohasida ish quruvchilar uchun xizmat qiladi.

5. Qonunlashtiruvchi hujjatlar, buyruqlar, topshiriqlar uslubidan iborat rasmiy hujjatlar uslubi.

6. Har xil yozishmalar, kundaliklar va xatlarga xos bo‘lgan maktubiy uslub.

Jamiyatning madaniy saviyasi har bir kishining tildagi uslubiy jihatlarni egallab olishini, ya`ni uslublardan vaziyatga qarab foydalanishini taqozo etadi.

Til va jamiyat muammosini yanada chuqurroq va aniqroq anglash uchun ularning til tizimi, til qurilishiga munosabatini to‘fri anglash muhimdir.

Har bir adabiy tilda so‘zlaydigan yoki yozadigan kishi sharoit taqozasiga ko‘ra tilda mavjud so‘zlar, grammatik shakllar, so‘z birikmalari va gap tuzilishining ma`lum qismidangina foydalanadi. Mana shu ma`noda tilning zahiraviy imkoniyatlari hattoki jamoa nutqi doirasida ham hech qachon to‘liricha ishga solinmaydi.

Tilning imkoniyatlari uning reallashgan, amalda qo‘llanuvchi holatidan doimo ortiq va keng bo‘ladi. Har tildagi mana shunday boy imkoniyatlar bu tilning umumiy vositalari tizimini tashkil etadi.

Til tizimini: a) tilda amalda mavjud, qo‘llanayotgan, b) tilda o‘tmishda qo‘llangan, v) tilda kelajakda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlar majmui, murakkab yirindisi deb tushunish kerak.

Til tuzilishi muayyan davrda qo‘llanayotgan real tizimlardir. Til tuzilishi tildagi ko‘pqirrali unsurlarning bir butunlik doirasidagi birligidir. Til tuzilishida til tizimidagi imkoniyatlar amalgalashadi. Til tuzilishi har qanday tilning asosi bo‘lib, u nutqda turli darajada yuzaga chiqadi, namoyon bo‘ladi. Bunga sabab kishilar tildan turli konkret sharoit va holatlarda foydalanadi. Har bir tilning tuzilishi bu tildagi mavjud fonema, morfema, sintaktik qurilmalar yirindisi va ushbu vositalarning o‘zaro munosabatidan iboratdir.

Til qurilishining o‘ziga xos shakllanishi jarayonida tilning ijtimoiy tabaqalanishi vujudga keladi. Ijtimoiy tabaqalanish natijasida mavjud tilning jamiyat uchun xizmati bir necha yo‘nalishda bo‘ladi.

1. Hududiy tabaqalanish. Umumxalq tilining son jihatdan nisbatan kam bo‘lgan hududiy, sotsial va professional jihatdan umumiyligka ega bo‘lgan kishilar foydalanadigan ko‘rinishi dialekt deb yuritiladi. Har bir dialekt o‘z til sistemasi va strukturasiga ega.

2. Nutq jarayoni kimga qaratilganligi bilan farqlanadi. SHunga ko‘ra u dialog, monolog va polilog shaklida bo‘ladi.

Dialog - nutq tuzilishining asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, sotsial nutqiy aloqalarning tabiiy shakllaridan hisoblanadi. Dialog, akad L. V. SHcherba fikri bilan aytganda, «shunday ustaxonaki, unda tilning har turli o‘zgarishlari quyiladi va yifiladi».

Katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan nutqiy aloqaning dialog shakli keng tarqalgan. CHunki bu shakl orqali millionlab kishilar ijtimoiy turmushda - oilada, ishlab chiqarish jarayonida, jamoat joylarida fikr almashadi.

So‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e`tiborda tutmaydigan nutq monolog hisoblanadi.

Ko‘p kishining o‘zaro suhbati polilog sanaladi.

3. Adabiy tilning ifodalanish jihatidan tabaqalanishi. Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma`lum me`yorga solingenan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli adabiy til hisoblanadi. Adabiy tilning ikki ko‘rinishi bor: 1) yozma ko‘rinish, 2) orzaki ko‘rinish.

4. Tilning ijtimoiy jamoa faoliyatiga ko‘ra tabaqlanishi. Tilning inson faoliyatining u yoki bu sohasi bilan bofqilq vazifalariga ko‘ra ajratiladigan uslublari vazifaviy uslublar sanaladi: badiiy uslub, so‘zlashuv uslubi, publisistik uslub, ilmiy uslub, rasmiy-ish uslubi.

5. Muayyan ijtimoiy guruh kishilari foydalanadigan til sotsial dialekt sanaladi. Bunday til jargon va argo deb ataladi.

Tilning ijtimoiy yashash va ijtimoiy taraqqiyot sharoitlarini o‘rganuvchi sohasi sotsiolingvistika deb ataladi. Sotsiologiya va lingvistikaning sintezidan iborat bo‘lgan bu soha til bilan ijtimoiy hayot faktlari aloqasi; ekstralengvistik omillar ta’sirida til taraqqiyotidagi faol jarayonlar; radio, televidenie, kino kabilarning keng tarqalishi bilan tilning ofzaki va yozma shakli o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishi, til siyosatini yuritishning vazifa va shakllari; keng xalq ommasi nutq madaniyatini ko‘tarish kabi muammolar bilan shurullanadi.

Sotsiolingvistika atamasi doirasida til va jamiyat o‘rtasidagi munosabat, uning rivojlanishi, xalqning ijtimoiy tabaqlanishi bilan bofqilq holda tilda vujudga keladigan farqlar muammoi o‘rganiladi. Sotsiolingvistika tilning o‘zgarish nazariyasiga amal qilib, tilning ijtimoiy muhitga ko‘ra o‘zgarish xususiyatlarini o‘rganadi.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan ham tillarning tipologiyasi mavjud bo‘lib, u tilning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini inobatga olgan holda o‘rganadi.

Sotsiolingvistik tipologiyada quyidagilar mavjud:

1. Tilning grammatisasi va luratini yaratishga xizmat qiluvchi standartlashtirish mezoni. Bunda ma`lum bir tilda gaplashuvchilar tomonidan tan olingan adabiy til tushuniladi.

2. Ma`lum bir tilda gaplashuvchi jamiyatning bor-yo‘qligi tan olinsa, bu uning hayotiylik mezoni sanaladi. Agar til hayotiy, tirik bo‘lsa, bu tilni ona tilim deb biladigan, uni e`zozlaydigan jamiyat ham mavjud bo‘ladi.

3. Ma`lum bir tilning jamiyat tomonidan ishlatilishi natijasida uning mo‘tadil, bir tekis rivojlanib turishi nazarda tutilsa, tarixiylik mezoniga amal qiladi.

4. Ma`lum ijtimoiy guruh uchun ona tili sifatida xizmat qilayotgan u yoki bu til boshqa tillardan tuzilishi jihatidan tubdan farqlanishi yoki bir tilning varianti sifatida namoyon bo‘lishi avtonomlik mezoniga amal qiladi. Turkiy tillarning har biri bir-biriga avtonomdir.

Sanab o‘tilgan mezonlar asosida tillarning sotsiolingvistik tasnifi amalga oshiriladi. Sotsiolingvistik jihatdan jahon tillarining quyidagi tiplari mavjud:

1. Adabiy til me`yoriga ega bo‘lgan, jamiyatda davlat tili, adabiy til sifatida xizmat qiluvchi tillar standart tillar sanaladi. Masalan, o‘zbek, rus, tojik, turkman, ukrain kabi tillar.

2. YOzuvga ega bo‘lib, o‘z davrida mukammal takomiliga etgan, buyuk asarlar yaratilgan tillar klassik tillar sanaladi. Klassik tillar o‘z davri uchungina emas, balki tillarning keyingi taraqqiyoti uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday tillarning adabiy tillardan farqi shundaki, ular o‘lik tillardir. Masalan, lotin tili, sanskrit tili, surd tili, xorazmiy tili.

3. Son jihatidan ko‘p bo‘lmagan kichik xalqlarga xizmat qiluvchi, o‘z yozuviga ega bo‘lmagan tillar mahalliy tillar sanaladi. Masalan, Amerika mahalliy hindularining tili.

4. Kreol tillar. Mustamlakachilik natijasida dunyoning turli qit’alarida ingliz, frantsuz, ispan, portugal tillari elementlari aralashuvidan tashkil topgan tillar. Masalan, Gaiti, Aruba, Bonayre orollarida paydo bo‘lgan gatti, ispan-nautal, papiamento tillari kreol tillari jumlasiga kiradi.

5. Pijin tillari. Mahalliy tillarning Evropa tillari bilan chatishuvi natijasida yuzaga kelgan. Pijin tillari kreol tillarining dastlabki bosqichidir. Masalan, rus tilining xitoy dialekti asosida shakllangan til kyaxti deb nomlanuvchi til pijin tilidir.

6. Sun`iy tillar. Maxsus yaratilgan xalqaro aloqa tillari. Bunday sun`iy tillar qatoriga esperanto, ido, volyapyuk, oktsidental, interlingva, neo tillari kiradi.

7. Ma`lum bir qabila, xalq, millat tarkibiga kiruvchi kichik hududga tarqalgan aholi tili dialektdir.

Xullas, jamiyatga til qanchalik zarur bo‘lsa, til uchun jamiyatning bo‘lishi shunchalik zarurdir. Tilsiz jamiyat bo‘lmaganidek, jamiyatsiz til ham bo‘lmaydi. Uning qonuniyatlarini sotsiolingvistika o‘rganadi.

3-ma`ruza: FONETIKANING O`RGANISH SOHASI VA VAZIFASI

R e j a:

- 1.Fonetikaning o`rganish ob`ekti va vazifalari.
- 2.Fonetikaning vazifasi va maqsadiga ko`ra turlari.
3. Asosiy fonetik birliklar.
- 4.Nutq tovushlari tasnifi.
- 5.Unli fonemalar va ularning tasnifi.
- 6.Undosh fonemalar va ularning tasnifi.

Tayanch iboralar: *fonetik jarayon, kombinator o`zgarish, pozitsion o`zgarish, akkomodatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, diereza, epentiza, gaplogiya, proteza, metateza, progressiv assimilyatsiya, regressiv assimilyatsiya, distant assimilyatsiya, singarmonizm, pozitsion o`zgarish, reduktsiya, miqdor reduktsiya, kuchli va kuchsiz pozitsiya, alternatsiya, alternatlar, tovush almashinuvi, fonologik (sotsial yoki funksional) aspekt, fonema, fonetik tavsif (xarakteristika), fonologik oppozitsiya, fonologik yoki farqlash alomatlari, binar oppozitsiya, ternar oppozitsiya, ko`p a`zoli oppozitsiyalar, pozitsiya, distributsiya, fonostilistika, fonetik va fonologik transkreptsiya, transliteratsiya, antroponimlar, toponimlar, orfoepiya, orfoepik me`yor, fonetik qonuniyatlar, singarmonizm.*

Fonetikaning o`rganish ob`ekti va vazifalari. Inson nutqi gaplardan, gaplar so`zlardan, so`zlar tovushlardan tashkil topadi.

Fonetika (grekcha -fone-tovush) tilshunoslikning bir bo`limi bo`lib, tilning tovush tizimini, nutq tovushlarini o`rganadi.

Fonetikada nutq tovushlari 4 tomondan o`rganiladi: 1) nutq organlarining nutq tovushlarini talaffuz qilishdagi harakati, ya`ni artikulyatsiyasi o`rganiladi; 2) tovushlar qanday fizik tebranishlar natijasi ekanligi, ya`ni akustik tomonini hisobga olinadi; 3) nutq tovushlari bo`fin, urfu va ohangning eshituvchi tomonidan anglab his etilishi tekshiriladi; 4) nutq tovushlarining tildagi so`zlar, frazalar va gaplarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qilishi, ya`ni *fonologik* tomoni o`rganiladi.

Fonetikani o`rganishning nazariy va amaliy ahamiyati bor. Tilning talaffuz alomatlari nazariy jihatdan o`rganiladi. Fonetika amaliyotda keng qo`llaniladi. Tilning tovush tarkibini yaxshi o`rganishda, orfografiya masalalarini to`fri hal qilishda, yozuvi bo`lmagan xalqning yozuvini yaratishda, eski yozuvdan yangi yozuvga o`tishda, chet el tillarini o`rganishda, tili chuchuk bolalarning tilini tuzatishda va boshqa sohalarda fonetikaning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Fonetikaning quyidagi turlari mavjud:

- vazifasiga ko`ra: umumiy va xususiy fonetika. Umumiy fonetika dunyo tillariga tegishli bo`lgan umumiy fonetik qonuniyatlarni o`rganadi. Xususiy fonetika esa biror konkret tilga xos bo`lgan tovushlar sistemasini o`rganadi;

- maqsadiga ko`ra: nazariy fonetika, amaliy fonetika, eksperimental fonetika. Nazariy fonetika ma`lum bir tilning tovush xususiyatlarini nazariy jihatdan tasnif etadi. Amaliy fonetika esa muayyan tilning fonetik, orfoepik me`yorlarini o`rganadi. Ostsillograf, kimograf singari alohida apparatlar bilan (yordamida) nutq tovushlari bo`fin, urfu va ohangdagi artikulyatsion-akustik xususiyatlarini o`rganish eksperimental fonetikaning asosiy vazifasidir.

Fonetika o`z tekshirish obektining davrga munosabati nuqtai nazaridan 2 xil bo`ladi: tasviriy (sinxron) fonetika va tarixiy (dioxron) fonetika. Tasviriy fonetika muayyan konkret til tovush tarkibining hozirgi davrdagi ahvolini o`rganadi. Tarixiy fonetika biror konkret tildagi nutq tovushlarining tarixiy taraqqiyotini, qanday o`zgarishlarga uchraganini va bu o`zgarishlarning sabablarini tekshiradi.

Nutqning fonetik qismlarini o‘rganishiga qarab fonetika ikki turli bo‘ladi: segmental fonetika va supersegmental fonetika. Nutq tovushlari hosil bo‘lishi va uning xususiyatlarini o‘rganuvchi fonetika segmental (segment-nutq bo‘lagi) fonetika deyiladi. Nutq tovushlaridan katta bo‘lgan fonetik birliklar: bo‘fin, so‘z va frazalarni o‘rganuvchi fonetikaga esa supersegmental fonetika deyiladi yoki *prosodika* deyiladi.

Asosiy fonetik birliklar: *fraza, takt, bo‘zin, nutq tovushlari*.

Grammatika ham nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi: gap, so‘z birikmasi (*fraza*), so‘z va morfemalarga. Garchi har ikki qatlam nutqning son nuqtai nazaridan bir xil bo‘lsa ham sifat jihatidan bir biriga mos kelmaydi.

Fraza nutqning eng katta birligi bo‘lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o‘ziga xos ohangga ega bo‘ladi. Masalan: *Quyosh tik kelgan* (1gap, 1fraza), *SHipi past, devorlari yupqa, torgina do‘konxona, har vaqt dagidek ivrisiq* (bu gapni to‘rt frazaga ham, ikki frazaga ham bo‘lish mumkin). Frazani jumla deyish ham mumkin. Gap bilan jumla hamma vaqt ham bir biriga to‘fri kelavermaydi.

Takt. Frazaning ikki kichik pauzasi orasiga joylashgan va yagona urfu bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo‘finning yifindisi takt deb ataladi. Masalan : *Havo bulut edi. 1,2-so‘z urfali, 3-urfusiz. Urfu olmagan so‘zlar urfali so‘zning oldidan va keyinidan kelishi mumkin: oldidan - na rabotu, za mir - proklitik elementlar, bulut edi – keyinda enklitik elementlar.*

Fonetik birlik bo‘lmish takt grammaticada so‘z birikmasi bilan qiyoslansa, ular hech vaqt bir-biriga to‘fri kelmaydi.

Bo‘zin. Takt bo‘finlardan tashkil topadi. Bo‘fin bir yoki bir necha tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Bo‘fin asosan unli tovush bilan boshlanadi.

Nutq tovushi asosiy fonetik birlik sanaladi. U uch aspektida o‘rganiladi: akustik, fiziologik, fonologik.

Fizikada tovush to‘frisidagi umumiyligi nazariya akustika deb ataladi. Akustika har qanday tovushlarning, jumladan nutq tovushlarning quyidagi belgilarini farqlaydi:

1) akustika tovush kuchi, ya`ni tebranish chegarasiga bofqilqidir;

2) tovushlarning past balandligi tebranish tezligiga, ya`ni bir sekundda bo‘ladigan tebranish soniga bofqilq. Tebranish qancha ko‘p bo‘lsa, tovush shuncha baland chiqadi, tebranish kam bo‘lsa, tovush past chiqadi;

3) tovushning cho‘ziq-qisqaligi tebranish vaqtining davomli yoki davomsiz bo‘lishiga bofqilq. Tebranish davomsiz bo‘lsa, tovush qisqa chiqadi.

Nutq tovushi tembri (sifati) asosiy ton bilan yordamchi tonlarning va shovqinning qo‘shilishidan yuzaga keladi. Tovushning tembri rezonatorlik vazifasini bajaruvchi ofiz bo‘shlifi va burun bo‘shlifining hajmi va shakliga, tovush psychalarida hosil bo‘ladigan shovqinlarning qanday bo‘lishiga ham bofqilq. SHunga ko‘ra bir kishining ovozi boshqa kishining ovozidan farq qiladi.

Murakkab tovush tebranishining chastotasi bilan boshqa akustik vositalarni kelishitirib turuvchi mexanizm akustika fanida *fil’tr* deb ataladi.Odamning ofiz bo‘shliqlari va burun bo‘shliqlari birgalikda unlilarni hosil qiluvchi akustik fil’tri tashkil qiladi.

Fiziologik aspekt. Nutq tovushlari talaffuz organlarining ma`lum harakati bilan hosil bo‘ladi. Nutq tovushlari hosil bo‘lishda ishtirok etuvchi organga *nutq organlari* deyiladi. Bu organlarning yifindisi esa nutq apparati sanaladi. Nutq apparati: 1. Nafas olish organlari. 2. Bo‘fiz bo‘shlifi. 3. Ofiz bo‘shlifi. 4. Burun bo‘shlifi.

Ma`lum bir tilga xos bo‘lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq apparati *artikulyatsion baza* deb ataladi.

Tovush artikulyatsiyasi uch holatda bo‘ladi:

1.*Ekskursiya* - tovush hosil qilishga o‘tish.

2.*Rekursiya* - tovush chiqarish uchun pauza qilish (to‘xtab olish).

3.*Bosh holat* - asli holiga qaytish.

Artikulyatsiyada ikki hodisa juda muhim rol’ o‘ynaydi: artikulyatsiya o‘rni va artikulyatsiya usuli.

Tovush hosil qilishda nutq organlarining ishtirok etgan qismi *artikulyatsiya o'rni* deyiladi. Tovush hosil qilish paytida ikki organning bir-biri bilan jipslashishi yoki jipslashmay, oradan havoning o'tib ketishi uchun bo'shliq qolishi *artikulyatsiya usuli* deyiladi.

Tovushlarning funksional jihatasi. YUqorida nutq tovushlarining to'rtinchi jihatini fonologik aspekt, deb atagan edik. Fonologiyada tovushlarning funksional jihatlari o'rganilishi ham ta'kidlangan edi.

Fonemani eslaylik. Fonemaga tegishli barcha artikulyatsion-akustik belgilar uning *fonetik xarakteristikasi* deyiladi. Masalan, *p* fonemasining lab-lab, portlovchi, jarangsiz kabi belgilari uning fonetik xarakteridir.

Nutq tovushlari tasnifi. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra tovushlar ikkita katta guruh – *unli* va *undoshlarga* ajratiladi.

Artikulyatsion jihatdan unli tovushlar talaffuzida o'pkadan chiqib kelayotgan havo hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi, undoshlar talaffuzida esa havo oqimi biror to'siqqa duch keladi.

Unlilarning miqdori va sifati barcha tillarda bir xil emas. Masalan: rus 43-6, frantsuz 21-13, arman 30-6, gruzin 28-5, eston 16-9, ingлиз 24-21, o'zbek 23-6.

Jahon tillarining deyarli barchasida undosh tovushlar unlilardan ko'p va shu tufayli ularning funksional xizmati ham kattadir.

Unli fonemalar va ularning tasnifi. *Unlilar*. Tildagi unlilar sistemasi *vokalizm* deyiladi. Unlilar sof ovozdan iborat, ohangdorlik kuchli bo'ladi, ovoz to'siqqa uchramaydi, istagancha cho'zib talaffuz qilish mumkin. Nutq jarayonida undoshga nisbatat salmoqli o'rin tutadi. Hozirgi o'zbek tilida olti unli fonema bor: *a, o, u, o', i, e*. Ular tasnifida uch holat e'tiborga olinadi:

1.Tilning gorizontal holati:

- a) til oldi: *i, e, a*.
- b) til orqa: *u, o', o*.

eslatma: til orqa: *qiliq*.

Til oldi: *o'rdak, uka*.

2.Tilning vertikal holati:

- a) tor unli: *i, u*.
- b) o'cta keng unli: *e, o'*.
- c) keng unli: *a, o*.

3.Labning ishtiroki:

- a) lablashgan: *u, o', o*
- b) lablashmagan: *i, e, a*.

O'zbek yozuvida olti unli fonemadan tashqari yana to'rtta yo-lashgan unli yoki grafema bor: *e, yo, yu, ya*.

Undosh fonemalar va ularning tasnifi. Undoshlar. Undoshlar sistemasi konsonantizm deb ataladi.

O'zbek adabiy tilida 25 ta undosh fonema bor: *b, v, g, d, z, j, dj, y, k, l, m, n, i, r, s, t, f, x, ts, ch, sh, q, z, h, ng*. Bu fonemalardan ikkitasi yozuvda alohida harflar bilan ifodalanmagan.

Undoshlarni xarakterlash va tasniflash unlilarga nisbatan murakkabroqdir. Tasnif printsipi boshqacharoq. Undoshlarning umumiy bo'linishini ko'rsatuvchi tomonlar asosan beshta:

1.Undoshlarning paydo bo'lish o'rniga ko'ra xususiyatlari: a) lab undoshlari: *b, m, p, v, f*; b) til yoki til-tish undoshlari: *t, d, s, z, sh, j, dj, ch, n, l, r, k, g, ng*; v) bo'rifiz tovushi: *h*.

2.Aytish usuliga ko'ra: a) portlovchi: *t, d, p, b, k, q, ch, dj, g, ts, m, n, ng*; b) sirraluvchi: *v, s, z, sh, j, x, z, f, y*.

3.Tovush psychalarining ishtirokiga ko'ra: a) jarangli: *b, v, z, d, j, dj, g, z, y, m, n, r, l, ng*; b) jarangsiz: *p, f, s, t, sh, ch, ts, k, q, x, h*.

Ovozning ishtirokiga ko‘ra: a) sonorlar: *m,n,ng,l,r*; b) qolgan undoshlarning hammasi shovqinlilar hisoblanadi.

Tarkibiga ko‘ra: a) qorishiq: *ch-tsh, dj -d-j, ts-ts* (afrikat); b) qolganlari sof.

4-ma`ruza: TOVUSHLARNING NUTQDAGI POZITSION VA KOMBINATOR O‘ZGARISHLARI

Reja:

- 1.Tovushlarning nutqdagi pozitsion o‘zgarishlari. Reduktsiya.
- 2.Nutqda tovushlarning kombinator o‘zgarishlari. Akkomodatsiya. Assimilatsiya.
3. O‘zgarishlarning boshqa turlari. Dissimilatsiya. Metateza. Inversiya. Diereza. epenteza.

Proteza. Substitutsiya. Tovushlarning almashuvi.

1. ***Tovushlarning nutqdagi pozitsion o‘zgarishlari.Reduktsiya.*** Nutqdagi turli faktorlar natijasida tovushlar bir-biriga ta’sir qiladi. Bunday faktorlardan bin tovushning o‘rnii, uning boshqa tovushga qo‘shni holatda bo‘lishi, tovushlarning birikuvi va urfunning tabiatiga bofqliq. Tovushlarning pozitsion va kombinator o‘zgarishlari farqlanadi.

Ma`lum holatda ro‘y beruvchi tovushlarning o‘zgarishi pozitsion o‘zgarishshlar deb ataladi. Pozitsion o‘zgarishlar uch turga ega: 1) urfuga nisbatan urfuli va urfusiz unlilar farqlanadi; 2) bo‘fin va uning tabiatiga ko‘ra ochiq va yopiq hamda berkitilgan va berkitilmagan bo‘finlar farqlanadi; 3) so‘zdagi o‘rniga ko‘ra so‘z boshi, o‘rtasi va oxiridagi tovushlar va ular-ning birikmalari farqlanadi.

Unli tovushlarning urfusiz bo‘finlarda kuchsizlanishi yoki o‘zgarishi reduktsiya deyiladi. Odatda sifat va miqdor reduktsiyasi farqlanadi. Urfusiz yopiq bo‘finlarda unlilar cho‘ziqligining qisqarishi va kuchli artikulatsiya qilinishining yo‘qolishi miqdor reduktsiya deb ataladi. Masalan, sanash so‘zining boshidagi urfusiz /a/, oxiridagi /a/ ga qaraganda ancha kuchsiz va qisqa talaffuz etiladi. Rus tilidagi *gorod, goroda* so‘zlarida urfusiz unlilar kuchsiz va qisqaroq talaffuz etiladi.

Tovushlarning urfuga nisbatan o‘rniga ko‘ra ikki xil pozitsiya farqlanadi: urfuli bo‘findagi holati - kuchli pozitsiya deb, urfusiz bo‘findagi holati - kuchsiz pozitsiya deb ataladi. Kuchli pozitsiyada unlilar o‘z artikulyatsion-akustik xususiyat-larini saqlab qoladi. Kuchsiz pozitsiyada unlilar miqdor va sifat belgilarini yo‘qotadi, ya`ni reduktsiyaga uchraydi.

YUqorida ko‘rsatilgan miqdor reduktsiyasidan tashqari sifat reduktsiyasi ham bor. Sifat reduktsiyasida bir yo‘la tovushning artikulatsiyasi kuchsizlashadi va tovushning sifati o‘zgaradi. Masalan, rus tilidagi *voda, vodi, vodyanoy, vodavoz* so‘zlaridagi urfusiz unlilar (o, a) tovushlari doirasida o‘zgaradi. O‘zbek tili-da bunday xususiyat etarli darajada ko‘zga tashlanmaydi. Reduktsiyaga uchragan tovushlar urfuli tovushlarga qaraganda aniq bo‘lmagan kuchsiz va qisqaroq talaffuzga ega.

Reduktsiya`ning darajasi faqat tovushning holatiga emas, balki talaffuz stiliga ham bofqliq. Odatda to‘liq talaffuz stilida reduktsiya minimal darajada bo‘lib, ofzaki nutq stilida esa, u maksimal darajada ro‘y beradi. Undan tashqari reduktsiyaning darajasi unlilarning tilning ko‘tarilishiga ko‘ra belgilariga (yuqori, o‘rta, quyi) ham borliq.

Undosh tovushlar ham pozitsion o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. O‘zbek tilida so‘z oxiridagi jarangli undoshlar jarang-sizlashishi bunga misol bo‘la oladi (*kitob /kitop/, qand /qant kabi*). Ba‘zan ko‘p bo‘finli so‘zlarda so‘z oxiridagi jarangsiz undoshlar jarangli bo‘lib talaffuz etiladi (*bilak-bilagi, kurak-kuragi, tilak-tilagi* kabi).

Turli holatlarda tovushlarning talaffuzi har xil o‘zgarishlarga uchraydi. N.S. Trubetskoy ko‘rsatishicha "...amaliy jihatdan aynan bir tovushni bir pozitsiyada ham bir necha marta aniq va bir turda talaffuz etish mumkin emas" [Trubetskoy N.S. Osnovi fonologii. M., 1960, s. 48-49.] Nutqda tovushlarning turli pozitsion o‘zgarishlarini qancha chuqr o‘rganilsa, shunchalik ko‘p tovushlarning turlari aniqlanishi mumkin.

2. Nutqda tovushlarning kombinator o‘zgarishlari. Nutqda tovushlarning qo‘shni tovushlar ta`sirida miqdor va sifat belgilarining o‘zgarishi kombinator o‘zgarishlar deyiladi.

Nutqda tovushlarning kombinator o‘zgarishlariga akkomodatsiya, assimilatsiya, dissimilatsiya, diereza, epenteza, gaplogiya, proteza, metateza kabi fonetik hodisalar kiradi. Ba`zan bu hodisalarni o‘rganuvchi bo‘lim kombinator fonetika deb ham yuritiladi. Odatda tovushlarning birikuvi nutq organ-larining turli harakatlariga bogiiq boiadi.

Tovushlar qo‘shni holatda kelganda, oldingi tovushlarning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasi bilan boflanishi natijasida ularning artikulatsiya fazalari to‘la amalga oshirilmasligi mumkin. Turli artikulyatsion-akustik xususiyatlar tovushlar birikmasida bir-biriga ta`sir qilishi natijasida artikulatsiya qisqarishi, tovush ba`zan tushib qolishi va boshqa o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar ba`zan nutqda talaffuzni iqtisod qilish hisobiga bo‘ladi, chunki "... odam o‘zining nutqi eshituvchiga qanchalik tushunarli bo‘lsa, o‘sancha talab etilgan nutq kuchini (ya`ni talaffuzini) sarf qiladi" [Martine A. Osnovi obshey lingvistiki. Novoe v lingvistike. Vfp. III.M, 1963, str. 536].

Nutqda talaffuzni iqtisod qilish artikulatsiyasi qiyin bo‘lgan bir necha undoshlar birikmasini qisqartirib oson talaffuz etishda kuzatilishi mumkin. Nutqda ro‘y beravchi bunday iqtisod qilish tendensiyasi kelgusida til doirasiga ham ko‘chadi.

Masalan, (str) undoshlar birikmasining talaffuzi qiyinchilik turdiradi va shu tufayli uni osonlashtirish turli tillarda bo‘lgan undoshlar birikmasini umumiy qisqartirish tendensiyasiga bo‘ysunadi. Qiyoslang: rus ofzaki nutqida "stram" so‘zi "sram" yoki nemis tilidagi strom so‘zi srom - "yo‘nalish"" kabi talaffuz etiladi [Serebrennikov B.A. Veroyatnostnfe obosnovaniya v komparativistike. M., Nauka, 1974, s. 62].

Quyida har bir kombinator o‘zgarishni alohida ko‘rib o‘tamiz.

Akkomodatsiya. Akkomodatsiya (lotincha accomadatio - moslashuv) keng tarqalgan fonetik hodisalardan biri bo‘lib, talaffuz iqtisodi bilan uzbek boqliqdir. Akkomodatsiya uch turli bo‘ladi. Keyingi tovushning ekskursiyasi o‘zidan oldin kelgan tovushning rekursiyasiga moslashsa, progressiv akkomodatsiya deyiladi. Aksincha, agar oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashsa, regressiv assimilatsiya deb ataladi. Qo‘shni kelgan tovushlarning bir-biriga ta`siri natijasida ularning artikulatsiyasi moslashuvi o‘zaro akkomodatsiya deyiladi. Akkomodatsiya unlilarning undoshlarga va undoshlarning unlilarga moslashuvida ro‘y berishi mumkin. O‘zbek tilida chuqur til orqa (uvulyar) undoshlardan (*x*, *z*, *q*) keyin til oldi unlilari (*i*, *e*, *a*) til orqa unlilari bo‘lib talaffuz etiladi, ya`ni ularning talaffuzi moslashadi. Aksincha, til orqa unlilari (*u*, *o*) til oldi undoshlaridan keyin til oldi unlilari bo‘lib artikulatsiya qilinadi. O‘zbek tilidagi bu xususiyat progressiv akkomodasiyaga misol bo‘la oladi. Unli tovushlar burun undoshlaridan oldin nazalizatsiya qilinishi regressiv akkomodasiyaga misoldir. *Non, nom, ming* so‘zlarida bir yo‘la progressiv va regressiv akkomodatsiya kuzatiladi, chunki ikki burun undoshi orasidagi unli nazalizatsiya qilinadi.

Rus, mordva, chuvash, nemis va fransuz tillarida til oldi unlilardan oldin undoshlar palatalizatsiya qilinadi [Serebrennikov B.A. Veroyatnostnfe obosnovaniya v komparativistike. M., Nauka, 1974, s. 142]1, ya`ni regressiv akkomodatsiyaga uchraydi. Ba`zi tillarda esa, til orqa unlilardan keyin undoshlar velyarizatsiya qilinadi, ya`ni tilning orqa qismi orqaga yoki yumshoq tanglayga tomon yo‘naladi va undoshning ton va shovqini pasayib qattiq talaffuz etiladi. Undoshlarning lablangan unlilar bilan birikuvi natijasida labializatsiya hodisasi ro‘y beradi. Ba`zan esa, velyar va lab undoshlari til orqa lablangan unlilari bilan birikishi natijasida *labiovelyarizatsiya* hosil bo‘ladi. Bu hodisalar ham akkomodatsiyaning turlari hisoblanadi. O‘zbek tilidagi *qunt*, *bolta*, *qarta*, *mingta*, *kamchil* so‘zlaridagi undosh birikmalarining har ikki elementi bir-biriga ta`sir qilib, jarangsiz undoshlar sonorlarni qisman jarangsizlashtiradi va o‘z navbatida, sonorlar ham jarangsiz undoshlarda ovoz tonini kuchaytirib, shovqinni pasaytiradi. Bu hodisa o‘zaro akkomodatsiyaga misoldir.

Akkomodatsiya tovushlarning hosil bo‘lishi o‘rni va usuli, labning holati va tovush psychalarining tebranishi va yaxshi tebranmasligiga ko‘ra moslashuv orqali amalga oshiriladi. Nutqdagi barcha tovushlar bir-biri bilan artikulatsiya fazalari orqali boflanadi va bu artikulatsiya

strukturasini tashkil etadi. Tovushlar o'rtasidagi boflanishning artikulatsiya strukturasini chuqur o'rganish yordamida fonetik hodisalar oydinlashadi.

Assimilatsiya. Assimilatsiya (lotincha *assimilatio* - "o'xshash bo'lish") deb tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida ulardan birining ikkinchisiga o'xshash bo'lish hodisasiga aytildi. Odatda unlilar unlilarga, undoshlar undoshlarga assimilatsiya qilinadi.

Agar o'zaro ta'sir natijasida tovushlar bir-biriga butunlay o'xshash bo'lib qolsa, to'liq assimilatsiya deyiladi. Agar tovushlarning biror artikulyatsion - akustik belgisi o'xshash bo'lib qolsa, to qliq bo'limgan (qisman) assimilatsiya deb ataladi. Masalan, *ketdi* (ketti) so'zida (t) va (d) oldingi (t) jarangsiz undosh ta'sirida o'xshash bo'lib qoladi. Tovushlar bir-biriga ta'sirining yo'nali shiga ko'ra progressiv va regressiv assimilatsiya farqlanadi. Oldin kelgan tovush keyingi tovushga ta'sir qilib, o'ziga o'xshatsa - *progressiv assimilatsiya*, aksincha, keyingi tovush oldingisiga ta'sir qilsa - *regressiv assimilatsiya* deyiladi. Tovushlar artikulatsiya o'rni, usuli, jarangli-jarangsizligi va yumshoq-qattiqligi (bu hodisa rus tilida bor) bo'yicha assimilatsiya qilinadi. O'xshash bo'luvchi tovushlar yonma-yon bo'lsa - *kontakt assimilatsiya*, ular o'rtasida boshqa tovushlar bo'lib, o'xshash bo'luvchi tovushlar bir-biri-dan uzoq bo'lsa - *distant assimilatsiya* deyiladi.

Assimilatsiya bir so'z ichida va so'z birikmalari oralifida ro'y berishi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi *sotdi*, otgan, rus tilidagi *lodka*, *karobka* so'zlarida progressiv kontakt assimilatsiya jarangsizlanish bo'yicha amalga oshiriladi.

Taqsimot (*taxsimot*), *ulusifat* (*uluxsifat*), *o'taketgan* (*o'taketgan*), *o'qchi* (*o'xchi*), *tanbur* (*tambur*) so'zlarida regressiv assimilatsiya uchraydi. *Surnay* (*sunnay*), *kamay* (*kannay*), *tipirlatmoq* (*tipillatmoq*), *mahkam* (*makkam*) (Toshkent shevasida) kabilar to'la regressiv kontakt assimilatsiyaga misoldir. *Qantak* (*o'rik*), *qo'litiqtayoq* (*qo'litiqtayoq*), *to'enaizich* (*to'nazich*) kabilarda to'la distant assimilatsiya uchraydi. Rus tilida distant assimilyatsiya ko'proq uchraydi: *zdravstvuyte* /*zdrasti*/, *pyatnadtsat* /*pitnadtsat*/ kabi.

Assimilatsiya hodisasi ham talaffuzini iqtisod qilishning bir turi hisoblanadi. Assimilatsiya natijasida so'zlar qisqarishi, undagi tovushlarning artikulatsiyasi o'xshash bo'lib qolishi talaffuzni osonlashtirishga yordam beradi. Turli tillarda assimilatsiyaning tabiatini o'ziga xos xususiyatlariga ega. Xususan, nemis tilida jaranglilik belgisi bo'yicha assimilatsiya uchramaydi. Bunday assimilatsiya rus va o'zbek tillariga xosdir.

Distant assimilatsiya ko'proq unlilarning o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradi va turkiy, fin-ugor, ba'zi german tillarida uchraydi. Masalan, nemis tilida otlarning ko'plik qo'shim-chasidagi unli so'z o'zagidagi unliga o'xshash belgilariga ega bo'ladi. Bu hodisani *umlaut* deyiladi: Buch "kitob" - Biicher "kitoblar" kabi.

Progressiv assimilatsiyaning yana bir turi singarmonizm yoki unlilarning uyfunlashuvi deb atalib, u so'zlarda (o'zak va affiks-da) unlilarning o'xshash artikulyasion-akustik belgilarga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Ba'zi afriks tillarida unlilar bir so'z yoki so'zlar birikmasi doirasida uyfunlashadi. Ko'pgina urol va oltoy tillarida unlilar til oldi va til orqa, hamda lablangan-lablanmagan belgilari bo'yicha uyfunlashadi. Masalan, turkiy tillarida, xususan, turkman, qozoq, qirriz, turk, qoraqalpoq tillaridagi so'zlarda til oldi yoki til orqa, lablangan yoki lablan-magan unlilar o'xshash holatda uchraydi.

Bunda so'z o'zagidagi unli bilan uning affiksidagi unli uyfunlashadi. Masalan, turkman tilida: *galamlar* - "qalamlar", *gelinlar* - "kelinlar", qozoq tilida: *bashtar* - "boshlar", *koldor* - "qo'llar", turk tilida: *gol-lar* - "qo'llar", *gozlar* - "ko'zlar" kabi.

Singarmonizm urfu bilan ham bofliq bo'lib, ularning har ikkisi so'zning fonetik belgisi hisoblanadi. Nihoyat, assimilatsiya sinxronik (yangi paydo bo'lgan) va diaxronik (tarixiy shakllangan) bo'lishi mumkin. YUqorida ko'rsatilgan umlaut va singarmonizm hodisalari tovushlarning tarixiy assimilatsiyasi natijasida kelib chiqqan.

3. **O'zgarishlarning boshqa turlari.** Assimilatsiya natijasida nutq tovushlari o'rtasidagi farqlar yo'qolib, ular bir yoki bir necha belgilari bilan o'xshash bo'ladi yoki uyfunlashadi. Biroq bu hodisaga aksincha bo'lgan tovushlarning o'zaro ta'siri ham borki, bunda tovushlarning o'xshash-lik

xususiyati yo'qoladi. Agar so'zdagi ikki bir-biriga o'xshash tovushlardan biri o'zgarib, natijada ular biror artikulyatsion-akustik belgisi yoki bir necha belgilari bilan farqlanib qolsa, *dissimilatsiya* (lotincha dissimilatio - "o'xshamaslik") deyiladi. Masalan, rus va o'zbek orzaki nutqida dissimilatsiya ko'p uchraydi: *tumba* (*tunba*), *Tambov* (*Tanbov*), *tramvay* (*travay*), *kombayn* (*konbayn*), *djemper* (*djenper*), *ambar* (*anbar*) [Avanesov R.I. Russkaya literaturnaya i dialektnaya fonetika. M., 1974, s. 194-198]. Ingliz tilida *marble* - "*mramor*" so'zi frantsuz tilidagi *marbre* - so'zidan kelib chiqqan bo'lib, so'z oxiridagi (r) tovushi dissimilatsiya natijasida (l) ga ko'chgan.

Metateza (yoki inversiya) hodisasi tovushlar yoki bo'finlarning so'z tarkibida o'zaro o'rin almashishi bilan izohlanadi. Ba`zan so'zda yonma-yon kelgan tovushlarning o'zaro o'rin almashinuvi *inversiya* deb, aksincha, bir-biridan uzoq bo'lgan tovushlarning o'zaro almashinuvi metateza deb yuritiladi. Bu hodisa ko'proq orzaki nutqda uchraydi: mramor (marmar), tuproq (turpoq), yomfir (yofmir), tuxfa (tufxa), supra (surpa) kabi.

Diereza (yoki tushurib qoldirmoq) hodisasi undosh tovush-larni talaffuzdan tushurib qoldirish bilan izohlanadi: (Toshkent shevasida) *go'sht* (*go'sh*), *rest* (*ros*), *surtmoq* (*surmoq*), *tandir* (*tanir*) kabi. Agar bir xil yoki o'xshash bo'finlardan biri tushurib qoldirilsa, *gaplogiya* deyiladi. Masalan, morfonologiya so'zi o'rnida morfonologiya, *sariq yoq* o'rnida *saryoq* kabi.

So'zga tovushni qo'shib aytish *epenteza* deyiladi: *nonko'r* (nonga ko'r), *ishqiboz* kabi.

So'zning boshlanfich qismiga tovushlarni qo'shib aytilsa, *proteza* deyiladi. Turkiy tillarda, xususan o'zbek tilida (orzaki nutqda) rus tilidan kirgan so'z boshida kelgan undosh tovushlar birikmasi oldidan (i), (u) unlilarini qo'shib aytish protezaga misoldir: *stantsiya* (*istansa*, *istansiya*), *stol* (*ustol*), *stul* (*ustul*), *spravka* (*ispravka*) kabi.

CHet tilidan kirgan so'zlardagi tovushlarni ona tilidagi tovushlar bilan almashtirib talaffuz qilish *substitutsiya* deyiladi. Odatta, ona tilida bo'limgan chet tilidagi tovushni ko'proq almashtiriladi. Biroq chet tilidagi tovushga o'xshashroq tovush ona tilida boiishiga qaramay, uni almashtirish hollari ko'p uchraydi. CHunki har bir til o'zining alohida tovush sistemasiga ega va undagi tovushlar boshqa tilda qaytarilishi mumkin emas. Bunday tovushlar substitutsiyasi hodisasi atoqli otlarda juda ko'p uchraydi: nemischa: *Webster* - *Uebster*, *Isaak* - *Isaak*, lotincha: *Teodor* - *Feodr* (*Fyodr*), inglizcha: *Tomas* - *Tomas* kabilar.

Tovushlarning almashuvi. YUqoridagi tovushlar almashuvi ikki yoki undan ortiq tiUarda uchraydi. Bir tildagi so'zlarning har xil formalarida ham tovushlar almashuvi ro'y beradi. Bunday tovushlar almashuvi alternatsiya deb ham yuritiladi. Almashinuvchi tovushlarni esa, *alternantlar* deyiladi. Tovushlar almashinuvining turli morfe-malardagi xususiyatlarini morfonologiya o'rganadi.

Tovushlarning almashinuvi ikki xil bo'ladi: fonetik (pozitsion) va ta-rixiy. Fonetik almashuv deb tilning hozirgi talaffuz normasiga asosan ro'y beravchi alternatsiyaga aytildi. Bunday almashuv tovushlarning o'rniga borliq bo'lib, ma'lum holatda uchraydi.

1.CHet tilidan o'tgan so'zlarning bunday berilishi *transliteratsiya* deyiladi. Bu haqda keyinroq to'xtaladi. Masalan: *sez* - *seskanmoq*, *uyqu* - *uyəsonmoq*, *sariq* - *sarzaymoq*, *bilak* - *bilagi* kabi. Tovushlar almashuvi slavyan tillarida, ayniqsa rus tilida juda ko'p uchraydi. Masalan, rus tilidagi *ot* - prefaksi sakkiz xil talaffuz qilinadi: *otpusk* (*otpusk*), *otzov* (*odzuf*), *otxod* (*atxot*), *otgadat'* (*adgadat*), *ottesnit'* (*attisnit*), *otsepit'* (*atsepit*), *ottepel'* (*olttepel*), *otdelit'* (*atdelit*). Ularning har biri fonetik holatiga borliq: yumshoq undosh (f), (d) undoshlaridan oldin keladi: affrikatlar (s) dan oldin, (o) urfiali holatda, (a) urfusiz holatda va hokazo [Bulanin L. L. Fonetika sovremennoj russkogo yazika. M., 1970, s. 129].

Ingliz tilida ham yuqoridagiga o'xshash tovushlar almashuvi kuzatiladi. Masalan, otlardagi ko'plik qo'shimchasi -s otning birlik shaklida u tamomlangan undosh yoki unli tovushning artikulyatsion-akustik xususiyatiga ko'ra har xil talaffuz etiladi: jarangsiz undoshdan keyin /s/, sirfaluvchi undoshlardan keyin /-iz/ va jarangli tovushga tugagan so'zlarda /z/ talaffuz etiladi *maps* /mepiz/ - "xaritalar", *box* /bokiz/ - "qutilar", *beds* /bedz/ "krovatlar" kabi. Bu tovush almashinuvlarida assimila-tsiya muhim ahamiyatga ega.

Ba`zi tovushlar almashinuvi tarixiy faktlar asosida tasdiqla-nishi mumkin. SHu sababli ularni tarixiy tovush almashinuvlari deyiladi. O'zbek tilidagi ba`zi affikslar tarixiy jihatdan har xil

bo‘lgan: -gil, -gil, -qil, -kil, -gali, -zali, -kali, -qali shaklida yozilgan va shunday talaffuz etilgan g-k-q tovushlari almashinuvi ana shunday tarixiy jihatdan shakllangan alternatsiyaga kiradi.

Rus tilidagi k-ch tovush almashinuvi (masalan, ruka-ruchka so‘zlarida) undoshlardan keyin kelgan til oldi unlisining ta`siri-da bo‘lgan. Aslida sifatlarning suffiksi -n bo‘lgan. Ruch-fonetik holatiga bofqliq bo‘lmay qolgan va k-ch almashinuvi pozitsion bofqliqlikdan chiqib, tarixiy bo‘lib qolgan. SHu sababli uni hozirgi rus adabiy tili talaffuz normasi yordamida tushuntirish mumkin emas [Bulanin L. L. Fonetika sovremennoj russkogo yazika. M., 1970, s. 132-133].

Ingliz tilida so‘zlarning o‘zagida kelgan unlilarning almashuvi birqancha feql shakllarini yasashda qo‘llanadi va tarixiy assimilatsiyaga misol bo‘la oladi: /i: /e/ e/ - feed, fed, fed - "boqmoq" (/i: /e/ e/ — feed, fed, fed — "boqmoq"), /i: /l/ l/ - vin, von, von (win, won, won) - "yutmoq (o‘yinni)" kabi.

Tovushlar almashuvi natijasida so‘z turkumlari, so‘zlarning grammatik shakllari va boshqalarni farqlash mumkin. Tovushlar almashuvi faqat adabiy tilga xos bo‘lmay, balki shevalarda juda ko‘p uchraydi. Xususan, a/ e, i /e tovushlar almashuvi turkiy tillari shevalarida otlarning ko‘plik affikslarida uchraydi. O‘zbek tili va uning shevalarida bunday tovush almashuvi quyidagicha bo‘ladi: adabiy tilda: otlar - itlar; o‘zbek shevalarida: atlar - iytlar / iytlar, atlar - itlar /itler, etler; qozoq tilida: attar - iytter.

Fonetik va tarixiy almashuvlari o‘rtasidagi o‘xshashlik ularning har ikkisi ham morfologik funksiyani bajarishida ko‘rinadi. Biroq fonetik tovush almashuvi tilning hozirgi talaffuz normasi bilan bogiiq bo‘lsa, tarixiy tovush almashuvi bunday xususiyatga ega emas.

5-ma`ruza: **FONOLOGIK NAZARIYALAR**

R e j a:

- 1.Fonologiyaning o‘rganish ob`ekti, vazifalari.
- 2.Fonologik nazariyalar va fonologik tasnif metodlari.
- 3.Fonologik oppozitsiyalarning tasnifi.
- 4.Fonologiyada distributiv metodning qo‘llanilishi.
- 5.Fonotaktika.

Fonologik nazariyalar va fonologik tasnif metodlari. Tilshunoslik tarixida ilk bor yaratilgan fonema nazariyasi Boduen de Kurteneга tegishlidir. Tilshunoslik tarixida birinchi marta fonemalarning psixologik va morfologik izohini berdi. Ushbu izohlar zaminida keyinchalik Moskva va Peterburg fonologiya maktablari vujudga keldi.

E. D. Polivanov dastlabki ishlarida til hodisalarini psixologik nuqtai nazardan o‘rganib, tilni ijtimoiy hodisa deb qaraydi. Lekin u fonologiyani psixofonetika deb nomlaydi. Fonemaning fakul’tativ variantlari va kombinator variantlari orasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqladi, bir fonemaning ikki fonemaga parchalanishi (divergentsiya) va ikki fonemaning o‘zaro bir-biriga o‘xshab qolishi yoki bitta fonema bo‘lib ketishi (konvergentsiya) nazariyalarini ishlab chiqdi. U morfemani ikki turga - leksik (o‘zak) va formal (grammatik) turlarga ajratadi.

L. V. SHcherba fonetika, fonologiya va fonema nazariyasi haqida ham qimmatli fikrlar bildirgan. Fonema nazariyasi uning «Frantsuz tili fonetikasi» kitobida bayon etilgan. Uning fonema haqidagi kontseptsiyasi keyinchalik shogirdlari L. R. Zinder, M. I. Matusevich tomonidan davom ettirildi.

Tilshunoslik tarixida tovush sistemasini o‘rganish ikki davr bilan xarakterlanadi:

1. «Fonema» tushunchasi paydo bo‘lgunga qadar bo‘lgan davr.
2. Fonologiya nazariyalarining yuzaga kelish davri. Bu davr XIX asrning 2 yarmidan boshlab XX asrgacha davom etadi. Bu davrda tovush, harf va fonema tushunchasi farq qilindi va keyincha bo‘rin, urfu hamda intonatsiyaning tildagi funktsional tomonlari o‘rganila boshlandi.

Fonologiya asoschilari:rus va polyak olimi I.A. Boduen de Kurtene, N.V.Krushevskiy, frantsuz P. Possi, ingliz G. Sunt, shveytsariyalik Ferdinand de Sossyur, rus P.K.Us.

Nazariyalar: 1. I.A.Boduen de Kurtenening psixologik fonologiya nazariyasi. («Fonema» tovush tushunchasining kishi ongida his etilgan birligidir).

2. L. V. SHerba - fizik fonologik nazariya. (Nutq tovushlari fizik, mexanik hodisa hisoblanadi).

3.Leningrad va Moskva fonologiya maktablari nazariyalari. L.V.SHerbaning shogirdlari - ikki oqimda. Moskva - A.A.Reformatskiy, P. S. Kuznetsov, V. N. Sidorov va boshqalar. Leningrad - L. R. Zinder, M. I. Matusevich, A. N. Gvozdev, YU. S. Maslov va boshqalar. Moskva maktabi fonologiyaga ta`rif berishda morfema tushunchasiga, ya`ni tilning eng kichik ma`noli birligiga suyanadi. Bunda morfemalardagi tovush almashuvida ishtirok etuvchi tovushlar bir fonemaga birlashtiriladi. Masalan, *voda*, *vodi*, *na vodu* morfemalardagi o\a\` tovush almashuvi bir o fonemasining variantlari hisoblanadi. Leningrad fonologiya maktabi fonemaga ta`rif berishda so‘z formasi tushunchasidan kelib chiqib, yuqorida misoldagi o, a, ` tovushlarining har birini alohida fonemaning vakili sifatida qaraydi.

«Fonema» termini va tushunchasini turkologiyaga birinchi marta 1920 yilda taniqli olim N.K.Dmitriev kiritgan bo‘lsa, uni o‘zbek tilshunosligida birinchi bor o‘sha yillarda professor E.D.Polivanov qo‘lladi.

CHet ellarda fonologik nazariyalarning o‘rganilishi.

1. Praga lingvistik maktabi.
2. London fonologiya maktabi.
3. Distributiv fonologiya nazariyasi – AQSH.
4. Dikotalik fonologiya nazariyasi – AQSH.
5. Makro va mikrofonema nazariyasi - AQSH,1935.
6. Glossematik fonologiya nazariyasi - Daniya.
7. Ikki poronali fonologiya nazariyasi.
8. Generativ fonologiya nazariyasi.

Fonologiya davrida ular o‘rtasidagi farq oydinlashtirildi va tovushlar, keyinchalik bo‘fin, urfu va intonatsiyaning tildagi funktional tomonlari o‘rganila boshladi. XX asrning 30-yillarda morfonologiya vujudga keldi. Bular haqidagi fikr paydo bo‘ladi. Bu haqidagi fikrlar A.Nurmonovning «O‘zbek fonologiyasi va morfologiysi» (Toshkent,1990), A.Abduaizovning «O‘zbek tili fonologiyasi va morfologiysi» (Toshkent, 1992) o‘quv qo‘llanmalarida o‘z ifodasini topgan.

Fonologik oppozitsiyalarning tasnifi. Fonologik jihatdan fonemalar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yildi: *p-t*, *s-sh*, *x-q*, *a-o*, *u-i* kabi. Bunday fonemalarning qarama-qarshi qo‘yilishi *fonologik oppozitsiya* deyiladi.

Har bir fonema fonologik oppozitsiyaning a`zosi hisoblanadi. Tildagi barcha fonemalar o‘zaro oppozitsiyani tashkil qiladi. Bu fonemalarning borlanishi va aloqalari yirindisi *fonologik sistema* yoki *fonematik sistema* deb yuritiladi. Fonemalarning o‘zaro borlanish xarakteri, ya`ni uning qanday ichki aloqada ekanligi *fonologik* yoki *fonematik struktura* deb ataladi. Har bir fonema *fonologik birlik* yoki *element* deyiladi. Har bir til o‘zining fonologik sistemasiga ega bo‘lib, undagi har bir fonemaning o‘z o‘rnini va funksiyasi bor. Bir tildagi fonema ikkinchi tilda bo‘lishi mumkin emas.

Tildagi so‘z va so‘z formalarini tashkil etuvchi fonemalarni go‘yo yonma-yon qo‘ygandek ko‘rinishga ega sifatida tasavvur qilish mumkin emas. CHunki fonemalar bir-biriga birikish jarayonida har xil o‘zgarishlarga uchraydi. Har bir fonema o‘zining fonologik (farqlanuvchi) alomatlariga ega. Har xil fonemalar qarama-qarshi qo‘yilganda, bu belgilarni aniqlash mumkin. Masalan, *b-p* fonemalari jarangli, jarangsiz belgilari bilan farqlanadi. Ularning qolgan belgilari lab va portlovchi xususiyati har ikkisiga xos xususiyat, ya`ni fonologik emas.

Tildagi fonologik oppozitsiyalar ikki a`zodan iborat bo‘lsa, *binar oppozitsiya* deyiladi: *b-p*, *t-ch*, *i-u* kabi. Fonologik oppozitsiyalar uch a`zodan iborat bo‘lsa, *tenar oppozitsiya* deyiladi: *p-t-k*, *i-e-a* kabi. Uchtadan ortiq a`zoga ega bo‘lgan oppozitsiyalar ko‘p a`zoli oppozitsiyalar deyiladi: *b-d-g-h*.

Fonologiyada distributiv metodning qo'llanilishi. Tildagi fonemalar bir qancha tovushlarda namoyon bo'ladi. Fonemalar bo'finlar, so'zlar, so'z birikmalari va frazalarning tarkibida joylashgan. Ular har xil o'rnlarda va holatlarda uchraydi. Odatda bu holatlar *pozitsiya* deyiladi. Fonemalarning har xil aytish shartlari bo'yicha taqsimlanishi ularning *distributsiyasi* deyiladi.

Distributiv tahlil metodi til birliklarining o'zaro joylashishi, ularning o'zaro birikish qonunlarini o'rganadi. Distributiv tahlil metodi til tizimining fonologik, morfologik va sintaktik birliklarini o'rganishda qo'llaniladi.

Til birliklarining distributsiyasi biror bir birlikning boshqa bir birlik bilan birikish usullari qaerda, qaysi holda va qanday qo'llanish doirasi yifindisidan iborat, degan savollarga javob beradi. Bular distributiv tahlil metodining mohiyatini tashkil etadi.

Bu metod til birliklarining o'zaro joylashishi, ularning o'zaro birikish qonunlarini o'rganadi. Distributiv tahlil metodi til tizimining fonologik, morfologik va sintaktik birliklarini o'rganishda qo'llaniladi.

Til birliklarining distributsiyasi biror bir birlikning boshqa bir birlik bilan birikish usullari qaerda, qaysi holda va qanday qo'llanish doirasi yifindisidan iborat, degan savollarga javob beradi. Bular distributiv tahlil metodining mohiyatini tashkil etadi.

Yana bir jihatga e'tibor beraylik: bo'fin, urfu va ohang nutqni ifodali qilish uchun ekspressiv funktsiya bajaradi. Bu funktsiya tilning stilistika bosqichidagi *fonostilistika* deb ataluvchi qismida o'rganiladi. Xususan, unli va undosh tovushlarni cho'zib aytish, bo'fin orttirish, intonatsiyaning melodiyasi (ohangi) va urrusini odatdagidan ko'ra boshqacha aytish xususiyati fonostistik belgilardir.

6-ma`ruza: LEKSIKOLOGIYA VA SEMASIOLOGIYA

R e j a :

1. Leksika va leksikologiya haqida umumiyl tushuncha.
2. So'z va uning ta`rifi. Til qurilishida so'zning o'rni.
3. So'zning tovush va ma`no tomonlari. Uning tushuncha bilan aloqasi.
4. Semasiologiya – so'z va iboralarning ma`nolarini o'rganuvchi soha.
5. So'z va uning ma`nosi.
6. So'z ma`nolari o'rtasidagi munosabatlar.
7. Omonimlar va ularning turlari.
8. 5.Sinonimlar va ularning tiplari.
9. Antonimlar.
10. Tabu va evfemizmlar.

Tayanch iboralar: luqat tarkibi yoki leksika, leksikologiya, semasiologiya, tilning ifoda plani, tilning mazmun plani, nominatsiya nazariyasi yoki onomasiologiya, leksik stilistika (uslubiyat), etimologiya, frazeologiya, onomastika, toponimika polisintetik tillar, minimal sintaktik birlik, semantik belgilar, so'zning aktsent kuriishi, so'zning morfemik tuzilishi, atama, so'zning leksik ma`nosi, predmet va tushuncha, nominativ vazifa, kontekst (matn), nutk vaziyati, so'zning grammatik ma`nosi, turdosh otlar, atoqli otlar, denotativ aloqa, segnifikat, struktural aloqa, semema, leksema, sema, konnotativ ma`no, semantik yoki tushuncha maydoni, kontekstologiya (matnshunoslik).

Leksik ma`no, luqaviy ma`no, so'zning asosiy (to'eri) ma`nosi, so'zning ko'chma ma`nosi, polisemiya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifaviy ko'chish, so'z ma`nolarining kengayishi yoki torayishi, omonimlar, haqiqiy omonimlar, omofonlar, omograflar, omoformalar, to'liq omonimlar, to'liq bo'lmagan omonimlar, ekspressiv uslubiy bo'yoqlar, sinonimiya, absolyut sinonimlar, semantik tip, matniy sinonimlar, uslubiy sinonimlar, sinonimik qator, sinonimika, antonimlar, leksik va grammatik antonimlar.

Leksika va leksikologiya haqida umumiyl tushuncha. So‘z tilning asosiy va markaziy birligi hisoblanib, tildagi so‘zlarning jami *leksikani* (lufat tarkibini) tashkil etadi. Tilshunoslik fanining til leksikasini o‘rganuvchi bo‘limi *leksikologiya* (grekcha lexis-«so‘z»va logos-«ta’limot») deyiladi.

Tilning lufat tarkibiga aloqador barcha birliklar (mas., so‘zlar, frazeologizmlar) *luzaviy birliklar* deyiladi. Lufaviy birliklar anglatgan ma`nolarning umumiyl xususiyatlaridan kelib chiqib, ma`lum tematik turlarga bo‘linadi. Bunda asosiy vazifani birliklarning lufaviy ma`nosi bajaradi. Leksik ma`no esa, yuqorida ta`kidlanganidek, umumlashtirish xususiyatiga egadir.

Leksikologiyada so‘zlar quyidagi xususiyatlari bo‘yicha o‘rganiladi:

1. So‘zning semantik qurilishi.
2. So‘zlarning shakl va ma`no munosabatlari.
3. Leksikadagi so‘zlarning o‘z yoki o‘zlashgan so‘z ekanligi.
4. Qo‘llanishiga ko‘ra so‘zlarning umumiyl yoki chegaralanganligi.
5. Tarixiy jihatdan o‘zbek tili leksikasi.
6. So‘zlarning emotsiyal-ekspresiv bo‘yoq yoki stilga munosabati.

Boshqacha aytganda, tilning leksikologiyasini o‘rganish juda keng soha bo‘lib, u so‘zlarning hosil bo‘lishi, lufat tarkibining boyishi va nutqi, ishlatilishi, ma`nolarning o‘zgarishi, torayishi va kengayishi, turli atamalarining qo‘llanilishi kabi bir qator masalalarni qamrab oladi. SHu tufayli leksikaning turli tomonlarini o‘rganuvchi alohida sohalar mavjud.

O‘zbek tilidagi lufaviy birliklarning ayrim tematik turlarini ko‘rib o‘tamiz.

Semasiologiya til birliklari (til ishoralari)ni ma`no jihatdan o‘rganadi. Til birliklarining, birinchi navbatda, leksik birliklarining semantik qurilishini va u bilan borliq masalalarni o‘rganuvchi soha **semasiologiya** deyiladi. YA`ni u tilning barcha ma`no anglatuvchi birliklarini o‘rganadi.

Leksikografiya tilshunoslikning lufat tuzish ishi bilan, uning nazariy masalalari bilan shufullanuvchi bo‘limi hisoblanib, unda til tarkibidagi so‘zлarni ma`lum tartib va maqsad asosida (alfavit tarkibida, nutqda ishlatilish darajasi va shu kabilarga ko‘ra) yozma ravishda to‘plab lufat tuzish masalalarni o‘rganadi.

Onomasiologiya leksikologiyaning lufaviy birliklarini nomlash va tushuncha anglatish printsiplari va qonuniyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi bo‘lib, narsa va hodisalarga nom berish jarayonini qamrab oladi.

Etimologiya so‘zlarning kelib chiqishi masalalari bilan shufullanadi. YAsama, qo‘sma so‘zlar va xorijiy tillardan o‘zlashtarilgan ma`nolar bilan ham qiziqadi. etimologiya so‘zning har ikki tomonini, ya`ni shakli va ma`nosini hisobga oladi. So‘zlarning «biografiyasi»ni, kelib chiqish tarixini o‘rganuvchi soha **etimologiya** (grekcha etymon-haqiqiy, logos-ta’limot) deyiladi.

So‘zlarning haqiqiy va birinchi asl ma`nolari va shakllari til tarixi, boshqa tillar va dialektlardagi shu so‘z to‘fri kelgan o‘zakka ega bo‘lgan so‘zlar bilan qiyoslash asosida aniqlanadi. Bunda so‘zlarning avvalgi ma`nosi va formalari chuqur o‘rganiladi. So‘zlarning kelib chiqish tarixi tarix, arxeologiya, geografiya, antrapologiya, madaniyat va san`at kabi qator fanlar yordamida aniqlanadi.

«Etimologiya» termini tilshunoslikda ikki ma`noda ishlatiladi. Leksikologiyaning ma`lum tilda so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘rganuvchi sohasi ma`nosida hamda biror so‘zning birinchi asl ma`nosi va shakli ma`nosida.

YAngi so‘zlarning kelib chiqishini aniqlash oson, lekin eski so‘zning qachon paydo bo‘lgani va qaysi tildan yoki shevadan olinganini bilish ancha qiyin. Biror so‘zning kelib chiqishini aniqlashda shu so‘z qardosh tillardagi so‘zlarning tovush qurilishi va ma`nolari bilan qiyoslanadi. Misollar: *arxitektor-quruvchi-haykal quruvchi va binoning loyihasini chizuvchi*.

Tilning lufat tarkibiga faqatgina so‘zlar emas, balki turfun bo‘lib qolgan so‘z birikmali ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo‘lgan turfun birikmalar *frazeologizmlar* yoki *frazeologik birikmalar (iboralar)* deb ataladi.

Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi *frazeologiya* (grekcha phrasis-ibora, logos-so‘z, tushuncha, ta`limot) deyiladi

Frazeologizmlar ham tilshunoslikning leksikologiya bo‘limi doirasida o‘rganiladi

Frazeologizmlarning tarkibida nechta so‘z ishtirok etishiga qaramasdan, ular yagona umumiylar bilan birlashada va emotsiyal-ekspressiv ma`no ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotlarda obrazli va ta`sirchan ifoda vositasi sifatida mahsuldor qo‘llaniladi.

Frazeologizmlar uch xil bo‘ladi:

- frazeologik qo‘shilmalar
- frazeologik butunliklar
- frazeologik chatishmalar.

Tarkibidagi bir so‘z to‘fri, ikkinchi so‘z esa ko‘chma ma`noda bo‘lib birikkan iboralar *frazeologik qo‘shilmalar* deyiladi: *hordiq chiqarmoq, so‘zida turmoq, holdan toymoq* kabi.

Tarkibidagi so‘zlarning ma`nosi va grammatik jihatini birikib, umumiylar ko‘chma ma`no beruvchi iboralar *frazeologik butunliklar* deb ataladi: *ko‘kka ko‘tarmoq-maqtamoq, eti suyagiga yopishgan-ozein* kabi.

Tarkibidagi so‘zlarning ma`nolari bilan ibora ifoda etgan ma`no o‘rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar *frazeologik chatishmalar* deyiladi: *sichqonning inini ijara olmoq, sichqonning ini ming tanga bo‘lmoq, oyozini tirab olmoq* kabi.

Frazeologik qo‘shilma va butunliklar so‘zlarni o‘zaro biriktirish yo‘li bilan yasalgan yaxlit iboralar bo‘lib, ularning tarkibidagi ba`zi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarning komponentlarini almashtirish mumkin bo‘lmaydi.

Xuddi leksikada bo‘lgani kabi, frazeologiyada ham *omonimiya, sinonimiya, antonimiya* kabi hodisalar mavjud. Omonimiya: *boshiga ko‘tarmoq; sinonimiya: kayfi buzuq-ta`bi tirriq; antonimiya: ko‘ngli joyiga tushmoq-yuragiga sulzula tushmoq* kabi. Polisemiya: *o‘ziga kelmoq, xushiga kelmoq; qo‘lga tushmoq-asr tushmoq* kabi.

Frazeologizmlar semantik tomondan umumlashgan ko‘chma ma`no ifodalasa, grammatik tomondan ularning butunligi komponentlarning o‘zaro birikuvi va gapda ham shu tartibni saqlab qolish uchun izohlanadi.

Onomastika atoqli otlarni o‘rganadigan fan bo‘lib, *antroponomika* (odamlarning ismini ilmiy jihatdan o‘rganadi), *toponimika* (geografik nomlarni o‘rganadi), *etnonimika* (millatlarning nomlarini o‘rganadi) dan tarkib topadi.

Terminlogiya. Tilda shunday so‘zlar borki, ular fan, texnika, adabiyot, san`at va madaniyatga oid tushunchalarni ifoda qilib, bir ma`noda ishlatiladi. Bunday so‘zlar *terminlar* deb ataladi. Har bir sohaga oid terminlar birlashtirilib *terminlogiya* deb yuritiladi. Mas., tilshunoslik fani o‘z terminlariga ega: *unli, undosh...*

Terminlarning ko‘p ma`noda ishlatilishi fan uchun ijobiy xususiyat sanalmaydi. Chunki bir terminning turli fanlarda har xil ma`nolarda qo‘llanishi ba`zan noaniqliklarga olib kelishi mumkin.

Terminlarning asosiy (ma`nolari) belgilari ularning bir ma`noliligi (monosemantik ekanligi), neytral, alohida emotsiyal-ekspressiv bo‘yoqqa ega emasligi, biror fan va texnika sohasiga tegishli ekanligi bilan izohlanadi. Ba`zan terminlar badiiy asarlarda stilistik talabga ko‘ra ishlatilishi mumkin.

Termin uchun kontekstning bo‘lishi shart emas.

Har bir fanning o‘z terminlar tizimi mavjud.

Terminlar bir-ikki so‘zdan va so‘zlar birikmasidan iborat bo‘lishi mumkin.

Kelib chiqishi jihatdan terminlar har bir tilning ichki resurslariga xos va boshqa tillardan o‘zlashgan bo‘lishi mumkin. Ichki resurslarga misol: *to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol*.

O‘zbek tilida chet tillardan o‘zlashgan terminlar juda ko‘p. Mas., *meditsina, biologiya, ximiya, fizika...* sohalarida.

Ko‘pgina terminlar ular ifodalaydigan tushuncha va jismning nomi bilan butunlay boflanmaydi. Mas., *gagarinit, iravdit*.

Har bir fan va texnika sohasiga tegishli alohida *terminologik lutzatlar* mavjud: *tilshunoslik*, *adabiyotshunoslik* va boshqa fan sohalarida. Ular bilan tilshunoslikning *leksikografiya* sohasida atroflicha tanishiladi.

Tilning hozirgi holati va uning tarixiy bosib o'tgan yo'li jihatdan leksikologiya 2 turga: *sinxronik* (zamonaviy) va *dioxronik* (tarixiy) leksikologiyaga ajratiladi.

Tilning lufati *tasnify* va *qiyosiy* o'rganilishi mumkin. Ayrim olingan tilning lufat boyligini har tomonlama o'rganish *tavsify* leksikologiya, ikki yoki undan ortiq tillarning lufat boyligini qiyosiy o'rganish *qiyosiy leksikologiya* deb yuritiladi.

Grammatik distributsiya deganda bir turkumdag'i so'zning boshqa turkumdag'i so'zlar bilan birika olishi tushuniladi. *Leksik-semantik distributsiyada* so'z ma'nolarining bir-biriga mos kelish-kelmasligi tushuniladi.

So'z va uning ta'rifi. Til qurilishida so'zning o'rni. «So'z fonetik jihatdan shakllangan bir butunlikdir: fonema va morfemalar so'zning asosiy birlklari, so'zlar mustaqil birlik bo'lib, o'z urrusiga ega. Urnu so'zning fonetik jihatdan butunligini ta'minlab, undagi tovushlarni birlashtiradi va shu bilan birga, nutq jarayonida bir so'zni ikkinchi so'zdan farqlash uchun xizmat qiladi. So'zning butunligini ko'rsatuvchi bir dalil pauzadir», - deydi M. Irisqulov.

Nazarimizda, bu ta'rif birmuncha tarqoqdir. CHunki ta'rifda so'zning barcha muhim tomonlari o'z ifodasini topishi kerak. SHu ma'noda so'zni quyidagicha izohlash mumkin:

So'z borliqdagi hodisa va narsalarning ma'nosini ifoda etuvchi, grammatik jihatdan shakllangan va jamiyat a'zolari tomonidan bir xil tushuniladigan, tovush shaklida ifodalangan mustaqil va markaziy til birligidir.

Til qurilishida so'z alohida o'rin egallaydi. SHuning uchun ham u faqat leksikologiya va semasiologiyada emas, balki boshqa sohalarda ham ilmiy tadqiq etiladi.

So'zning grammatik jihatini olib qaraylik. Tilning eng kichik ma'noli birligi hisoblangan morfema oralifida so'zning ma'noli qismlari: o'zak, suffiks va hokazolar qaralsa, mustaqil so'z formasidagi gaplar (masalan, nominativ gaplar: *qish*, *sovutq*, *qorong'i* kabi) sintaktik jihatdan alohida gap turlari sifatida izohlanadi.

Ko'rinadiki, so'z qurilishi va semantik jihatdan ma'noli qismlarga bo'linish xususiyatiga ega. Bir morfemali va ko'p morfemali so'zlarning o'zagi mustaqil ma'noga ega bo'ladi. Demak, so'z mustaqil ma'noga ega bo'lgan birligidir.

Demak, so'z shakli (tovush shakli) va mazmun birligiga ega bo'lib, semantik va grammatik yaxlitlikni o'zida mujassamlashtiruvchi birligidir. U til qurilishida shakl va ma'no jihatni bilan to'rt bosqichda ilmiy tahlil etiladi:

a) fonologik jihatdan so'zning fonemalar tarkibi va uning aktsent (urru) qurilishi o'rganiladi;

b) morfologik jihatdan so'zning morfemik tuzilishi ilmiy tahlil qilinadi;

v) leksik jihatdan so'zning atama birlik ekanligi, ya'ni nom qo'yish bilan bo'qliq tomoni qaraladi;

g) semantik jihatdan so'zning turli ma'no tomoni tadqiq etiladi.

Ko'rinadiki, so'z til qurilishining barcha sohalari bilan borliq.

So'zning fonetik qurilishi haqida oldingi darslarda bahs yuritganmiz.

Xo'sh, uni morfologik jihatdan o'rganish nima uchun kerak?

So'zlar alohida olinganda ma'lum bir ma'noni anglatishga xizmat qilsa-da, keng ma'nodagi fikrni ifodalay olmasligi mumkin. Ana shunday paytda, garchi so'zga ikkilamchi bo'lsa-da, grammatik vositalarga ehtiyoj turiladi. Ular so'zlarni borqlashga, ularning shaklini o'zgartirishga, binobarin ma'noning o'zgarishiga ham xizmat qiladi.

SHu nuqtai nazardan so'z ham, gap ham qurilmadir. Ular ma'lum tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'ladi.

Bir qarashda betartibdek tuyulgan so'zlar aslida o'zlarining leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra turli so'z turkumlariga ajratiladi.

Leksik xususiyati deganda uning ma`nosi negiz yasovchi elementi nazarda tutiladi. Grammatik xususiyati esa so‘zning grammatic shakli, ya`ni qanday grammatic qo‘shimchalar olishi, gapda qanday gap bo‘lagi bo‘la olishi va nihoyat so‘zlarning bir-biri bilan birika olishi kabilar hisobga olinadi.

So‘zning boshqa so‘zlar bilan birikishi, ya`ni distributsiyasi so‘zlarning grammatic va leksik-grammatic nuqtai nazaridan qaralishi kerak.

So‘zning tovush va ma`no tomonlari. Uning tushuncha bilan aloqasi. So‘zni tashkil etuvchi tovushlar predmetning qiyofasi bo‘lmay, uning ishorasıdir. Narsa ishorasi bo‘lmish so‘zning tovushlar yifindisi - shartli va ixtiyoriy emas. Unga odamlar tashqaridan o‘z hohish irodalariga qarab ta`sir o‘tkaza olmaydilar.

B.A.Golovinning ushbu gapi diqqatga sazovordir: «Kishilarnig ongida ham so‘zning, ham narsaning fizik va moddiy tuzilishi aks etadi. Demak, narsa bilan so‘zning qiyofasi bizning ongimizda birlashib bir butunlikni tashkil etadi».

So‘zning fizik qiyofasi bilan u anglatgan narsaning fizik qiyofasi o‘rtasidagi borlanish birligini *ma`no* deb ataymiz.

Demak, ma`no borliqdagi predmetni aks ettiradi, so‘zning moddiy tomoni esa predmetning ishorasi bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida so‘zning ma`nosini *signifikat* atamasi bilan so‘z anglatayotgan hodisani esa *denotat* atamasi orqali ifodalanadi.

SHunday qilib, so‘zlar bir-biri bilan borlangan uch jihat: shakl, narsa (hodisa) va mazmundan tashkil topadi.

So‘z va u atagan narsa o‘rtasida bevosita borlanish yo‘q. Hozirgi zamon fanining xulosasi shu. Qadimgi YUnionistondagi oqimlar - analogistlar bor degan, anomalistlar - yo‘q degan.

So‘z va tushuncha. So‘zning leksik -semantik xususiyatlari uning leksik, grammatic va semantik jihatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

YUqorida ta`kidlanganidek, qadimiy tilshunoslikda so‘z va nom o‘rtasida moslik bor deb qarash ham mavjud edi.

So‘zning aytishi bilan predmet yoki hodisa o‘rtasidagi borlanish uning ma`nosini yuzaga chiqaradi.

So‘zlar aslida turli struktural ko‘rinishlarga egadir. SHu tufayli so‘zning predmet va tushuncha bilan borlanishini shartli ravishda qaramoq zarur. CHunki barcha so‘zlar ham predmet, hodisa yoki belgining nomini atamaydi, ya`ni hamma so‘zlar nominativ funksiyaga ega emas. (So‘z turkumlari bo‘yicha qaraganda ma`lum bo‘ladi).

So‘z ma`lum nutq vaziyatida yoki matnda o‘zining konkret shakliga ega bo‘ladi.

So‘z biror tushuncha, predmet, hodisa yoki belgini ifodalay oladi. Lekin so‘z tushuncha va predmetning aynan o‘ziga hech to‘fri kelmaydi.

Ayrim olingan so‘zga tegishli bo‘lib, boshqa so‘zlardan farqlay oluvchi ma`no shu so‘zning *leksik ma`nosi* deyiladi. O‘z leksik ma`nosidan tashqari predmetlik va harakat ma`nolarini ifoda qilinishi *grammatik ma`nosidir*. Grammatik ma`no so‘zning leksik ma`nosiga orttirilgan qo‘shimcha ma`nodir.

Barcha so‘zlar o‘z aytishi, ya`ni tovushlar birikmasi yoki bir tovushdan iborat bo‘lgan material tomoniga ega. So‘zning material tomoni u ifoda etgan predmetning belgisi deb qaraladi. Til esa ana shunday belgilarning alohida tizimidir.

Tilning mazmun planida so‘zning asosiy ma`nosi *semema* termini bilan ataladi, ifoda planida esa *leksema* deb yuritiladi. Masalan, *bormoq*, *yurmoq*, *chopmoq*, *kelmoq*, *qadam bosmoq* so‘zlar turli leksemalar bo‘lib, «harakat qilmoq»ni ko‘rsatuvchi bir sememaga birlashadi. Ammo bu so‘zlarning har biri alohida semasiga ega. Semalar bir so‘zning ma`nosini boshqa so‘zlardan farqlash uchun xizmat qiladi. Semalar predmet va hodisalarga tegishli bo‘lgan ichki va tashqi belgilarni yordamida aniqlanadi va ular nutq jarayonida oydinlashadi.

Semasiologiya – so‘z va iboralarning ma`nolarini o‘rganuvchi soha. So‘zning semantik qurilishi shu so‘zga xos ma`no (ma`nolar va qo‘shimcha stilistik ma`nolar)dan iborat bo‘ladi.

YUqorida qayd qilganimizdek, so‘zning semantik qurilishi va u bilan bofqliq hodisalarni o‘rganuvchi soha *semasiologiya* deyiladi.

Har qanday so‘z shakl va ma`no butunligiga egadir: *uy, daraxt, suv, havo* va h.

Tildagi barcha so‘zlar ma`noli bo‘lsa-da, lekin ular ma`noning eng umumiy xususiyatiga ko‘ra ham o‘zaro farqlanadi. Masalan, tildagi so‘zlarning asosiy qismi ob`ektiv borliqdagi narsa, belgi yoki harakat haqidagi tushunchani bildiradi: *paxta, tuproq, oq, ushlar* kabi.

Boshqa so‘zlar esa, ya`ni yordamchi so‘zlar (*ilan, uchun, va, agar*), shuningdek, undov va taqlid so‘zlar (*eh, ura, lip-lip*) tushuncha ifodalamaydi. Tushuncha ifodalaydigan so‘zlargina leksik ma`noga ega bo‘ladi.

YUqorida ta`kidlaganimizdek, so‘zning ob`ektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilalar haqidagi ma`lumot *leksik ma`no* deyiladi.

Leksik ma`noli so‘zlar narsa, belgi yoki harakatning konkret (aynan) o‘zini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi. Tushuncha esa narsa, belgi, harakat kabilarning kishi ongidagi in`ekosidir.

So‘zlar leksik va grammatick ma`nolaridagi umumiylit va o‘xhashlik alomatlari bilan ma`lum tipga bo‘linadi. Masalan, qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar, xursandchilik va xafachilikni bildiruvchi so‘zlar, turli hissiyot va boshqalarga tegishli so‘zlar alohida leksik-semantik guruhlarni tashkil etadi. Ularni tadqiq etishda «semantik yoki tushuncha maydoni» nazariyasidan, kontekstdan va leksemalarning birikuvidan (bu ko‘pincha «valentlik»deyiladi) foydalaniladi.

Har bir leksik ma`no muayyan bir so‘zga tegishli bo‘ladi. O‘zi anglatgan narsaga nisbatan olingan leksik ma`no umumlashtirish xususiyatigi egadir. Bu xususiyat lufaviy ma`no deyiladi.

So‘zlarning umumlashgan yoki konkret ma`nolari kontekst yordamida aniqlanadi.

So‘zning semantik qurilishidagi qo‘sishimcha ottenkalar emotsional-ekspressiv bo‘yoq va stilistik beligidir.

Emotsional-ekspressiv ottenka so‘zning leksik ma`noga qo‘sishimcha tarzda sub`ektning histiyfusi, kayfiyati va shu kabi turli munosabatlarni ifodalash xususiyatidir.

Leksik ma`no so‘zning semantik qurilishida albatta bo‘ladi. emotsional-ekspressiv ma`no so‘zning qurilishida bo‘lishi ham bo‘lmasligi ham mumkin: *novcha, naynov*.

Stilistik belgi ham semantik strukturada albatta bo‘ladigan komponent emas: *ozod, hur, sarbast*.

So‘z va uning ma`nosi. So‘zlarning tildagi ma`nosi ularning nutqdagi ma`nosidan farq qilishi mumkin. So‘zlarning tildagi ma`nosi doimiy barqaror bo‘lsa, nutqdagi ma`nosi o‘zgaruvchan, barqaror mavzu bilan uzziy borlangan bo‘ladi.

Leksik ma`noni narsa va hodisalar munosabatiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Atash ma`nosi.
2. Ko‘rsatish ma`nosi .
3. To‘fri ma`no.
4. Ko‘chma ma`no (istiora-metafora, metonimiya, snekdoxa).

Ko‘rinadiki, so‘zlarni to‘fri (asosiy) va ko‘chma ma`noda ishlatish mumkin bo‘ladi. So‘zning asosiy (to‘fri) ma`nosi bevosita shu so‘zning atama vazifasi bilan bofqliq bo‘ladi: *tulki*. So‘zning o‘zi ifoda etayotgan predmet yoki tushuncha bilan bofqlanmay, shu narsaning biror belgisi yoki holati bilan boshqa narsaning shunday belgisini ifodali qilib ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan ma`nosi ko‘chma ma`no deyiladi: *u tulki, erkin xo‘roz*.

So‘z ma`nolari o‘rtasidagi munosabatlari. So‘zlar bir yoki birdan ortiq ma`noga ega bo‘lishi mumkin. Bir ma`nolilik hodisasi *monosemiya*, ko‘p ma`nolilik hodisasi esa *polisemiya* deb ataladi. Har ikkala hodisa ham so‘zning semantik qurilishiga xos hodisalardir.

Til hodisasi sifatida monosemiyaning emas, balki polesemianing o‘rganilishi ko‘proq nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Umumiste`moldagi so‘zlarning asosiy qismi ko‘p ma`nolidir.

Polisemiya deyarli barcha so‘z turkumlariga xos hodisadir: *til-yazik, til-dushman asiri, til-dehqonchilik tili – sir*.

Ko‘p ma`nolilik (polisemiya) ikki asosiy yo‘l bilan paydo bo‘ladi: 1) so‘zning yangi ma`no (ma`nolar) kasb etishi natijasida; 2) ko‘p ma`noli so‘zdagi yoki ko‘p ma`noli affikslar vositasida so‘z yasalishi natijasida: *er-zemlya, er-maydon, er-joy, er-(boshqa erda gaplashaman) o‘rin, vaqt, holat*.

Er so‘zi dastlab, xuddi boshqa so‘zlar kabi bir ma`noli bo‘lgan. Uning hozirgi tildagi ma`nolari esa shu so‘z semantik qurilishining taraqqiyoti natijasidir.

Polisemantik so‘z qancha ma`noga ega bo‘lmisin, bu ma`nolar o‘zaro boflangan bo‘ladi. Xuddi shu xususiyat ko‘p ma`noli so‘zni omonimlardan farqlaydi. Polisemantik so‘z ma`nolari orasidagi aloqa uzilsa (yo‘qolsa), *omonim* vujudga keladi: *gap*.

Til taraqqiyoti jarayonida, uning barcha sohalarida va hodisalarida bo‘lgani kabi, so‘zning semantik qurilishida ham o‘zgarish bo‘ladi: a) yangi ma`no paydo bo‘ladi; b) ma`no yo‘qoladi.

So‘z ma`nosining rivojlanishi sifat va miqdor o‘zgarishiga, hattoki tildan umuman tushib qolishiga olib keladi: *uchmoq-ko‘z, varrak-samalyot, osh-palov* kabi.

So‘zlar bir-biriga o‘xshashligi, yaqinligi va nutq situatsiyasida (kontekstda) ishlatilishiga ko‘ra ma`nolarini o‘zgartirishi mumkin. So‘zning ko‘chma ma`nolarda ishlatilishi barcha tillar uchun xosdir. So‘z ma`nosining ko‘chish usuli to‘rt xil bo‘ladi: *metafora, metonimiya, snekdoxa, funktsional ko‘chish (pero-əzoz pati-po‘lat qalam)*.

Til tarkibidagi leksik ma`nolar doimo o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ayrim so‘zlar anglatgan ma`nolariga ko‘ra bir-biriga yaqin, boshqalari esa bir-birini inkor etadi, qarama-qarshi ma`no anglatadi. Bu nuqtai nazardan sinonim va antonim so‘zlar farqlanadi. So‘zlar shakl nuqtai nazardan ham ma`lum munosabatda bo‘ladi.

SHundan kelib chiqib, til birliklarining quyidagi tiplari mavjud: a) *omonimlar*; b) *sinonimlar*; v) *antonimlar*. Bulardan tashqari *omofonlar, omograflar, paronimlar* singari so‘z tiplari ham mavjudki, ular bilan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili»ning «Leksikologiya» bo‘limida batafsil tanishiladi.

Omonimlar va ularning turlari. Talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma`nosi bir-biridan tubdan farq qiluvchi so‘zlar: *kuya, sir, chang, boz, tortmoq, yozmoq, chopmoq*.

Ularga grammatik shakllar - qo‘sishchalar qo‘shilganda ham omonimlik xususiyatlarini saqlab qolishi mumkin: *ot-ism, ot-hayvon, yozmoq-pisat’, yozmoq-raskrit, nakrit’* kabi.

Omonimlarni yuzaga keltiruvchi vositalar: a) har xil talaffuzli, fonetik qurilishi farqli bo‘lgan so‘zlarning bir xil talaffuz etiladigan bo‘lib qolishi: *ot, o‘t* (shevada ular omonim hisoblanmaydi). b) so‘zlarning semantik taraqqiyoti: *dam-nafas, hordiq, bosqon*. v) so‘zlarning talaffuz jihatdan tasodifan mos kelib qolishi: *bank /banka*.

Sinonimlar va ularning tiplari. Fonetik qurilishi (shakli) har xil, ma`nosi esa bir xil bo‘lgan so‘zlardir: *aylanmoq-kezmoq-sayr qilmoq, pedogok-muallim*.

Bir umumiyl (birlashtiruvchi) ma`nosi bilan o‘zaro boflanuvchi so‘zlar guruhi *sinonimik qator* deyiladi.

Ko‘p ma`noli so‘zlar har bir ma`nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorda bo‘lishi mumkin: *bitirmoq*.

- 1) bitirmoq-tugatmoq-tugallamoq, tamomlamoq;
- 2) bitirmoq-bajarmoq-ado etmoq-o‘rinlatmoq;

3) bitirmoq-tamomlamoq-tamom qilmoq-son qilmoq-sonlamoq-af qilmoq-yo‘qotmoq-yo‘q qilmoq.

Sinonimik qatordagi tashkil etuvchi so‘zlar qaysidir jihatlari bilan bir-biridan farqlangani uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashash imkoniyatiga ega.

Sinonimik qatordagi so‘zlar asosan quyidagi hodisalar nuqtai nazaridan o‘zaro farqlanadilar:

1. emotsiyal-ekspressiv nuqtai nazaridan: *xunuk-badbashara*
2. Uslubda farqlanadi: *odam-kishi-inson*

3. Sinonimik qatordagi so‘zlar hozirgi adabiy tilga munosabati nuqtai nazaridan o‘zaro farqlanishi mumkin: *o‘qituvchi-domla-afandi*.

4. Sinonimik qatordagi so‘zlar ma`noni qaydarajada ifodalashi jihatdan ham o‘zaro farqlanadi: *qiziq-salati-antiqa-ajayib-alomat*. Neytral: *qiziq*. Kuchli: *ajoyib, alomat, antiqa. YAxshi, durust, tuzuk (kuchsiz)*

Paydo bo‘lishi:

1. So‘z o‘zlashtirish orqali
2. YAngi ma`noli so‘zlar: *vazifa-topshiriq*

Antonimlar. Birdan ortiq so‘zning o‘zaro antonimik munosabati ma`nodagi zidlikka asoslanar ekan, ko‘p ma`noli so‘z har bir ma`nosi bilan ayrim-ayrim so‘zlarga antonim bo‘lishi mumkin: *qattiq-yumshaq; qattiq-saxiy*.

Bir so‘z o‘zaro sinonim so‘zlar bilan yoki o‘zaro sinonim so‘zlar boshqa sinonim so‘zlar bilan antonimik munosabat hosil qiladi.

Xafa-xursand-xushvaqt-xurram-xushnud. CHiroyli-go‘zal-xusndor-xusnli-xushro ‘y-ko‘xli-ko‘rkam-barno-suluv-zebo-latofatli-sohibjamol; xunuk-badbashara-badburush-badqavoq-tasqara-bedavo-ta‘vibeo ‘xshov-beso‘naqay-sovuq-badsurat.

Antonimlar bir turkumga oid so‘zlar bilan cheklanadi.

Omofon: *tub-tun, yod-yot, mard-mart*.

Omograf: *tol-daraxt; tol-qurilish materiali; tok-uzum. tok-elektr toki*.

Paronim: *fakt-pakt; afzal-abzal; amr-amir*.

Tabu va evfemizmlar. Tabu so‘zi polineziya tilidan (Tinch okeanida yashovchi ko‘chmanchi elatlar tili) olingan bo‘lib, shaxsiy va diniy odatlar jihatdan biror narsani *man etish* demakdir.

O‘tmishda biron kishi o‘lganda marhumning nomini aytish man etilgan. Tabu etnik tushuncha bo‘lib, qandaydir predmetning, harakatning nomini aytishni man qilishdir. Bunday odatning tilga tadbiq etilishi bilan *lingistik tabu* yuzaga kelgan. Mas., *ilon-qamchi dasta*.

Odam nutq faoliyatida nutqiy normalarga rioya qilishi lozim. Ahloqiy va madaniy jihatdan qo‘llanishi taqiqlangan yoki noqulay deb topilgan so‘zlar o‘rniga boshqa so‘z va iboralarning qo‘llanishi evfemizmlar (grekcha euphemco-«yaxshi», «mayin gapiraman» ma`nosida) deb ataladi. Mas., *o‘lmoq*.

Evfemizmlarning ma`lum qismi tabu bilan bo‘qliq bo‘ladi. evfemizmlarning ko‘pchilik qismi ahloqiy va madaniy jihatdan aytilishi noqulay deb topilgan so‘zlar o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z va iboralardir. Mas., *qizamiq-oymoma, chechakgul; sil-uzun o‘riq*.

Ba`zi olmoshlar ham evfemizm sifatida qo‘llaniladi: *u qilding, bu qilding ishni rasvo qilding*.

Tabu va evfemizmlardan adabiy va badiiy asarlarda muhim tasviriy vosita sifatida foydalaniladi.

7-ma`ruza: LEKSIKOGRAFIYA

Reja:

1. *Leksikografiya* tushunchasi
2. Lufatlarning turlari: qomusiy va filologik lufatlar.
3. Qomusiy lufatlar: umumiy va sohaviy lufatlar.
4. Filologik lufatlar: umumiy va maxsus lufatlar.
5. Bir tili, ikki tili va ko‘p tili lufatlar.

So‘zlarning biror maqsadda to‘planib, tartibga solingan yirindisi lufat deyiladi. Lufat tuzishning nazariy va amaliy tamoyillari haqidagi soha leksikografiya (grekcha lexicon - luft va grapho - yozaman) deyiladi. Luft tuzuvchi mutaxassislar leksikografiyar deyiladi. Luft tuzish

tamoyillari va metodikasini ishlab chiqish, leksikografiar ishini tashkil qilish, lufat tuzish uchun asos bo‘ladigan kartotekalar tuzish, ularni sistemalashtirish va saqlash leksikografiyaning vazifasidir.

Lufatlarning so‘zlar va iboralarning qo‘llanishini nazariy tadqiq etishda hamda tilga amaliy o‘rgatishda ahamiyati katta.

Turli turdag'i lufatlar tuzish umummadaniy ahamiyatga egadir. Lufat alfavit tartibida tuzilib, qulay qo‘llanma sifatida xalq ommasiga bilim beradi, madaniy-oqartuv funksiya bajara-di. SHuning uchun ham bu masalaga katta ahamiyat berilmoq-da. Maxsus nashriyotlar, leksikografik muassasalarning tashkil etilganligini shu bilan izohlash mumkin.

Lufat turlari, so‘zlik (lufatdan izohlanayotgan yoki tarji-ma qilinayotgan so‘z) tarkibi, lufaviy maqolalar strukturasi kabi masalalar leksikografik nazariyada asosiy masala hisoblanadi. Lufatlar, asosan, ikki turga bo‘linadi: qomusiy (ensiklopedik) va filologik. Qomusiy lufatlarda fan, texnika va madani-yatning barcha sohalariga oid tushunchalar izohlanadi. Ularda tabiat hodisalari, ijtimoiy hayotdagi voqealar, mashhur kishilar haqida ma`lumotlar beriladi.

So‘zning o‘zi haqida faqat uning kelib chiqishini ko‘rsatish bilan chegaralaniladi. SHuning uchun bunday lufatlar tushuncha lufat deb yuritiladi. Odatda, bunday lufatlarda rasmlar, karta va sxemalar ham keltiriladi.

Qomusiy lufatlarda so‘z va iboralar alfavit tartibida maqolaning sarlavhasi sifatida qo‘yiladi. Qomusiy lufatlar maqsad va vazifasiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: umumiyligi qomusiy (ensiklopedik) lufat va biror sohaning (qomusiy) lufati. Umumiyligi qomusiy lufatlarga "Britaniya lufati", "O‘zbekiston qomusi" misol bo‘ladi. Biror sohaning qomusiy lufatlariga "Adabiyot qomusi". "Pedagogik qomus". "Texnik qomus". "Qishloq xo‘jalik qomusi" kabilalar kiradi. Qomusiy lufat SHarqda "Qomus", Farbda esa "Tezaurus" deb ham yuritiladi.

Filologik lufatlarda asosiy eqtibor so‘zga yoki so‘z birik-masiga beriladi va ular har tomonlama izohlanadi. Bunday lufatlar ham alfavit tartibida tuziladi va izohlanadigan so‘z yoki so‘z birikmasi sarlavha sifatida keltiriladi.

Filologik lufatlar ikki xil bo‘ladi: umumiyligi va maxsus filologik lufatlar. Umumiyligi lufatlarda hamma qo‘llaydigan so‘zlarning izohi beriladi. Bular bir tilli, ikki tilli, ko‘p tilli bo‘ladi.

Qo‘yilgan maqsadga ko‘ra bir tilli filologik lufatlar bir qan-cha turlarga bo‘linadi. Masalan, izohli lufatlar, maxsus lingvistik lufatlar: etimologik lufat, morfem lufat, frazeologik lufat, sinonim so‘zlar lufati, orfoepik lufat, chappa lufat, atoqli otlar lufati, joy nomlari lufati, mashhur yozuvchilar asarlari lufati kabilalar.

Masalan, izohli lufatda so‘zlarning barcha leksik ma`nolari keng izohlanadi. Har bir so‘z izohli kichik maqola shaklida beriladi va izohlanayotgan so‘z sarlavha qilib ko‘rsatiladi. Bunga "O‘zbek tilining izohli lufati", 5 jildli, "Ingliz tilining Oksford izohli lufati", 17 jildli "Slovar" sovremennoyi russkogo literaturnogo yazyka", S.I.Ojegovning bir jildli "Slovar" russkogo yazyka" kabilalar misol bo‘ladi. Olim Usmonov va Renat Doniyorovlarning "Ruscha-internatsional so‘zlar izohli lufati" shular qatoriga kiritiladi.

Sinonim so‘zlar lufatida sinonimik qatorga kiruvchi har bir so‘zning ma`no ottenkalari, stilistik funksiyalari bayon qilinadi. Bunga A.Hoijevning "O‘zbek tili sinonimlarining izohli lufati" misol bo‘ladi. etimologik lufatlarda so‘zlarning kelib chiqishi, ularning dastlabki shakli va ma`nosи, til taraqqiyoti davomida ularda yuz bergen o‘zgarishlar izohlanadi.

M.Fasmerning "Etimologicheskiy slovar' russkogo yazyka", e.V. Sevortyanning "Etimologicheskiy slovar' tyurkskix yazykov", SH. Rahmatullaevning "O‘zbek tilining etimologik lufati" ana shunday lufatlardir.

Morfemik lufat so‘zlarning qanday morfemalardan tuzil-ganini alfavit tartibida izohlovchi lufatdir. Jumladan, *mukofotlanmoq* so‘zi mukofot (ian) moq morfemalaridan tuzilgan. (Qarang: A.Fulomov, A.N.Tixonov, R.Qo‘nfurov. O‘zbek tili morfem lufati. Toshkent, "O‘qituvchi", 1977). Frazeologik lufatda tildagi frazeologik birliklarning (iboralarning) semantik va grammatic xususiyatlari misollar yordamida izohlanadi. Unda frazeologik omonimlar, sinonimlar va antonimlarni yonma-yon keltirish bir frazeologik iboraning turli variantlarini berish juda foydalidir. Misol: *Ko‘ngli qattiq-qattiq ko‘ngil. Rahm-shafqati yo‘q.* Varianti: *toshko‘ngil; toshko‘ngilli; tosh-*

ko 'ngil (ekan)ligi. Sinonimi: *tosh yurak-yuragi tosh*. Antonimi: *ko 'ngl (i) bo 'sh; ko 'ngl(i) yumshoq-yumshoq ko 'ngil*. *O'xshashi: baeritosh; mehritosh...* [Rahmatullaev SH. O'zbek tilining izohli frazeologik lufati. Toshkent. "O'qituvchi", 1978, 21-bet].

So'zlarning qanday harf bilan tugaganiga qarab alfavit tar-tibida tuzilgan lufat chappa lufat deyiladi. Masalan, *a* harfi bilan tugagan so'zlar quyidagicha beriladi: *arfa, bola, dona, so 'na, pona, to 'nka, shona* kabi. Bunday lufat so'z yasalishi, morfologiya va leksikologiya bo'yicha olib boriladigan turli ilmiy-tadqiqotlar uchun manba boiishi mumkin.

Bulardan tashqari, chappa lufatlari tilning fonetik qonuniyatlarini, sheqriyat sirlari (qofiya bo'yicha)ni o'rghanishda yordam beradi. (R.Qo'nurov va A.Tixonovlarning "Obratnfy slovar" uzbekskogo yazrka" kitobi).

Izohli lufatlari tuzilishiga ko'ra ikki xil: alfavit tartibidagi lufatlari va uya tartibidagi lufatlari.

Birinchi turdagisi lufatlarda so'zlar alfavit tartibida berilib izohlanadi. YUqorida ko'rsatilgan izohli lufatlari mana shu tartibda tuzilgan.

Ikkinchi turdagisi lufatlarda faqat o'zaklarga alfavit tartibida joylashtiriladi. YAsama so'zlar esa o'zak maqolachasining ichida (uyasida) izohlanadi. Bunday lufatlari bir uyada keltiril-gan so'zlarning ma`no va shakl jihatdan boglanishlari haqida ma'lumot beradi. Ikki til doirasidagi tarjima lufatlari bir tildagi so'z yoki so'z birkiasi boshqa tilga tarjima qilib beriladi. Bunga ruscha-o'zbekcha, inglizcha-o'zbekcha, fransuzcha-o'zbekcha, nemischa-o'zbekcha lufatlari kiradi. CHet tilini o'rghanuvchilar uchun moijallangan qisqa tarjima lufatlari ham mavjud. Ba`zan tarjima lufatlari bir necha tillar doirasida bo'ladi. Masalan, "Slovar" naibolee upotrebitel'nx slov angliyskogo, nemetskogo, frantsuzskogo i russkogo yazikov" kabi.

Filologik lufatlarga turli sohalarga oid lufatlari ham kiradi. Bularda fan, texnika, ishlab chiqarishning ma'lum sohasiga oid so'z-terminlar izohlanadi. Soha lufatlari ichida eng keng tarqalGANI terminologik lufatlardir. Bunday lufatlari bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli bo'ladi. Bir tilli terminologik lufatlarda bir tilning ma'lum sohaga oid terminlari izohlanadi. Bunga O.S.Axmanovning "Slovar" lingvisticheskix terminov" (1966) va D.E.Rozental, M.A.Telenkovlarning "Spravochnik lingvisticheskix terminov" (1972) nomli kitoblari, H.Hasanovning "Geografiya terminlari lufati" (1964). H.Homidiy, SH.Abdullaeva, S.Ibrohimovalarning "Adabiyotshunoslik terminlari lufati" (1967), Olim Usmon tahriri ostida nashr qilin-gan "Ijtimoiy-siyosiy terminlar lufati" (1976) kabilarni kiritish mumkin.

Ikki tilli terminologik lufatlarga N.T. Hotamovning "Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lufat"i (1969). SH. Bayburov va N. Takanaevning "Pedagogikadan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lufat"i (1963) kabilarni kiritish mumkin.

CHet so'zlar lufati ham terminologik lufatlarga o'xshab ketadi. Bunda ham, asosan, chet tillardan o'zlashgan so'zlar izohlanadi.

Lufatlarning turi yuqoridagilari bilan cheklanmaydi. Tematik, differensial, yangi so'zlar, qisqartma so'zlar, chastota, qofiya lufatlari ham mavjud. Masalan, tematik lufatlarda so'zlar ma'nolariga ko'ra gurahlanadi. Bunday lufatlari biror fikrni ifodalash uchun eng qulay so'zlarni topish imkoniyatini beradi. Bunga ingliz tili asosida tuzilgan Roje (Roget) lufati, Muhammad YOqub CHingi tomonidan tuzilgan "Kelurnoma" nomli (XVIII asr) lufatning oxirgi XV bobi misol bo'ladi.

Xalqning oqsib borayotgan talablarini qondirish maqsadida lufatning yangi-yangi turlari yaratilishi tabiiydir.

Hozirgi tilshunoslikda tezauras lufat (grekcha thesayros - manba) yoki ideografik lufat tuzish masalasi ustida ish olib borilmoqda. Tezauras lufat ma'lum so'z bilan ma'nolari boflanuvchi barcha so'zlarni qamrab oladi.

Lufat - so'z xazinasi, undan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish inson bilimini kengaytirish, lufat boyligini oshirishda hamda fikrni to'pri va ravon ifodalashda muhim omildir.

R e j a:

- 1.Grammatika va uning tarkibiy qismlari.
- 2.Grammatik ma`no va grammatic shakl.
- 3.Grammatik kategoriylar va ularning ifodalanish usullari.
- 4.Sintetik va analitik tillar.

Tayanch iboralar: *tilning grammatik qurilishi, nutqning grammatik strukturasi, morfologiya, sintaksis, kategorial va nokategorial shakllar, so‘z birikmasi, gap, tarixiy grammatika, falsafiy grammatika, umumiy grammatika, qiyosiy grammatika, tasviriy grammatika, transformatsion grammatika, logik va grammatic kategoriylar, struktural tilshunoslik, til sistemasini (tizimini) tadqiq qilish metodlari, distributiv analiz (tahlil) metodi, til elementlari, distributsiya, kontrast distributsiya, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi, transformatsion analiz metodi, yadro gaplar, sintaktik metonimiya, leksik ma`no, grammatic ma`no, kelishik qo‘sishimchalari, fe`l zamonlari, sifat darajalari, affiksatsiya, egalik affikslari, kelishik shakllari, intonatsiya (ohang), melodika, urzu, takror, reduplikatsiya, ichki flektsiya, suppletivizm.*

1.Grammatika va uning tarkibiy qismlari. Grammatika tilshunoslikning tarkibiy qismi bo‘lib, tilshunoslikning boshqa sohalari bilan aloqasi ko‘p qirrali va murakkabdir.

O‘tmishda grammaticka to‘fri yozish va gapirishga yordam beruvchi qonun va qoidalarni o‘rgatadi deb tushunilgan. Bugungi kunda grammaticka termini tilshunoslikda ikki ma`noda qo‘llaniladi. Grammatika deyilganda, birinchidan, *tilning grammatik qurilishi*, ikkinchidan, *tilning grammatic qurilishi haqidagi fan* tushuniladi. Ikkinci ma`noda grammaticka so‘zlarning ma`lum turkumlarga bo‘linishi, ularning har biriga xos formalar, nutqning grammatic qurilishi haqidagi fandir.

Ma`lumki, til kishilik jamiyatida fikr almashish quroli sifatida xizmat qiladi. Kishilarga fikr almashish imkoniyatini yaratib berish uchun har bir til ma`lum miqdordagi grammatic vositalarga ega bo‘lishi kerak. Lekin gapning hosil bo‘lishi uchun so‘zlarning o‘zi kifoya qilmaydi. Gapda so‘zlar har bir tilning grammatic va fonetik qoidalari asosida birlashib, ma`lum bir fikrni ifodalaydi.

Tilning grammatic qurilishi o‘z kategoriylari va birliklariga ega. Bular so‘z formalari, so‘z birikmlari va gaplardir.

Grammatika ikki qismdan iborat: *morfologiya* va *sintaksis*. *Morfologiyada* so‘z turkumlari, uning kategorial va nokategorial shakllari o‘rganiladi. *Sintaksis* nutqning grammatic qurilishi haqidagi ta‘lim bo‘lib, so‘z birikmasi, gap va undan yirik bo‘lgan birliklarni o‘z ichiga oladi.

Grammatikaning quyidagi turlari mavjud:

- tarixiy grammatic
- falsafiy grammatic
- umumiy (universal) grammaticika
- qiyosiy grammaticika
- tasviriy grammaticika (deskriptiv)
- transformatsion grammaticika.

Tarixiy grammatic biror bir tilning grammatic qurilishida ro‘y bergan o‘zgarishlar taraqqiyotini o‘rganadi.

Falsafiy grammatic ning asosiy vazifasi til va tafakkur, logik va grammatic kategoriylarning aloqa imkoniyatlarini o‘rganadi.

Umumiy grammatic qaysi til oilasiga mansub ekanligidan qat‘iy nazar, hamma tillarga xos bo‘lgan umumiy xususiyat va qonuniyatlarni belgilaydi.

Qiyosiy grammatic tillarning grammatic tizimini bir-biri bilan taqqoslab, qiyoslab, ularga xos umumiy va xususiy belgilarni o‘rganadi.

Qiyosiy grammatika o‘z navbatida *qiyosiy–tarixiy* va *tipologik–qiyosiy grammatikalarga* bo‘linadi. Rasmus Rask (1787-1832) «Qadimgi island tili va island tilining paydo bo‘lishi». YA.Grimm «Nemis tili grammatikasi»(1819).

Tasviri (deskriptiv) *grammatika* biror konkret til grammatik qurilishining hozirgi (sinxron) holatini o‘rganadi. Deskriptiv grammatikada til birliklari va ularning mohiyatini aniqlashda formal metodlardan foydalilanadi. Deskriptiv grammatikada tilning qurilishini tahlil qilish jarayonida ma`no e`tiborga olinmaydi.

Struktural tilshunoslik tilning ichki qurilishi, til sistemasini tashkil etgan elementlarning orasidagi munosabatlar, oppozitsiyalarni o‘rganishga katta e`tibor beradi. Struktural tilshunoslik tilni o‘rganishda va fanning predmetini belgilashda o‘ziga xos yangi oqimdir.

Til tizimini tadqiq qilishning ikki metodi mavjud: *destrubutiv analiz metodi* va *transformatsion analiz metodi*.

Birinchi metod. L.Bluemfeld. »Til», Z.Xarris. »Struktural tilshunoslikning metodlari» (1951). Bu metod tilshunoslikda keng qo‘llanilmoqda. U til birliklarining (fonema, morfema, so‘zlar) distributsiyasi (qo‘llanish o‘rni, joylashishi) turlicha bo‘ladi, degan nazariyaga asoslanib, til tizimini tashkil etgan elementlarning o‘zaro birikishi qonun-qoidalarini o‘rganadi. U birmuncha ob`ektiv metoddir.

Distributiv metod yordamida til birliklari aniqlanadi va bu metod fonema, uning variantlari, morfemalarni, allamorflarni aniqlashga yordam beradi. Ammo sintaksisga xos bo‘lgan masalalarni o‘rganishda bu metodning imkoniyatlari cheklangan.

SHuning uchun tilda bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi paydo bo‘ldi. Bunda gap bevosita ikki qismga ajratib tekshiriladi. Mas., ot qism va fe`l qism. Bu metod distributiv tahlilni o‘z ichiga olgan holda sintaktik birliklarni analiz qilishda qo‘llaniladigan formal metoddir.

Bu metodning qiyinchiliklari:

1. Morfologiya bilan sintaksis aralashtirib yuboriladi, so‘z birikmalari va gap bir-biridan farqlanmaydi.

2. Bir xil strukturaga ega bo‘lgan, ammo mazmun jihatdan har xil bo‘lgan so‘z birikmalari bu metod bo‘yicha bir xil analiz qilinadi. Mas., *To‘yga ko‘p keksa erkaklar va ayollar kelishdi* jumlasini analiz qilganda, *keksa* so‘zining qaysi so‘zga tegishli ekanligini aniqlash qiyin (erkaklargami yoki ayollarga).

3. Bu metod til sintaktik yarusining elemantar birligini va sodda sintaktik birliklarning tashkil topishi va tarixni ko‘rsatib berolmaydi.

Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodining yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etish ehtiyoji transformatsion analiz metodlarining yaratilishida asosiy omil bo‘ldi.

Transformatsion grammatika hozirgi tilshunoslikda, xususan, sintaktik va stilistik izlanishlarda eng ko‘p qo‘llanilayotgan metod yordamida ish ko‘radi.

Ma`lumki, distributiv metod yordamida til yaruslarining birliklari: fonema, morfema, ularning qo‘llanilish o‘rinlari aniqlansa, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodida esa bu gapning ichidagi sintaktik munosabatlar o‘rganiladi.

Transformatsion metodning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

Har bir tilda son-sanoqsiz gaplar mavjud va bu yangi gaplar tinglovchi tomonidan to‘fri tushiniladi. Tabiiy quyidagi savol turiladi: Qanday qilib nutq eshituvchi shu paytgacha eshitmagan yangi gaplarni tushunadi? Buning asosiy sababi shundan iboratki, nutqda mavjud bo‘ladigan cheklanmagan miqdordagi gaplar, ma`lum miqdordagi elementlar sintaktik modellar asosida paydo bo‘ladi. Lekin bu sintaktik modellar (yadro gaplar) ning soni chegarali va amalda faqat bir necha bo‘lishi mumkin. Mas., ot qism - fe`l qism.

Gapning elementar, sodda modellari transformatsion grammatikada *yadro gaplar* deb ataladi. Bu model asosida tuzilgan gaplar o‘sha yadro gapning *transformasi* hisoblanadi.

Transformatsion analizning asosiy maqsadi tilda mavjud bo‘lgan son-sanoqsiz gaplarning ma`lum sondagi sintaktik modellari-yadro gaplardan tuzilganini o‘rganadi.

Transformatsion metodning asosida til tizimi sintaktik yarusning o‘zi bir necha kichik sistemalardan tashkil topadi, degan roya yotadi. Bulardan biri asosiy yadro gap bo‘lib, ikkinchisi

esa yadro gaplardan hosil bo‘lgan transformalardir. Transformalarning yadro gaplardan hosil bo‘lishini o‘rganish jarayoni *transformatsion analiz* deyiladi.

2.Grammatik ma`no va grammatik shakl. Leksik ma`no individual ma`no hisoblanadi, bir ma`no bir so‘z bilan boflangan bo‘ladi. Grammatik ma`no leksik ma`nodan tubdan farq qiladi. U leksik ma`noga o‘xshab tashqi dunyodagi narsa va vogelarni aks ettirmaydi va individual xususiyatga ham ega bo‘lmaydi. Ular umumiy ma`nolardir.

Leksik va grammatik ma`nolar o‘z xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farq qilsa ham nutqda bir-biri bilan uzviy boflangan. Biri ikkinchisiz voqe bo‘lmaydi. Grammatik ma`no leksik ma`noga qo‘sishimcha ravishda namoyon bo‘ladi va turli grammatik munosabatlarni ifodalaydi: Bir so‘zning ikkinchi so‘zga munosabatini, so‘zning shaxsga, songa, zamonga va h. ga bo‘lgan aloqasini ko‘rsatadi. Masalan: *uy, nok, kitob, tulki, neytron, bo‘zin*. Ularda olti leksik ma`no, ammo bir grammatik ma`nosi bor. Predmetlik, birlikda, bosh kelishikda.

Odatda leksik ma`no konkret, real; grammatik ma`no umumiy bo‘ladi.

Grammatik ma`no ifoda hosil qiluvchi vositalar quyidagilar:

Affiksatsiya. Ba`zi olimlarning fikricha, tillarda eng ko‘p tarqalgan vositalardir. Ikki turga ajraladi: forma yasovchi affiksal grammatik morfemalar, so‘z o‘zgartiruvchi affiksal grammatik morfemalar. Bu hamma tillarda bir xil emas.

Intonatsiya. U o‘z ichiga melodika bilan urfu oladi. Bu vositalar ham tilda grammatik ma`no ifodalash uchun xizmat qiladi.

Melodika. Melodika deganda, ton balandligining o‘zgarishi tushuniladi. U asosan xitoy-tibet tillarida katta ahamiyatga egadir. Bu tillar uchun affiksatsiya, umuman olganda, yot narsadir. Xitoy-tibet tillar oilasiga kiruvchi xitoy tilida to‘rtta ton mavjud bo‘lib, so‘zning ana shu tonlardan qaysi biri yordamida talaffuz qilinishiga qarab so‘zning ma`nosi o‘zgaradi. Mas., *ma-on*, *kanop*, *chumoli*, *so‘kinmoq*.

Ureuz. O‘zbek va ingliz tillarida urfu so‘zlarning leksik ma`nolarini ajratishda ishlataladi: *yangi* (sifat), *yangi* (ravish).

Takror. Takror biror grammatik ma`noni ifodalash uchun bir so‘zni ikki marta takrorlash bo‘lib, u lingvistikada *reduplikatsiya* (lat-ikkilanish) deb yuritiladi. Mas., malay tilida - *orang-odam*, *orang-orang-odamlar*, xitoy tilida *sin-yulduz*, *sin-sin-yulduzlar*. O‘zbek tilida *sariq-sapsariq*, *ko‘k-ko‘m-ko‘k*.

Ichki flektsiya. U turli grammatik ma`nolarni ifodalash uchun so‘z tarkibidagi tovushlarning o‘zgarishidir. Mas., *arabcha-kitob-kutub*, *kataba-kutuba*.

Suppletivizm. Suppletivizm deganda, bir so‘zning turli grammatik formalarining har xil so‘z o‘zaklaridan yasalishi tushuniladi: *ya-menya*, *mi-nas*.

YOrdamchi so‘zlar. YOrdamchi so‘zlar yoki funktsional so‘zlar ham grammatik ma`no ifoda qilish uchun qo‘llaniladi. Bunday so‘zlar boshqa so‘zlarning tarkibiy qismi emasligi bilan affikslardan farq qiladi.

Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan tillarda yordamchi so‘zlar turli-tumandir. Ularga ko‘makchi, boflovchi, artikl’, predlog, yordamchi va boflovchi fe’llar, yuklamalar kiradi. Bu so‘zlar grammatik kategoriylar ifodalashda qatnashishi yoki qatnashmasligi nuqtai nazaridan ikki qismga bo‘linadi:

- so‘zlarning analitik formasini yashashda ishtirok etuvchi yordamchi so‘zlar;
- bu funksiyani bajarmaydigan yordamchi so‘zlar.

YOrdamchi so‘zlarning birinchi gruppasiga artikllar, yordamchi fe’llar, ba`zi yordamchi so‘zlar kiradi.

YOrdamchi so‘zlarning ikkinchi gruppasiga boflovchi, ko‘makchi, predgog va ba`zi yuklamalar kiradi.

O‘zbek tilida sof ko‘makchi fe’llar yo‘q. Ayrim mustaqil fe’llar, masalan, *bo‘l*, *ol*, *qo‘y*, *bor*, *kel* kabilar ko‘makchi fe‘l vazifasida kelib turli-tuman ma`nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *bo‘l* ko‘makchi fe‘li tugallik, to‘la bajarilish ma`nosini ifodalaydi. *Zulfiya topshiriqlarni bajarib bo‘ldi*.

Grammatik ma`no anglatishning yana bir vositasi *so‘z tartibi* dir. So‘z tartibi xitoy-tibet tillari oilasiga kiruvchi tillarda va qurilishi shu tillarga o‘xhash bo‘lgan boshqa tillarda juda muhimdir.

-*Masxaraboz masxarabozni masxaraboz deb atadi.*

So‘z gapda uch xil vazifani bajarmoqda: ega, vositasiz to‘ldiruvchi, vositali to‘ldiruvchi.

Sintaktik va analitik vositalar. Grammatik ma`nolarni ifodalovchi til vositalari turlitumandir. Tilshunoslikda bu vositalar ikki katta gruppaga ajratilgan: *sintetik vositalar, analitik vositalar.*

Sintetik vositalarga affiksatsiya (prefeks, suffekslar), ichki flektsiyaning hamma turlari (arab tiliga xos xususiyatlar), hind-evropa tillari so‘z o‘zagidagi unlining o‘zgarishi, suppletiv formalar kiradi.

Analitik vositalar grammatik ma`no anglatuvchi yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi orqali grammatik ma`no anglatish, takror, intonatsiyalardan iborat.

Sintetik va analitik vositalar dunyo tillarida bir xil emas.

Sintetik tillarga turkiy tillar, fin-ugor tillari (venger, eston, fin, ugor), yapon va koreys tillari kiradi.

Analitik tillarga xitoy-tibet tillari, hand-evropa tillari (ingliz, frantsuz) tillari ham kiradi.

Agglyutinativ tillarda bir grammatik affiks bitta grammatik ma`no anglatadi. Flektiv tillarda ko‘proq. Mas., rus: *knigu*-rod, son ma`nolari.

O‘zbek tilining *-lar* ko‘plik qo‘shimchasi rus tilida bir necha ko‘plik affiksiga to‘fri keladi: *i, a, ya, i.*

3.Grammatik kategoriylar va ularning ifodalanish usullari. Har bir tilning o‘ziga xos grammatik ma`nolari ,uni ifoda qiluvchi vositalari mavjud. *Grammatik kategoriya* - umumlashgan grammatik ma`no bo‘lib, u tilning qaysi morfologik tipga kirishini ko‘rsatadi va o‘z ifodasini so‘zlarning o‘zgarishida, gapda so‘zlarning boflanishida topadi. Zidlik mas., *birlik va ko‘plik*. SHundan son kategoriysi kelib chiqadi.

Grammatik kategoriylar grammatik ma`no va grammatik formalar birikmasidan tarkib topadi.

Grammatik kategoriylar ifodalanish usuliga ko‘ra uch turga bo‘linadi:

- sintetik grammatik kategoriylar;
- analitik grammatik kategoriylar;
- aralash grammatik kategoriya yoki sintetik-analitik grammatik kategoriylar.

Sintetik grammatik kategoriylar: o‘zbek tilida: son, kelishik, egalik, shaxs-son.

Analitik grammatik kategoriylar: rus tili: egalik, o‘zbek tilida -i, rus tilida tvoya, moya, ego, nasha, vasha, ix.

Jins kategoriysi

Son kategoriysi

Kelishik kategoriysi

Zamon kategoriysi

Demak, har bir tilning o‘ziga xos grammatik ma`no turlari va ularni ifoda qilish usullari, vositalari bor. Bular har bir tilning o‘ziga xos grammatik qurilishiga ega ekanini ko‘rsatuvchi faktorlardir.

4.Sintetik va analitik tillar. Tilda ma`no va munosabat ifodalangan bo‘lib, so‘zning qismlari o‘zak bilan mahkam boflangandir. So‘zlarni qismlarga bo‘lish mumkin. Bunday so‘z qurilishiga ega bo‘lgan tillar agglyutinativ tillardir. Agglyutinativ tillar, A. SHleyxer fikricha, o‘simlikka o‘xshaydi. Bunday tillarni ikki guruhga ajratadi: sintetik tillar va analitik tillar. Sintetik tillarga turkiy tillar, mo‘ful tillari, fin-ugor tillari, dravid tillarini kiritadi. Analitik tillarga tibet tilini kiritadi.

9-ma`ruza: TILNING MORFOLOGIK TUZILISHI

R e j a:

- 1.So‘zning morfologik strukturasi.
- 2.Morfemika.
- 3.So‘z turkumlarining tasnifi va ular to‘frisidagi nazariyalar

Tayanch iboralar: morfologiya, so‘z turkumlari, mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar, ko‘makchilar, bo‘slovchi, artikl’, predlog, yuklamalar, so‘zlarning analitik shakli, grammatik kategoriyalar, sintetik vositalar, analitik vositalar, agglyutinatiya, xususiy ma’nolar, birlik va ko‘plik, sintetik grammatik kategoriyalar, analitik grammatik kategoriyalar, aralash grammatik kategoriyalar, kelishik kategoriyasi, egalik kategoriyasi, grammatik jins (rod) kategoriyasi, feminin turlar, maksulin turlar, neytral turlar, sintaktik vazifa, kelishik kategoriyasi, fe'l kategoriyalari, so‘z turkumlari, so‘z turkumlarining kategorial belgilari, strukturalistlar, so‘zlar distributsiyasi, so‘z tartibi, so‘zlarning gapdagisi o‘rni, so‘z turkumlarining semantik, morfologik, sintaktik va so‘z yasalish belgilari, so‘zlarning analitik shakli, nominativ va ob`ektiv kelishik, so‘z nomlar.

1. So‘zning morfologik strukturasi.

Morfologiya grammatikaning bir qismi bo‘lib, so‘z turkumlari nazariyasi haqidagi ta`limdir. So‘zlarini so‘z turkumlariga ajratish nazariyasining printsiplari quyidagilar:

1. So‘z turkumlarining kategorial belgilari
2. So‘zlarini turkumlarga ajratish printsiplari
3. Turli tillarda so‘z turkumlari

Turkumlarga va guruhlarga ajratish doimo qiyoslash orqali amalga oshiriladi.

Tilda son-sanoqsiz so‘zlar bor. Ularni shu holcha o‘rganib bo‘lmaydi. Tilshunoslik fanining rivojlanib borishi bilan so‘zlarini turkumlarga ajratish ham mukammallashib borgan.

Narsa, predmet va hodisalarini turkumlarga ajratish uchun ma‘lum o‘lchovlar, shartlar, mezonlarga asoslanish kerak.

Bu muammoni echish tarixini hozirgi vaqtga kelib shartli ravishda uch asosiy etapga ajratish mumkin:

1. Strukturalizmgacha bo‘lgan davr
2. Strukturalizm davri
3. Strukturalizmdan keyingi, ya`ni hozirgi davr.

Birinchisi uch belgiga asoslanagan:

- so‘zlarning leksik ma`nosi
- so‘zlarning morfologik belgilari, ya`ni so‘zning grammatik shakli
- so‘zlarning gapdagisi sintaktik vazifasi.

Strukturalistlar esa so‘zlarini distributsiyasini asosga oldilar. So‘zning distributsiyasi deganda so‘zning chap va o‘ng tomondan aloqaga kirishi mumkin bo‘lgan hamma imkoniyatlari nazarda tutiladi.

Amerika strukturalistlari ana shu qarashni-so‘zlar distributsiyasini tavsiya qildilar. Mas., CHarlz Frizning fikricha, ingliz tilida so‘zning ma`nosini bilmasdan, bu so‘zni gapda tutgan o‘rniga qarab, qaysi so‘z turkumiga kirishini aniq aytish mumkin. Bunda u ingliz tilidagi gaplarda so‘z tartibining qat`iy ekanligiga asoslanadi.

SHu tarzda u to‘rt mustaqil so‘z turkumini va o‘n beshta yordamchi so‘z turkumini aniqlaydi. Mana shu asosda CHarlz Friz ingliz tilida so‘z turkumi so‘zlarning gapda tutgan o‘rniga bo‘qliq, degan xulosaga keladi.

Bu tavsiyaning ma‘lum qiyinchiliklari mavjud:

- 1.U hamma tillar uchun universal bo‘la olmaydi.
- 2.Mazmun inkor etiladi. Binobarin forma va mazmun dialektikasi buziladi.

So‘z turkumlarining kategorial belgilari quyidagilar:

- 1.So‘z turkumlarining semantik belgisi.
- 2.So‘z turkumlarining morfologik belgisi.
- 3.So‘z turkumlarining sintaktik belgisi.
- 4.So‘z yasalish belgisi.

So‘z turkumlarining semantik belgisi deganda, so‘zlarning konkret ma`nolari emas, balki uning umumlashgan ma`nosi nazarda tutiladi. Mas., *uy*, *mars*, *yalpiz*, *do'stlik*, *quyosh*. Ularning har biri garchi konkret ma`nolarni anglatса-da, bu printsipda umumiylar ma`no, ularning predmetlik ma`nosi nazarda tutiladi. *CHekmoq*, *o'qimoq*, *yozmoq*, *turmoq* so‘zlarining konkret ma`nolari har xil. Hammasiga xos bo‘lgan umumiylar ma`no ish-harakatdir.

So‘z turkumlarining morfologik belgisi yoki morfologik xususiyati deganda, u yoki bu so‘zga xos bo‘lgan grammatik kategoriylar, mazkur so‘zlarga xos forma yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi affiksalar tushuniladi (forma yasovchi-so‘z formalarini hosil qiluvchilar -lar, fe'l-yap; so‘z o‘zgartiruvchi-forma yasovchilarning sintaktik munosabat ifodalaydigan turi tushiniladi: s., kelishik affikslari, shaxs-son affikslari. Mas., *qizil*, *katta*, *ishlamoq*, *etmoq*, *uy*, *daraxt* so‘zlarini olamiz va ularga quyidagi qo‘sishmchalarni qo‘shib ko‘ramiz:

- *roq*
- *di*, *-i(b)*
- *gan*

Hamma so‘z turkumlari gapda birday vazifa va miqdorda ishlatilmaydi. Otlar gapda barcha gap bo‘lagi vazifasida kelishi mumkin. Sifatlarning sintaktik vazifasi chegaralangan.

So‘zlarning gapda boshqa so‘zlar bilan birika olish imkoniyati ham sintaktik belgi hisoblanadi. Bunda semantik belgi asosiy rol o‘ynaydi. Mas., *predmet*, *narsa-belgi-sifat--harakat-fe'l* singari. Ana shularga qarab so‘zlar turkumlarga ajratiladi.

Har bir so‘z turkumining o‘ziga xos yasovchilari bor.

So‘z turkumlarining yuqorida qayd etilgan kategorial belgilari so‘z turkumlari nazariyasining birinchi printsiplarini tashkil qildi. Misollar: rus tilida semantik belgi bilan bir qatorda morfologik belgi ham etakchidir. Xitoy tillari oilasiga kiruvchi tillarda, masalan, xitoy, vietnam tillarida affikslar yo‘q. O‘zbek tilida morfologik va semantik belgilardan keyin sintaktik belgilar hisobga olinadi.

2. Morfemika. So‘z yasalishining grammatica bilan bo‘qliqligi (morfologiyada: ayniqsa, affiksatsiya yo‘li bilan yasalish; kategorial ko‘chish; sintaksisda: qo‘shma so‘z bilan so‘z birikmasi orasidagi munosabat va b.) uning tabiatidagi etakchi xususiyatlaridandir. Uzak va affikslarning analizi morfologiyada ham, so‘z yasalishida ham uchraydi, lekin bu ikki sohaning analizi-hodisaga qanday nuqtai nazardan yondashishi—har xil, shunday bo‘lsa ham, bari bir, har ikki soha uchun umumiylar bo‘lgan hodisalar ham bor. SHunga ko‘ra, keyingi vaqtarda bularni yoritishning yangi sxemalari paydo bo‘ldi: dastlab morfemalariing har ikki sohaga aloqador bo‘lgan tomonlari ayrim beriladi, bu ayrim qism *morfemika* deb ataladi, keyin so‘z yasalishi, undan keyin morfologiya bayon qilinadi. Bu yangi tartib ilmiy jihatdan puxta asoslangan bo‘lib, praktik tomonidan ham afzalliklarga ega.

Morfemika so‘zning eng kichik ma`noli qismlari haqidagi ta`-limotdir. By kichik kismlar morfemalardir. Bu morfemalar turli ko‘rinishlarga ham ega bo‘ladi. Masalan, *ishla* so‘zadagi *-la* elementi *hayda* so‘zida *-da* formasida kelgan (lekin *hay-hayla* fe'lida yana *-la* tusida qo‘llangan), hozir ajralmaydigan *unda* so‘zida ham aslda shu *-da* affaksi bor (*un*—*ovozi*). Bu *-la* va *-da* ko‘rinishlari umumiylar tarzda morfema deyiladi. Buning har bir ko‘rinishi esa morf sanaladi. Demak, morfema morflarning yifindisidir. Bu turli ko‘rinishdagi qismlar, morflar, bir-biriga nisbatan allomorf sanaladi. Bu hol o‘zak morfemalarda ham uchraydi: *tash-qi* so‘zidagi *tash* elementi *tish* tusida ham uchraydi (*chiq* so‘zining kelib chiqishini eslang: *tishiq* — *chiq*). Yana: *yuvmoq* — *yumoq* (u ko‘ylakni yuvgan-yugan), *to'zei-to'zi* (-*ei* va -*i*), *qo'za* va *to'zei* (-*ea* va *ei*), *to'zidi* — *to'zeidi* — *to'zeoq* (*to'zi* va *to'z*, *qo'zi* va *qo'z*, *qazi* va *qaz*: *qazigan*—*qazgan*), *-gancha* va *-guncha* (Bu formalar keyinroq differentsiatsiyaga uchragan), *kuchuk uvredi* — *Bo'ri ulidi* (*uv* va *u*, *-la* va *-li*).

Anglashiladiki, morfema deganimizda (o'zak morfema ham, affiksal morfema ham), yuqoridagi kabi yaqin — o'xhash morflarning yifindisini ko'zda tutamiz, shu har xil ko'rinishlarning umumiyligi atalishini anglaymiz (lekin ma'lum morfologik modelga ko'ra regulyar takrorlanadigan variantlar morf sanalmaydi). Morfema sostaviga ko'ra, ko'pincha, umumlashtirib aytganda, fonemalar kompleksidan, ba'zan bir fonemadan iborat bo'ladi (har bir konkret ko'rinishga nisbatan aytganimizda morf fonemadan iborat bo'ladi), bir qancha so'zlarda takrorlanadi, (bir xil ma'noda), muntazamlik xarakteriga ega bo'ladi. Morflarning bir morfema sanalishi (-la va -da affikslarini eslang) ularning ma'no jihatidangina emas, balki formal tomonidan (material-tovush tomonidan) ham yaqin-o'xhash bo'lishiga asoslanadi. Masalan, *islamok* va *iskamoq* fe'llaridagi -la va -ka yasovchi affikslarining semantik funktsiyasi bir xil, lekin bular orasida material yaqinlik-o'xhashlik yo'q, demak, bular sinonim affikslardir.

Morfemalar funktsiyasiga ko'ra so'z yasalishiga ham, so'z o'zgarishiga ham aloqador. Affikslarning so'z yasovchi affikslar (derivatsion affikslar. Bunday so'z yasash derivatologiya deyiladi) va so'z o'zgartuvchilar (relyatsion affikslar) tusidagi klassifikatsiyasi shu holatga asoslanadi. Bu hodisa so'z yasalishi (affiks) bilan paradigmata orasida formal o'xhashlik borligini ko'rsatadi. Masalan, *temir + chi* (affiks orqali so'z yasash)—*temir+ni* (affiks orqali forma yasash: bir so'zning formasini (keng ma'noda) hosil qilish). Ko'rinaldiki, «yasash» so'zi har ikki ma'noda ham, umuman, hosil qilish (bir-biridan hosil qilish) ma'nosida umumiyligi nom bo'lib qo'llanadi. Bu so'z: 1. *uzum—uzum + ni*, *uzum+ga* kabi hollarda so'zning formasini hosil qilish ma'nosida qo'llanadi. Har bir so'z ma'lum bir formada bo'ladi (*uzum—nol'* forma, *uzumni*—tushum kelishigi formasi va b.), u shu hamma formalarning jamini o'z ichiga olgan, umumlashtirgan birlik sanaladi. Uning hamma ko'rinishlari bir so'zning turli formalari sanaladi. Bundagi affikslar (-ni, -ga, -dan kabi) sintaktik funktsiyani bajaradi: so'zlarni bir-biriga bo'flaydi, so'zning qo'shilmadagi—gapdag'i va so'z birikmasidagi—sintaktik vazifasini ko'rsatadi. Demak, bu formalar orasidagi har xillik grammatik farqdir. Bundagi ma'no grammatic bo'lib, so'zning leksik ma'nosini o'zgarmagan. 2. *Uzum—uzum + chi*, *uzum+zor* kabi hollarda yangi so'z hosil qilish ma'nosida qo'llanadi. Bunda affiks leksik funktsiyani bajaradi: yangi leksik birlik hosil qiladi. Bunda juft (affiks qo'shilman holat bilan affiks qo'shilgan holat: *uzum—uzumchi*) orasidagi farq semantik plandagi farqdir. Demak, bu o'rinda affiksatsiya orqali turilgan ikki hodisani ko'ramiz: 1. Affiks—yangi so'z yasash vositasi (*uzum + chi*). 2. Affiks—so'z formasini hosil qilish vositasi. «YAsash, yasama» so'zlar bu hodisalarning hammasi uchun ham—«hosil qilish, turdirish, yaratish» kabi ma'nolarda qo'llanadi, lekin termin sifatida yangi so'z yaratish ma'nosini uchun xoslangan: *yasama so'z* (*yasama so'zi*—sifat), *yasalma* (yasalish natijasida hosil bo'lgan so'z—yasalma so'z, *yasalma* termini—ot).

Har bir tilning yasama so'zlar shu tildagi so'z yasash modellari asosida yaratiladi. Masalan, bajaruvchi shaxs otlarining yasalish modellari: ot (o'zak-iegiz) +chi affiksi (*kran+chi*), ot + soz (*samolyotsoz*); sifatning ma'lum turlarini yasashning modellarni: *ot+li* (*bolali*), *fe'l + q* (*ochiq*); qo'shma otlarning yasalish modellari: *ot + ot* (*non jiyda, qo'l arra, qo'l soat*), sifat+ot (*ko'k qar-fa*); abstrakt ma'noli otlarning yasalish modellari: sifat + lik (*yaxshilik, kattalik*), ravish + lik (*tezlik*); natija otlarining yasalish modellari: *fe'l+m* (*to'plam, bo'lam*), *fe'l+n* (*tugun, bo'zin*) va b.

So'z yasash modellari, umuman, hosil qilish, yaratish sxemasi — andazasi ma'nosidagi umumlashgan, abstrakt hodisadir. Buning ayrim xususiyatlari: 1) yasalish modeli bir xil bo'lgan so'zlar struktura va ma'no tomonidan o'xhash bo'ladi; 2) so'z yasash modellarining unumli yo unumsiz bo'lishi uning—shu strukturadagi modelning yangi yasalma hosil qilish yo hosil qilmasligidandir. Masalan, qo'shma so'zning sifat+ot, ot+ot modellari unumli, uning izofa bilan hosil bo'lishi (*fasli bahor* tusida) unumsiz: ko'shma so'z hosil qilmaydi; 3) *model'* so'zi abstrakt tushunchani bildiradi, lekin juda umumiylig'i va nisbatan umumiylig'i holatlariga qarab, uning sostavidagi elementlar ham turli tusga kiradi. Masalan, yasama so'z hosil qilishning modellari: o'zak+ suffiks, prefiks+o'zak, lekin buning nisbatan aniq turlari haqida gapirganimizda, modelning qismlari ham shunga mos nomlardan bo'ladi; ish otlari yasashning modellari: *fe'l+q* (*suvoq, chopiq*), *fe'l+m* (*terim, o'rim*); qo'shma so'z hosil qilishning modeli: so'z+so'z, qo'shma otlarning modellari: ot+ot, sifat+ot, son+ot va b. Qo'shma so'zning modellari so'z birikmasining modellariga

o‘xshaydi, lekin ularning hamma turi ham o‘xhash bo‘la bermaydi. Ko‘rinadiki, so‘z yasash modeli yasama so‘zning tuzilishi sxemasi, demak, bu sxema so‘z yasash sxemasidir. U so‘zning yasalish strukturasini tekshirishning umumlashtirilishidan turilgan: so‘zning yasalish strukturasini aniqlash bilan umumlashtirish natijasida so‘z yasash modellar belgilanadi, bu modellar tilning so‘z yasalish sistemasini tashkil qiladi.

Har bir yasalmaning asosida boshqa so‘z yotadi («falon so‘z falon so‘zdan yasalgan») va bu yasalish ma`lum modelga ko‘ra biror yo‘l, usul bilan yuzaga kelgan bo‘ladi. Demak, har bir yasalishda ikki elementning munosabati bor: yasashga asos bo‘lgan so‘z va yasalib chiqqan so‘z (yasashga asos bo‘lgan element mustaqil holida ayrim so‘z, lekin yasalmaga asos bo‘lgach - undan yangi so‘z yasalgach— so‘zning qismi: o‘zak yoki negiz). YAsalmadagi bu ikki element tashqi va ichki tomonlardan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Bu munosabatning xususiyatlari:

So‘z yasalishining, yasama so‘zning, binarlik (ikki qismdan iborat bo‘lish) holati, binar oppozitsiya tusida bo‘lishi, unda ikki elementning aloqador ekanligini ko‘rsatadi: yasama so‘z (mahsul) va uning yasovchisi (yasalishiga asos bo‘lgan element). Masalan, *sutchi* (*sutchi* so‘zi *sut* so‘zidan yasalgan, *-chi* morfemasi yasovchi affaksi bo‘lib, yasashning vositasi bo‘lib kelgan). Binar konstruktsiyadagi bu qismlar bir xil o‘zakli — bir o‘zakdan bo‘ladi. Demak, o‘zak o‘sha elementlarning umumiyligi qismi sanaladi: qiyoslanayotgan elementlarning (yasama so‘zning yoki qarindosh so‘zlarning) umumiyligi — o‘xhash qismi. YAsalmadagi ikki element semantik jihatdan ham, formal (tashqi) jihatdan ham aloqador: shu tomonlar yasalganlikning ko‘rsatkichidir (busiz yasalmalik munosabati bo‘lmaydi): a) so‘zning formal strukturasi murakkablashadi (kengayadi: yasovchi element yasalmaga nisbatan sodda bo‘ladi: *ish* — *ishchi*): bu yasalganlikning tashqi tomoni; b) ma`nosi ham murakkablashadi. Masalan, *o‘roq*, yasalmasi o‘z yasovchi so‘ziga («o‘r»ga) nisbatan ikki tomonlama murakkabdir. Lekin konversiyada formal murakkablashish ma`lum bir tashqi — material ko‘rsatkich orqali kengayish — uzayish tusida emas, balki kategorial o‘zgarish tusida bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, yasalgan so‘z bilan yasovchi so‘z o‘zaro yasalmalik munosabati bilan boflangan bo‘ladi: bularning aloqasi so‘z yasash munosabati sanaladi. Bu elementlar orasidagi semantik aloqa sezilmash holga kelsa, orada so‘z yasash munosabati bo‘lmaydi, yasama so‘z tub so‘zga aylanadi (soddalanish hodisasi). So‘z yasalish strukturasi deganda, shu ikki element orasidagi formal va semantik munosabatlarning birgaligini, yifindisini tushunamiz. YAsama so‘zning ma`nosi yasovchi so‘zning ma`nosiga asoslanadi: yasalma o‘zakning ma`nosini rivojlantiradi, o‘shandan kelib chiqadi: *O‘roq* yasalmasining ma`nosi o‘rish harakati bilan asoslanadi (motivlanadi). SHunga ko‘ra: birinchi element asoslovchi (motivlovchi), ikkinchi element asoslanuvchi (motivlanuvchi), ikkala elementning orasidagi munosabat motivatsiya (motivlash, asoslash) munosabati sanaladi. Demak, «motivlangan» so‘zi «yasalgan» degan ma`noni talqin qiladi. «Motivlovchi» esa «shunga asos bo‘lgan, shuni yaratuvchi» degan ma`nodir. SHuning uchun ham yasama so‘zning ma`nosi, kelib chiqishi aniq sezilib turadi (motivlovchi orqali: ko‘chgan ma`nodagi so‘zning asl ma`nodagi so‘z orqali sezilib turgani kabi. Masalan, «mard» ma`nosidagi xo‘roz so‘zi «petux» ma`nosidagi xo‘roz so‘zidan — (shuning yasalmasi), lekin tub so‘zning ma`nosi bunda y emas: yasama so‘zlardagi motiv — sostavidagi qismlarni va qarindosh so‘zlarini chorishdirib aniqlash — bunda yo‘q. SHuning uchun tub so‘zlarning juda kami genetik jihatdan (tarixiy-etimologik tekshirishlar orqali) aniqlangan bo‘ladi: yasamaligi belgilanadi.

«So‘zning ma`nosi uning sostavidagi qismlarning semantik xususiyatlari bilan boqliq» degan fikr hamma vaqt ham shu qismlarning ma`nosi yifilib, o‘sha so‘zning ma`nosini hosil qiladi, shunga teng bo‘ladi, degan mazmunpi anglata bermaydi. Bunda ikki-holat bor: 1. YAsalmaning ma`nosi ko‘pincha, qismlarining ma`nosidan turiladi (*suvoq*, *suvoqchi*, *suvoqchilik* kabi). 2. YAsalmanint ma`nosi, ba`zan, qismlardan anglashilgan ma`nolarning yifindisidan boshqacha bo‘ladi. Masalan, *andavalamoq* (andava+la) so‘zining xas-po‘shlash ma`nosi qismlarning asl ma`nosidan boshqa: bunda ideomativlik bor (bu hodisa yasovchi so‘zda yo‘q). YAna: *qo‘lqop* (chofishtiring: *shakar qop*), *temirchi* (ezma ma`nosida), *ninachi* (juda «mayda» odam: «ikir-chikir»larigacha e`tibor beradigan odam). YAna: *o‘q ilon*, *it uzum*, *it qovun*. Bu misollar yasalmaning, asl so‘z yasalish ma`nosini saqlash bilan birga, yana boshqacha - o‘zakda bo‘lmagan mazmunga ham ega bo‘lishi

mumkinligini ko'rsatadi. Ba`zan buning aksiga o'xshaganroq holni ko'ramiz: yasovchi so'z ko'p ma`noli bo'lganda, yasalmada, odatda, uning o'sha holati, hamma ma`nosi saqlanmaydi. Masalan, *ko'p* formasidagi element a) fe'l *ko'pmoq*: *xamir ko'pdi*, bo'rtib chiqmoq, b) ruscha «mnogo» ma`nosidagi so'z. Bundan -*chi* affiksi orqali so'z yasaganimizda (*ko'pchimoq*), uning «mnogo» ma`nosi saqlangan.

Tub so'z motivga ega bo'limganligidan, u predmet, hodisa va boshqalarni bevosita anglatadi, yasama so'z motivlangan so'z bo'lib, u vosita orqali anglatadi. Misollar: *tuz*, *suv*, *taramoq*, *oq* — *tuzluq* (tuz orqali anglanadi), *suvchi* (suv orqali), *taroq* (tarash harakati orqali), *oqarmoq* (rang-tus orqali). Demak, biror so'zni yasama sanash uchun semantik korrelyatsiya bo'lishi shart.

Taroqchi so'zi *taroq* so'zidan yasalgan, bunda yasovchi so'zning o'zi ham aslda yasama (*taroq* elementi — nisbiy: yakka holda — yasama so'z, *taroqchi* so'zining sostavida — yasovchi so'z). Demak, bunday so'zlarda derivatsiya (yasalganlik) darajali — bosqichli bo'ladi: birinchi derivatsiya (*taroq*), ikkinchi derivatsiya (*taroqchi*); uchinchi derivatsiya (*taroqchilik*). Bularning birinchisi — tub so'zdan (o'zakdan) yasash, ikkinchisi — yasama so'zdan (negizdan) yasash, uchinchisi — ikkinchi yasalmadan (negizdan hosil bo'lgan negizdan) yasash. Bunda: *taroqchi* — birinchi («birlamchi») negizdan yasash, *taroqchilik* — ikkinchi («ikkilamchi») negizdan yasash. So'zning yasamaligini belgilashda eng keyingi yasalish hisobga olinadi: *bichiqchi.shk* (*bichiqchi* so'zidan yasalgan: *bichiqchi+lik*), *bichiqchi* (*bichiq* so'zidan yasalgan: *bichiq+chi*), *bichiq* (*bichiq* so'zidan yasalgan: *bich+iq*), *bich* (yasalmagan: tub so'z, o'zak so'z). Demak, har gal — bir harakat, bir yasalish: har gal — bir munosabat (yasovchi va yasalma orasidagi munosabat — so'z yasash munosabati). Bu yasalish tizmasi o'z qonuniyatlariga, izchillikka ega («*bichiqchilik* so'zi *bich* so'zidan yasalgan» deb bo'lmaydi). Lekin bunday yasalish tizmasida ham dastlabki elementning (tub so'zning) ma`nosi (*taramoq*, *bichmoq*) oxirgacha sezilib — boflanib borishi shart. Qaerda bu boflanish uzilsa (sezilmash holga kelgan bo'lsa), o'sha erda so'z yasalish aloqasi ham yo'qoladi.

«Bu so'z qanday yasalgan?» degan so'roq har gal bir butun, yaxlit so'zni, bir protsessni ko'zda tutadi («*to'qimachilik* so'zi *to'qimachi* so'zidan yasalgan: *to'qimachi+lik*»), «bu so'z qanday morfemalardan iborat?» so'rofi esa, so'z yasash analizini emas, balki morfematik analizni ko'zda tutadi («*to'qimachilik* so'zi *to'rt* morfemadan iborat: *to'qi+ma+chi+lik*: *to'qi* — o'zak morfema, qolganlari — affiksal morfemalar»).

So'zning morfologik qismlarga bo'linishi so'z yasashga ham, so'zning formasini yasashga ham aloqador: ikkalasida ham hosil qilish yo'li (affiksatsiya) va vositasi bir xil. Lekin so'zning strukturasini o'rganish — uni qismlarga bo'lish ikki xil: morfologik analiz va so'z yasash analizi. Morfologik analiz (morfematik analiz deb ham yuritiladi) so'zning morfologik strukturasini — morfema sostavini aniqlaydi, shunga ko'ra u morfema analizi deb ham yuritiladi. Bundagi ikki qismga bo'linish xususiyati «o'zak va affiks» tusidagi grammatik zidlik holatidir. So'z yasash analizi so'zning yasalish strukturasini — yasama so'zning strukturasini aniqlaydi. Bunda: yasovchi va yasalma, bu ikki qism orasidagi semantik-morfologik munosabat belgilanadi. Masalan, *yaxshilik* (*yaxshi* — yasovchi so'z, *yaxshilik* — yasalma). Bu affiks orqali, affiksatsiya yo'li bilan yasalishdir. Demak, bu so'z o'zak va affiksning munosabatga kirishishi bilan hosil bo'lgan. Bunday yasashni derivatologiya tekshiradi: o'zak+affiks yoki negiz+affiks: *no-tinchlik*. Bunda affiks derivator sanaladi.

3.So'z turkumlarining tasnifi va ular to'zisidagi nazariyalar. So'z turkumlari nazariyasining ikkinchi printsipi so'zлarni turkumlarga ajratish printsipidir. Bu ham birinchi printsipga asoslanadi. So'z turkumlari dastlab ikki katta guruhga bo'linadi: *mustaqil so'zlar* va *yordamchi so'zlar*.

Mustaqil so'zlar ma`lum tushuncha ifoda qilib, biror predmet, belgi, harakat nomini ataydi, gapda biror gap bo'lagi bo'lib keladi. YOrdamchi so'zlar tushuncha ifoda etmaydi, ular faqat grammatik ma`no ifoda qilib, gapda so'zning o'zaro munosabatini o'rganishga xizmat qiladi. Bularning ba`zilari so'zlearning analistik formasini hosil qiladi. (mas., *uyga qadar*, *ukam uchun*, *aytib ko'r*).

Mustaqil so‘zlar ichida olmoshlar bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ular narsa va predmetlarni bevosita atamay, bilvosita anglatadi. Ularni odatda faqat vazifasiga qarab turkumlaydi.

So‘zlarni turkumlarga ajratishda eng avvalo so‘z - nomlar ko‘zda tutiladi. Ot va fe`l asosiy so‘z turkumlaridir.

Ot semantik jihatdan predmetlik tushunchasini ifoda qiladi. Morfologik jihatdan egalik, kelishik, son kategoriyalariga, kichraytirish, erkalash, hurmat kabi formalarga ega. Sintaktik jihatdan gapda ega, kesim va ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lib kela oladi. So‘z yasalishi jihatdan turli tip va modellarga ega. Fe`l semantik belgisiga ko‘ra ish-harakat va holatni ifoda qiladi. Morfologik jihatdan zamon, nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, shaxs-son kabi grammatic kategoriyalarga ega. Sintaktik jihatdan fe`l - kesim uchun eng mos turkum. So‘z yasalishiga ko‘ra turli so‘z yasalish tiplari va modellari mavjud.

So‘z-nomlarga sifat, son, ravishlar ham kiradi. Bular semantik, morfologik, sintaktik so‘z yasalish belgilariga ko‘ra o‘zaro farq qiladi.

Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, predlog, bo‘lovchi, articllar kiradi. Bulardan tashqari modal va taqlid so‘zlar ham ajratiladi.

Mustaqil so‘zlar: *ot, sifat, son, olmosh, fe`l, ravish*; yordamchi so‘zlar: *ko‘makchi, predlog, bo‘lovchi, artekl’* kabilar.

Turli tillarda so‘z turkumlarining mavjudligi ularning universal ekanligidan dalolat beradi.

So‘z turkumlari turli tillarda umumiylidkan tashqari, har bir tilda o‘ziga xos grammatic formalarga ega bo‘ladi.

10-ma`ruza: TILNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

R e j a:

1. Sintaksisning predmeti.
2. Sintaktik munosabatlarning turlari.
3. So‘z birikmasi va gap.
5. Gapning aktual bo‘linishlari.
6. Paradigma va sintagma.

Tayanch iboralar: nutqning sintaktik strukturasi, gap bo‘laklari, sintaktik munosabat, so‘z birikmasi, logik-grammatick munosabat, predikativ noprédikativ bo‘elanish, gapning struktural asosi, gap komponentlari, teng bo‘elanish, ergash bo‘elanish, tobelanish, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, inkorporatsiya, inkorporativ kompleks, affiks, suffiks, prefiks, so‘z tartibi, hokimlik va tobelik, tureun birikma, so‘z birikmalari:otli, fe`lli, ravishli, sifatli, fuziya hodisasi, artikl’, abstrakt ma‘no, sintaktik vazifa, sintaktik birlik, gapning kommunikativ mohiyati, gapning konstruktiv-grammatick belgilari, sub`ekt, predikat, bo‘lama, so‘zlar bo‘lamasi, gaplar: darak, so‘roq, buyruq, emotsiyonal va noemotsional gaplar, bo‘lishli va bo‘lishsiz, ikki sostavli (tarkibli) va bir sostavli, yizeq va yoyiq, to‘liq va to‘liqsiz gaplar, paradigma, gapning aktual bo‘linishi, gapning formal bo‘linishi, fikrning ifoda asosi, tinish belgilari.

1. Sintaksisning predmeti. Sintaksis ham morfologiya singari grammaticanining uzviy qismi hisoblanadi. Morfologiyaning o‘rganish ob`ekti so‘z bo‘lgan bo‘lsa, sintaksisning o‘rganish ob`ekti so‘z birikmasi va gapdir. CHunki, tilning asosiy vazifasi odamlar o‘rtasida fikr almashish quroli ekan, bu aloqa gaplar orqali amalgalashadi. Demak, gap kommunikativ birlik sifatida muhim ahamiyatga ega.

Gap bo‘laklari, so‘z birikmalari gapning qurilishini tashkil qiladi.

SHunday qilib, sintaksisda gap bo‘laklari, ularning o‘zaro sintaktik munosabatga kirish usullari va vositalari, so‘z birikmasi va gaplar, ularning qurilishi, tipi, gapdan katta birliklar, ular komponentlarning logik-grammatick munosabati kabi masalalar o‘rganiлади.

Ta`rifdan ma`lum bo`layaptiki, tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida sintaksisning o`rganish ob`ekti faqat gap deb emas, gapdan katta birliklar ham qaralmoqda. Bunda xat boshi, murakkab sintaktik butunlik (fikran, ayni vaqtida leksik, grammatic va boshqa til vositalari yordamida o`zaro borflangan mustaqil gaplar gruppasi), tekst kiritilayapti. Bu hol sintaksisning tekshirish ob`ektini yana ham kengaytiradi.

Til sintaktik qurilishining asosiy xususiyatlaridan biri-turfunligi bo`lib, uning rivojlanishi tafakkur rivojlanishi, jamiyatning kommunikativ ehtiyojlarini rivojlanishi bilan chambarchas bofliq.

Sintaksis tilshunoslikning boshqa yo`nalishlari bilan ham aloqador. Jumladan, fonetika bilan. CHunki har qanday til birligi, demak, gap ham nutq tovushlaridan tashkil topgan. Bundan tashqari urfu, melodika va intonatsiya kabi fonetik hodisalarning ham sintaksis uchun ahamiyati juda kattadir.

Morfologiya va sintaksis bir-birlarini to`ldiruvchi sohalardir. Morfologiyaning birliklari bo`lgan so`z shakllari so`z birikmalari va gaplarda shakllanadi. Gap bo`laklari bilan so`z turkumlari orasida o`zaro yaqin munosabat mavjud.

Kelishik, son, shaxs kabi morfologik kategoriylar, yordamchi so`zlar sintaksis uchun xizmat qiladi.

Sintaksis leksikologiya bilan ham bofliq. Tildagi so`zlar grammatika ixtiyoriga o`tib, o`zaro sintaktik munosabatga kirishib ma`lum fikr ifoda qiladi. Kishilarning fikr almashuvi uchun xizmat qiladi.

Sintaksis quyidagi qismlardan iborat:

- 1.Sodda gap sintaksisi.
- 2.Murakkablashgan gap sintaksisi.
- 3.Qo`shma gap sintaksisi.
- 4.O`zga gap sintaksisi.
- 5.Gapdan katta birliklar sintaksisi.

2. Sintaktik munosabatlarning turlari. Sintaktik munosabatlar dastlab ikki turga bo`linadi: predikativ va noprudikativ

Predikativ bo`linish gap qurilishi asosi (grammatika markazi/ komponentlari (ega va kesim)ning sintaktik munosabatidir. Bular orqali gap hosil qilinadi. Misol: *Men ishga kecha chiqdim.* (shaxs va sonda moslashayapti).

Noprudikativ boflanish bunday xususiyatga ega emas. Teng boflanish (teng sintaktik munosabatda bo`lish, so`zlar shuningdek, qo`shma gaplarning predikativ komponentlari orasidagi biri ikkinchisiga bo`ysinmagan, teng aloqasini ko`rsatuvchi munosabat: *o`qituvchi va o`quvchi, qo`neiroq chalindi va dars boshlandi* va ergash boflanish (bunda biri hokim va ikkinchisi tobe bo`lgan so`zlar o`zaro aloqaga kirishadi: *Salimni ko`rdim*) noprudikativ boflanishning bir turlaridir.

Tenglashish munosabati asosan, teng borlovchilar va sanash intonatsiyasi orqali ifodalananadi.

Ikkinchisida esa tobe bo`lgan so`z hokim so`zni aniqlaydi, to`ldiradi va hokazo.

Tobelanish munosabatini ifodalovchi vositalar, asosan affikslar, ko`makchilar, flektsiya, so`z tartibi va intonatsiyadir.

Sintaktik munosabatining ergashish usuli uch xil: *moslashuv, bitishuv, boshqaruv.*

Tobe so`zning hokim so`z shakliga mos holda bo`lishi *moslashuv* dir. Mas., shaxs va sonda - *SHamol maysalar orasida lola chamanlarini silkiydi.* Qaratqich-qaralmish: *Ustozning vasiyatlariga sodiq qolamiz*

Tobe so`zning hokim so`z talab qilgan formani olish *boshqaruv* dir: *Oltin o`tda bilinadi.* Boshqaruvchi vazifasini fe`l bajaradi.

So`z birikmasining bitishuv turida hokim va tobe so`z o`zaro so`z tartibi yoki ohang yordamida munosabatga kirishadi: *Keksa bo`zbon, kichkina maydon* kabi.

Sintaktik munosabatlar grammatic vositalar orqali ifodalananadi. Ular quyidagilar: affikslar, yordamchi so`zlar, so`z tartibi va intonatsiya.

Affikslar yoki so`z formalari sintaktik aloqani ifodalashda keng qo`llaniladigan vositadir. Turkiy tillarda-suffikslar, hind-evropa tillarida - flektsiya: *Xoroshaya pogoda, alie rozi.*

YOrdamchi so‘zlar grammatic vosita sifatida barcha tillarda mavjud.

Morfologik ko‘rsatkichlar bo‘limganda so‘z tartibi sintaktik munosabatlarni ko‘rsatuvchi asosiy vosita rolini o‘ynaydi.

Intonatsiya ham sintaktik munosabat ifodalaydigan vositadir. Intonatsiyani tashkil etgan komponentlar: logik urfu, pauza, ritm, milodika turli tillarda turli darajada sintaktik vosita sifatida ishlataladi.

3. So‘z birikmasi va gap.

Sintaksisning asosiy o‘rganish ob`ektlaridan biri *so‘z birikmasidir*.

Tushunchalar orasidagi turli munosabatlarni ifoda qilish uchun grammatic jihatdan o‘zaro birikkan ikki va undan ortiq so‘z *so‘z birikmasi* deyiladi.

So‘z birikmasida ayrim tushunchalarni ifoda qiluvchi so‘zlar o‘zaro sintaktik munosabatga kirib, murakkab tushunchani bildiradi va boshqa-boshqa gap bo‘lagi bo‘lib keladi: *Katta bino, Saodatning kitobi*.

Ko‘makchi so‘zlar o‘zi boflangan mustaqil so‘z bilan birgalikda bir bo‘lak hisoblanadi:
Maysalar ustida shudring tomchilari yarqiraydi.

Vogelikni va unga bo‘lgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatic jihatdan shakllangan, intonatsion hamda mazmun jihatdan nisbiy tugallikka ega bo‘lgan so‘zlar boflanmasi yoki yakka so‘z *gap* deyiladi.

Gap fikrni ifoda qiluvchi nutq birligi hisoblanadi.

Uning xususiyatlari:

- so‘zlearning birikuvidan tashkil topadi
- muhim belgisi predikativlik
- intonatsion tugallikka ega
- fikriy jihatdan nisbiy tugallikka ega.

Ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: *darak, so‘roq, buyruq*. Bulardan tashqari *undov gap* ham bor. Tuzilishiga ko‘ra: *sodda* va *qo‘shma*. Sodda gap: *bir tarkibli, ikki tarkibli*.

Bir tarkibli: *egasiz bir tarkibli, kesimsiz bir tarkibli gap*. egasiz bir tarkibli gap: *egasi topilar gap, egasi topilmas gap*.

Egasi topilar gap: *shaxsi aniq gap, shaxsi noaniq gap, shaxsi umumlashgan gap*. Bulardan tashqari *nominativ gap* ham bor.

Ikki tarkibli gap: *ega tarkibli, kesim tarkibli*.

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari: *aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol*.

Xullas, gap har qanday tilda ham kommunikativ mohiyatga ega bo‘lgan asosiy birlik sanaladi.

SHu paytga qadar gapga 300 dan ortiq ta`rif berilgan. Uning grammatic jihat, logik jihat. Psixologizm oqimi, formalistlar oqimlari qarashlari.

Gap atamasi ikki ma`nolidir. Birinchi ma`nosи-til birligi aloqa uchun xizmat qilishga qaratilgan konstruktiv birlikdir. Bu gap modeli, gap formulasi deb yuritiladi. Ikkinchi ma`nosi konkret xabar konkret kontekst bilan borliq bo‘lgan nutq birligidir.

Gap qurilish modeli bilan ifoda mazmuninig birligi gapning asosiy kommunikativ xususiyati hisoblanadi.

SHunday qilib, ob`ektiv borliq va unga bo‘lgan munosabatni ifoda qilib, grammatic shakllanib, nisbiy tugal fikr yoki his-tuyru anglatib, intonatsion butunlikka ega bo‘lgan so‘z hamda so‘zlar birlashmasi *gap* deyiladi.

Predikativlik gapning grammatic ma`nosini ifoda qiladi. U gap hosil qiluvchi kategoriya bo‘lib, gapda ifoda qilinayotgan fikrning borliqqa bo‘lgan munosabatini modal planda hamda zamon va shaxs-sonda ifoda qiluvchi kategoriyadir. Modallik predikativlikning tarkibiy qismi bo‘lib, fe`l mayllari, modal so‘zlar bilan ifoda qilinadi. Umuman predikativlik sintaktik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari, modal so‘zlar va intonatsiya orqali ifodalanadi. Uslub.

4. Gapning aktual bo‘linishlari. Gapning aktual bo‘linishi gapning formal bo‘linishiga qarshi qo‘yiladi. Agar formal bo‘linishda gap tarkibi grammatic elementlarga bo‘linsa, aktual bo‘linishda gap ma`no jihatdan bo‘linadi. Gapning formal bo‘linishining asosiy elementlari ega va kesim hisoblansa, aktual bo‘linishining asosiy elementlari gapning ifoda asosi, ma`lum qismi esa gapning yadrosi, ya`ni nima xabar qilayotgan qismi hisoblanadi. Bunda fikr ma`lumdan noma`lumga qarab harakat qiladi.

Boshqacha aytganda, gapning konkret matndagi mundarijasidan kelib chiqib mazmun jihatdan bo‘linishi. Bunday bo‘linishda gap ikki qismdan iborat bo‘ladi: 1.So‘zlovchi va tinglovchi (o‘quvchi) uchun ma`lum narsani ifodalovchi qism(tema); 2.So‘zlovchi bildirmoqchi, aymoqchi bo‘lgan qism, ya`ni yangi informatsiya qismi (rema): *Sovxozi kollektivining bu yilgi rejalarini yana ham katta*. Tema: Sovxozi kollektivining bu yilgi rejalarini, rema: yana ham katta.

Gapning aktual bo‘linishida gap ifoda asosi va ifoda yadrolariga bo‘linadi: Institut studentlari (ifoda asosi) sport musoboqlarida folib chiqdilar (ifoda yadrosi).

Gapning hamma tiplari ham aktual bo‘linavermaydi. Odatda bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar, nominativ gaplar, to‘siqsiz gapning ba`zi tiplari aktual bo‘linmaydi.

YOZUVDA gapning aktual bo‘linishi tinish belgilari bilan ajratilmaydi.

Orzaki nutqda esa aktual bo‘linishda intonatsiya asosiy vositadir.

5. Paradigma va sintagma. So‘zning o‘zaro borlangan shu bilan birga, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilib, bir butun sistemani tashkil qiladigan ikki yoki undan ortiq formalari *paradigma* deb yuritiladi. Bunday formalarga ot yoki otlashgan so‘zdagi son (birlik, ko‘plik), kelishik, egalik; fe`llardagi zamон, mayl, shaxs-son formalari kiradi.

Boshqacha aytganda, til birliklari grammatic formalarning umumiy ma`nosiga ko‘ra birlashuvni, xususiy ma`nosiga ko‘ra farqlanuvchi sistemasi. Mas., otlarning kelishik bilan turlanish paradigmasi, fe`llarning shaxs-sonda tuslanish paradigmasi kabi.

Sintagma (birlashgan narsa degani).

1. Nutqning mazmun va ritmik-milodik jihatdan bir butunlikni hosil qiluvchi semantik-sintaktik bo‘lagi. Sintagma bir yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishi, hatto gapga teng bo‘lishi ham mumkin: *Sovxozi Paxta planini muddatdan ilgari oshirib bajardi*.

2. Ikki so‘zning sintaktik bo‘rlanishi bilan yuzaga keladigan nutq birligi (birikma yoki gap).

11-ma`ruza: TILLARNI TASNIFFLASH ASOSLARI

R e j a :

1. Tillarning geneologik tasnifi.
2. Tillarning morfologik tasnifi.
3. Analitik tizimdagи tillar.
4. Sintetik tizimdagи tillar.
5. Polisentetik tillar.

Tayanch iboralar: affiksli tillar, flektiv tillar, agglyutinativ tillar, polisintetik tillar, tillarning tipologik tasnifi, sof analitik tillar, sintetik til, sheva, dialekt, differentsiatsiya, invariant vosita, xalq tili, yozma adabiy til, milliy tillar, integratsiya, tillar hamkorligi, tillar chatishuvi, substrat va superstrat hodisa, milliy til, kam tarqalgan tillar, ko‘p tarqalgan tillar, tillarning tarqalishi, millatlararo aloqa tili, xalqaro aloqa tili, jahon tillari, xalqaro til.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda 3000ga yaqin til borligi qayd qilingan. (Ayrim adabiyotlarda ularning soni 5000 gacha deb ko‘rsatilmoxda). Agar ularga shevalar ham qo‘silsa, bu son nihoyat darajada oshib ketishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasida - 130

Hindiston - 720 til va sheva

Indoneziya - 180-200

Fillipin - 80

Janubiy Gveniya – 400 va hokazo.

Bu tillar funksional jihatdan ham teng emas. Birida bir qabila gaplashsa, ikkinchisi *xalqaro til* hisoblanadi. Ba`zi tillar yo‘q bo‘lib ketgan (Amerikadagi hindu qabilalari tillari). O‘lik tiliste` moldan chiqqan, yozma yodgorliklarda saqlanib qolgan til. Masalan: lotin tili, sanskrit tili.

Dunyoda shuncha miqdorda til mavjud ekan, tabiiyki, ularni tasniflab o‘rganishga ehtiyoj turiladi.

Ularning eng asosiy va muhim belgilarini nazarda tutib tasniflash nihoyatda mushkul vazifa ekanligini ham o‘tgan darsimizda ta`kidlab o‘tdik. Bir necha 100 yoki 1000 kishi gaplashadigan qabila tili ham, 400 mln.dan 500 mln.gacha odam gaplashadigan ingliz tili ham alohida til hisoblanadi.

Keyingi yuz yilliklarda, ayniqsa XVI-XVIII asrlar davomida turli tillarni o‘rganish natijasida to‘plagan ma`lumotlar ularni bir-biri bilan qiyoslab o‘rganishga omil yaratdi va astasekin tillarning bir-biri bilan yaqinlik, qarindoshlik munosabati borligi haqida fikrlar paydo bo‘la boshladi.

Frantsuz olimi Gvilel’m Postellus (1510-1581)ning «Tillarning qarindoshligi haqida», golland olimi Iosif Skaligerning (1540-1609) «Evropaliklarning tillari haqida mulohazalar» asarlari yuzaga keldi. 1786 yilda ingliz sharqshunos olimi Vil’em Djounz (1746-1794) Kal’kuttada qilgan ilmiy dokladida sanskrit tilining grek, latin, kekel’t, got va qadimgi fors tillari bilan qarindoshligini ko‘rsatib berdi.

SHu tarzda tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishiga ilmiy zamin paydo bo‘ldi.

Bu metodning shakllanishida F.Bopp (1791-1867) «Sanskrit tillarining tuslanish sistemasi va uning grek, latin, fors va german tillaridagi tuslanish sistemasiga qiyoslash» (1816), «Sanskrit, zend, arman, grek, latin, litva, qadimgi slaviyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatiskasiga nomli uch tomlik asari (1833-1952). Bu asarlari bilan tilshunoslikda agglyutinatiya nazariyasini yaratdi.

Rasmus Rask (1787-1832)- «Qadimgi island tili va island tilining paydo bo‘lishi», Y.Akov Grimm (1785-1863)- «Nemis tili grammatiskasiga». U fonetik qonun, fonetikadagi o‘xhashliklar - «Grimm qonunini» yaratdi. A.X.Vostokov «Slaviyan tili haqida mulohazalar» (1820).

SHunday qilib avval qiyosiy-tarixiy metod, keyinchalik qiyosiy-tarixiy tilshunoslik vujudga keldi. Geneologik tasnif yaratildi.

XIX asrga kelib bu borada etarli ilmiy ma`lumotlar to‘plandi, tillarni tipologik guruhashlashga ehtiyoj ortib bordi. SHu tarzda tilshunoslikda qator tasniflar vujudga keldi. Jumladan:

areal-geografik

genetik-geneologik

morfologik-tipologik

funktional struktural kabi.

Areal tasnifda jahon tillarining xaritasi, turli mamlakatlarning til tomonida xarakteristikasi, ayrim tillarining qo‘llanish doirasining kengayishi kabi masalalar o‘z ifodasini topadi. Mas., O‘zbekiston hududida millat va elatlarning joylashishi. (Dunyodagi tillarning taraqqiyot tarixi shuni ko‘rsatadiki, qabila, elat, irq, hudud chegarasi bilan til chegarasi o‘zaro to‘fri kelmaydi).

Tillarning xalq tarixi bilan aloqasiga ko‘ra, asosan, uch tipga ajraladi: *qabila tili, elat tili, milliy til.*

Tilarning *funktional tasnifi* qo‘yidagi belgilarga asoslanadi:

1) tilning o‘zi tegishli bo‘lgan xalq tarixi bilan aloqasi;

2) tilning jamiyatdagi vazifasi.

Tillarning ijtimoiy vazifasining kengayishi ularning *funktional differentsiatsiyalashuviga* olib keladi. Natijada turli nutq stillari shakllanib boradi. Rivojlangan hozirgi tillarning ko‘pchiligidagi badiiy, ilmiy, publisistik, rasmiy-idoraviy, so‘zlashuv kabi uslublar shakllangan.

Tillarning *tipologik tasnifi* da tillarning grammatici qurilishi asosga olinib, ularning asosiy tiplari belgilanadi. Unda tillarning morfologik va sintaktik tipologiyasi farqlanadi. Morfologik tasnif ana shu usulga asoslanadi.

Morfologik tipologiya da ko‘proq so‘zlarning o‘zgarishi asosga olinadi. Tillarning morfologik tasnifi so‘z qurilishida o‘zak va affikislarini o‘zaro qarama-qarshi qo‘yishga asoslanadi. Bu tasnif tilshunoslikda keng tarqalgan.

Sintakaktik tipologiya gap va so‘z birikmalarida ifoda qilinadigan logik - semantik munosabatlarning universalligiga suyanadi, bunda kesim formasi, sintaktik aloqa, gapdagi logik semantik munosabatlar hisobga olinadi. Kesim formasiga ko‘ra gaplar ot va fe'l gaplarga ajratiladi.

Tillarning sintaktik tasnifida subekt-predikat, ob`ekt-atribut munosabatlarini ifodalanishiga asoslangan tasnif keng tarqalgan. Bu jihatdan I.I.Meshchaninov uch sintaktik tipni ajratadi: *posessiv*, *nominativ*, *ergativ*. Bunda ega nima bilan ifodalanishi hisobga olinadi. Posessiv-egalik, qarashlilik munosabatini ifoda qiluvchi maxsus sintaktik konstruktsiya. Nominativ-ega bosh kelishidagi so‘zlar bilan ifodalanishi. ergativ kelishik kavkaz tillariga xos.

Fandagi bu muammolarni hal qilishga chet el olimlari qatori o‘zbek tilshunoslari ham o‘z hissalarini qo‘shib kelishmoqda.

Geneologik tasnifda til faktlari tarixiy printsip (usul) asosida o‘rganilib, tillarning qarindoshlik munosabati hisobga olinadi.

Struktural tasnifda hamma tillarning vazifasi bir xillidan kelib chiqib, ulardagi umumiylig va o‘xhashlik asos qilib olinadi. Bu umumiy o‘xhashlik va universallik deyiladi.

SHundan so‘ng geneologik va morfologik tasnif va ularning afzal tomonlariga to‘xtalib o‘tiladi.

Geneologik tasnifni ham, qiyosiy-tarixiy tasnifni ham inkor etgan. O‘zining stадial tasnifini taklif qilgan. Bunda u til namontalogiyasi (tilning boshlanfich davridan qolgan qoldiqlarni o‘rganuvchi ilm) usulini qo‘llagan. N.YA.Marrning faraz qilishicha, insonlarning tovush nutqi dastlab to‘rt unsurdan *sal*, *ber*, *yon*, *rosh* dan iborat bo‘lgan emish. Dunyodagi barcha tillar ana shu to‘rt unsurdan tarkib topgan bo‘lib, hamma tillarning yaratilishida eng dastlabki umumiyl materialdan bo‘lgan emish.

N.YA.Marrning bosqichli chizmasida har qaysi qardosh tillarning bir manbadan, bir o‘zak tildan tarqalganligi da`vo qilinadi, bu bilan esa geneologik tasnif inkor qilinadi.

SHu o‘rinda Alisher Navoiyning «Muhokamat-ul lufatayn» asari.(107 bet).

1. Tillarning geneologik tasnifi. Tillarning geneologik tasnifi til faktlarini tarixiy printsip asosida o‘rganib, tillarning qarindoshlik munosabatlarini aniqlaydi.

Eng ko‘p tarqalgan tillar quyidagilar:

I. Hind-evropa tillari oilasi.

1. Hind tillari guruhi. Jonli tillar: *hind*, *urdu*, *bengal*, *panjob*, *maraxti*, *singal'*, *nepal*, *bixar*, *oriy*, *assam*, *kashmir*, *lo‘lilar tili*. O‘lik tillar: *sanskrit*.

2. eron tillari guruhi: *fors*, *pushtu*, *tojik*, *kurd*, *osetin*, *suediyalar tili*, *pomir tili*. *Pomir tillari*, *skif*, *pahlaviy*, *xorazmiy*, *qadimgi fors*, *parfiyan tillari* o‘lik tillar hisoblanadi.

3. Slavyan tillari guruhi: *sharqiy*, *janubiy*, *farbiy*.

a) *sharqiy*: *rus*, *ukrain*, *belorus*.

b) *janubiy*: *bolgar*, *makedon*, *serb-xorvat*, *slovyan tili*.

v) *chex*, *slovak*, *polyak*, *kashub*, *sorab*.

4. Boltiq tillari guruhi: *litva*, *latviya*.

5. German tili guruhi: *shimoliy*, *farbiy*, *sharqiy*.

a) *shimoliy*: *daniya*, *shved*, *norveg*, *island*.

b) *farbiy*: *ingliz*, *golland*, *frits*, *nemis*.

v) *sharqiy*: *vestgot*, *ostgot* (o‘lik tillar)

6. Roman tili guruhi: *frantsuz*, *ital’yan*, *ispan*, *portugal*, *rumin*, *moldovan*, *lotin*.

7. Kel’t tili guruhi: *irland*, *shotland* (o‘lik).

8. Grek tillari guruhi: *grek*

9. Alban tili

10. Arman tili

II. Xom va som tillari oilasi.

Som tillari:

- sharqiy som tili: *akkad*
- shimoliy som tili: *xannan, oromiy.*
- janubiy som tili: *arab va axmar* tili

Xom tillari: *shilx, tuareg, kabil, amazirt, kot, beroer va kushit* o‘lik tillardan *liviya, numid, shtul, misr* tillari kiradi.

III. Kavkaz tillari oilasi.

- 1.Farbiy guruhi: *abxaz, kabardin, cherkas, adigey.*
- 2.Nax tili guruhi: *chechen, ingush, batsbiy.*
- 3.Doғiston tillari guruhi: *avar, darzin, lezgi, lak, tabasarin* (bularning yozuvi bor) va *andiy, karatin, tindin, chamolin, bagaul'*, *axvax, butlix, gadobern, tsez, betedin* (yozuvi yo‘q) tillari.
4. Janubiy yoki kartvel tillari guruhi: *gruzin, zan, svan.*

1U. Ugor-fin tillari oilasi.

- 1.Ugor tillari guruhi: *venger(mojor) tili, mansay tili va xantay.*
 2. Fin tillari guruhi: *fin, sam, eston, karel', komi, udmurt, mariy, morden.*
- Samodiy tillari guruhi: *nenets, enets, sel'kum.*

V. Tungus-manjur tillari oilasi.

- 1.Tungus tillari guruhi: *evenk, even.*
2. Manjur tillari guruhi: *manjur, nanay, udey, ul'g, orog* (SHarqiy Sibir', Saxalin, CHukotka)

VI. Xitoy-tibet tillari oilasi.

- 1.Tay-xitoy tillari guruhi: *xitoy, dungan, vet'nam, tay, laos.*
- 2.Tibet-birma tillari guruhi: *tibet, birma.*

VII. Dravid tillari oilasi: *tamil, malalayam, telugu, kannar, tulu, barxun, gondi.*

VIII. Malay-polineziya tillari oilasi.

Indoneziya tillari: *malay, yava, dayak, tagal', batak, age, bali, madur, torigi, buziy.*

IX. Avtaliya tillari oilasi: *asosiysi aranta.*

X. Papuas tillari oilasi.

Yangi Gveniyadagi 4000 ga yaqin til papuas tillari deb ataladi.

XI. Afrika tillari oilasi.

- 1.Bantu tillari guruhi: *bube, lundu, fang, kongo, rundi, ganda, poto, igala, luba, bembra, subiyya, suaxili, sanga, shambala, zulu, soto, venta, lunda.*
- 2.Sudan tillari guruhi: *zanda, banda, koma, kunama, kardofan, mil'tu.*

XII. Paleosiyo tillari oilasi.

- 1.CHukot tillari guruhi: *chukot, koryak.*
- 2.Sibir' guruhi: *odul', nivx.*

XIII. Eskimos tillari oilasi. Vrengel', CHukotka, Kanada, Alyaskaning shimolida yashovchi xalqlarning tillari eskimos tillari oilasini tashkil qiladi.

XIU. SHimoliy Amerika tillari oilasi. Amerika hindularining tillari ko‘pchiligi yo‘qolib ketgan, yozuvga ega emas. 200 dan oshiq.

Birorta tillar oilasiga kirmagan tillar: *yapon, koreys, ayn.*

XUI. Mo‘fil tillari oilasi: *xalxa-mo‘sil, buryat, qalmiq.*

XUII. Turkiy tillar oilasi: 30 ga yaqin.

Turk, ozorbayjon, turkman, gagauz, qrimtatar, qoragay, balgar, qo‘miq, nuzoy, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, qirziz, o‘zbek, qoroqalpoq, chuvash, uyeur, qozoq.

- 1.Bulfor tillari guruhi: *chuvash, qadimgi bulzor, xazar.*
- 2.O‘fuz tillari guruhi: *turkman, truxman, o‘suz-bulzor-gagauz, bolqon; ozarbayjon va turk.*
- 3.Qipchoq tillari guruhi: *qaray, qo‘miq, koragan-balqar, qrim-tatar-qirim, belorus, litva tatarlari: tatar, boshqird, no‘zoy, qaraqalpoq, qozoq.*
- 4.O‘zbek va uyfur tillari guruhi: *o‘zbek, uyeur.*
- 5.O‘firz tillari guruhi: *tuva, tofalar, (yoki karagass-krasnoyarskda).*
- 6.YOqut tili.

7.Xakas tili guruhi: *xakas, shor, cho 'lim, oltoy-shimoliy shevalar*.

8. Qirfiz-qipchoq tillari guruhi: *qirəziz, oltoy*.

Geneologik tasnif tillarning bir manbadan kelib chiqishini, qaysi tillar bir-biri bilan qardosh ekanligini, shu bilan birga so‘zlarni, qo‘shimchalarni va boshqa grammatik xususiyatlarni nazarda tutib, tillarni ayrim guruhlarga ajratadi.

Geneologik tasnifda guruhlarga ajratilgan tillarning kelib chiqishi, so‘zlarning paydo bo‘lishi va manbai, ularning ma`no jihatdan yaqinligi, shu bilan birga, ularda tovushlar va affikslar o‘xhashligi hisobga olinadi.

Tillarning qarindoshligini biologik hodisa deb qarash kerak emas.

Qardosh tillar jamiyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida yo differentsiatsiya yoki integratsiya yo‘li bilan paydo bo‘ladigan tarixiy hodisadir.

Zamonaviy tilshunoslik ma`lumotlariga ko‘ra hozirgi kunda 20 dan ortiq til oilalari mavjud.

Afrika tillari oilasi keyinchalik yana uchga bo‘lingan: 1. bantu; 2. sudan; 3. paleoafrika tillari oilalari.

YAna: Austr-Osiyo tillari oilasi - mon, kxmer, malak tillari va b. Burjaski tillari oilasi 30 ming kishi gaplashadi. Hindistonning Qorakorum dovonida yashaydi.

2. Tillarning morfologik tasnifi. Bu tasnif ham tillarni qiyoslab o‘rganishga asoslansa-da, printsip va maqsadlari turlichadir.

Morfologik tasnif tillarning kelib chiqishi, tarixi va uning qarindoshlik munosabatlari bilan qiziqmaydi, bu tasnif tillarning grammatik xususiyatlarini, aniqrofi, o‘zak va affikslarni qaramaqarshi qo‘yish asosida taqqoslab o‘rganishga asoslanadi.

Morfologik tasnif natijasida til tiplari ajratiladi. Buning uchun til qurilishi o‘rganiladi.

Tillarning morfologik tasnifiga yirik nemis olimi Fridrix SHlegel’ (1772-1829) asos soldi. U o‘zining «Hindlarning tili va donoligi» (1809) nomli asarida sanskrit tilini grek, lotin va turkiy tillar bilan choғishtirib, tillarni ikki tipga ajratadi: *affekslı tillar, flektiv tillar*.

U tillarni ikki tipga ajratishda o‘zak-negizning o‘zgarishi va o‘zgarmasligini asosga oladi. Affiksli tillarda grammatik ma`nolar alohida-alohida affikslar orqali ifodalanadi, flektiv tillarda esa bir affiks turli grammatik ma`nolarni ifoda etadi. F.SHlegel’ning bu tasnifi keyinchalik uning ukasi Avgust fon SHlegel’ tomonidan qayta qo‘rib chiqildi.

Avgust SHlegel’ o‘zining «Provansal tili va adabiyoti haqida mulohazalar»(1818) nomli asarida tillarni uch tipga bo‘ladi: flektiv (bukilish), agglutinativ (qo‘shimchali), amorf (qo‘shimchasiz) tillar.

A.SHlegel’ ham F.SHlegel kabi xitoy tilini amorf tillarining tipik vakili deb hisoblaydi. Flektiv tillarga som va hind-evropa tillarini kiritadi. Qolgan tillarni esa agglutinativ tillarga mansub deb qaraydi.

Umumiy tilshunoslikning asoschisi mashhur nemis olimi Vil’gel’m fon Gumbol’d morfologik tasnif bilan qiziqib, o‘zigacha ma`lum bo‘lgan tillarni to‘rt tipga ajratadi: *amorf, agglutinativ, flektiv va polesintetik tip*. Polesintetik tillarga eskimos, aleut, chukot va Amerika hindulari tillari kiradi. Bu tillarning tipologik xususiyati shundaki, gap murakkab va qo‘shma gap shaklida bo‘ladi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik oqimining vakillaridan biri Avgust SHlayxer ham bu masala bilan shufullangan va uch tipga ajratgan: *o‘zakli, aglyutinativ, flektiv*. U tillarni uch morfologik tipga ajratishda va ularga baho berishda o‘zining biologik (naturalistik) kontsepsiyasiga asoslanadi.

Bu tasnif bilan G.SHteyntal’ (1821-1889), N.Fink, Moskva tilshunoslik matabining asoschisi F.F.Fortunatov (1848-1914) lar ham shufullanishgan.

Hozirgi tilshunoslikda quyidagi to‘rt tipga asoslaniladi:

I.*O‘zakli yoki ajratuvchi tillar*. Bu tillarga xitoy, birma, tay, tibet va boshqa janubiy-SHarqiy Osiyo tillari kiradi. Bu tillarda forma yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi affikslar yo‘q. Boshqacha qilib aytganda, gapda so‘zlarning o‘zaro grammatik aloqasini ko‘rsatib turuvchi affikslar bo‘lmaydi. Bunday tillarda gap sostavida so‘zlarning grammatik vazifasi va ularning o‘zaro munosabati so‘zning o‘rniga qarab belgilanadi. Grammatik munosabatda so‘z tartibi, urfu, intonatsiya va boshqa vositalar orqali ifodalanadi.

O‘zakli tillarda gapda so‘zlarning o‘zaro grammatik munosabatlari, asosan, so‘z tartibi orqali ifodalanadi. Mas., *shu fan tszay chjotszi-shan-kitob stolning ustida yotibdi, chjotszi-shan fanchchjd shu stolning ustida yotgan narsa kitobdir*.

Xitoy tilida bir so‘z turli matnda turlicha ma`no va turli grammatik vazifada kela oladi:

xao jen'-yaxshi odam

sio xao-yaxshilik qilish

dzio xao-qadimgi do'stlik

xao vo-bu kishi meni yaxshi ko'radi.

II. Agglyutinativ tillar.

Agglyutinativ tillarga turkiy va fin-ugor tillari oilasidagi mo‘ful tillari, dravid, batu, yapon tillari kiradi.

Agglyutinativ tillarning boshqa tillardan ajralib turadigan grammatik xususiyatlari quyidagilar:

1. Affikslar bir ma`noni ifodalaydi. Flektiv tillarda bir vaqtning o‘zida affiks ikki ma`noni ifodalashi mumkin: druzyam-jo‘nalish kelishigi, rod.

2. Affikslar o‘zakka mexanik ravishda qo‘shilaveradi. Flektiv tillarda esa birikib ketadi: *maktablardan-viju/vid*.

3. Turkiy tillarda prefeks yo‘q, grammatik ma`nolar affikslar orqali ifodalanadi. Flektiv tillarda ikkalasi ham mavjud.

4. Turkiy tillarda ko‘makchilar ot yoki ot vazifasidagi so‘zlardan keyin keladi, sintaktik munosabat ifodalaydi: *Ukam uchun oldim*. Flektiv tillarda oldin kelib, shu vazifani bajaradi: *v knige, nad stolem*.

5. Turkiy tillarda rod (jins)kategoriyasi yo‘q.

III. Flektiv tillar.

Flektiv tillarga hind-evropa tillari kiradi. So‘zning morfologik formalarining fleksiya orqali yasalishi bu tillarning asosiy xususiyatlaridir. Bu tillarda har bir mustaqil so‘zning dastlabki shakli ham negiz va qo‘shimchalarga bo‘linadi, natijada o‘zak negiz mustaqil qo‘llanmaydi. Mas., *rus tilida siju, sidish’, sidiyat* so‘zlarining o‘zak-negizi *sid, sij* bo‘lib, ular mustaqil qo‘llanmaydi.

Flektiv tillarga so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi funksiyani bajaradigan ichki fleksiya xos. Bunda o‘zak-negiz tovush almashinuvi bilan turli grammatik ma`nolar ifodalanadi. Mas., arab tilida: *ktb-kataba: u yozdi, kotib: yozuvchi, kitob: kitob, akteb: yozmoq, maktab: idora, makaatib: idoralar, madrasa: maktab, madarris: maktablar* kabi.

IU. Polisintetik tillar.

Bu tillarning asosiy morfologik xususiyatlari ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi va holni ifodalab kelgan so‘zlar fe‘l bilan birikib, murakkab tarkibli qo‘shma so‘z formasiga o‘xhash gap hosil qilishdir. Bunda gap boshida ega, oxirida kesim, to‘ldiruvchi, hol, aniqlovchilar esa ega bilan kesimning o‘rtasida keladi.

Tillarni bunday tasnif qilish nihoyatda nisbiy. Ular mutloq qoidalarga bo‘ysunmaydi.

Morfologik tasnifda so‘zlarning tuzilishi eng muhim, eng asosiy belgi qilib olinadi. Tillarning kelib chiqishi e‘tiborga olinmaydi.

Unda so‘zlarning o‘zaro bo‘lanishidagi so‘z, turlovchi va tuslovchi qo‘shimchalarning bor-yo‘qligi, ularning xususiyatlari va so‘z yasalishi tomonlari hisobga olinadi.

Morfologik usul tillarni ikki asosiy guruhga ajratadi:

1.Qo‘shimchali tillar

2.Qo‘shimchasiz tillar

- a) agglyutinativ – agglutinare - yopishtirish
- b) flektiv – flexio - egilmoq, bukilmoq.

3. Analitik tizimdagisi tillar.

Analitik – grekcha *analitikas – echilish, ajralish* demakdir. Analitik tillarning xususiyati shundan iboratki, bu tillarda grammatik munosabatlар qo‘shimchalar orqali emas, analitik vositalar

(so‘z tartibi, boғlovchi, ko‘makchi va boshqalar) yordamida ifodalanadi. Ingliz, frantsuz, fors kabi tillar mana shunday tillardir.

Analitik tillarga roman tillari, Daniya, yangi grek va boshqa tilar kiradi.

4. Sintetik tizindagi tillar. Sintetik tillarda grammatik ma`no qo‘sishimchalar orqali, ya`ni so‘zning tarkibida ifodalanadi. Masalan, rus tilida *knigu* so‘zi leksik ma`nodan tashqari bir necha grammatik ma`nolarni ham ifodalaydi (vinitel’niy padej, birlik va jenskiy rod).

Sintetik (grekcha *sintetikos – biriktirish, birikish* ma`nolarini anglatadi) tillarga qadimgi hind-evropa tillari, hozirgi Litva, slavyan, nemis tillarining ko‘pchiligi kiradi.

Sof analitik va sof sintetik tillar bo‘lmaydi. Mas., budu pisat’, budesh’ pisat’, budut pisat’, budem pisat’ – pishu, pishesh, pishet, pishut kabi.

5. Polisintetik tillar. Bu tillarga amerika hindulari tili, chukot, koryak va boshqa tillar kiradi. Bu tillarning asosiy morfologik xususiyatlari – ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi va holni ifodalab kelgan so‘zlar fe`l bilan birikib, murakkab tarkibli qo‘shma so‘z shakliga o‘xshash gap hosil qilishidir. Bunda gap boshida ega, oxirida kesim; to‘ldiruvchi, hol, aniqlovchilar esa ega bilan kesimning o‘rtasida keladi. Mas., chukot tilida: *t’mayn’valmarch’nmen* – men (t’), katta (mayn), pichoqni (vala), charxlayapman (mnarkan); *ti-ata-kaa-nmi-rkiin* - men semiz bufularni o‘ldirayapman.

12-ma`ruza: TILNING TASHQI VA ICHKI JIHATI TILNING TASHQI SHAROITI

Reja:

1. Tilning ichki tuzilishi.
2. Tillar taraqqiyotidagi farqlanish va o‘xshashliklar.
3. SHeva va lahjalar.
4. Adabiy til va uning mezoni.
5. Tillarning o‘zaro ta`siri.

Jamiyat tilsiz bo‘lmaydi va aksincha til ham jamiyatsiz bo‘la olmaydi. Til kichik bir qabila yoki kamroq sonli millat bo‘ladimi yoki xalq bo‘ladimi, barchasi uchun zarur bo‘lgan muhim muloqot vositasidir. Tildagi turli hodisa va vositalar, belgilar va xususiyatlar o‘zgaradi, biri yo‘qoladi, boshqasi hosil bo‘ladi. Asta-sekin til rivojlanadi. Agar biror tilda jamiyat a`zolari so‘zlashmay qo‘ysa, uni o‘lik til deb yuritiladi. Masalan, lotin, xet, shumer, akkad, got, pras, xurrit tillari ana shunday o‘lik tillar sirasiga kiradi. Lekin bu o‘lik tillar boshqa tillarga katta ta`sir o‘tkazib, hozir ham boshqa tillarda o‘lik tillaridan o‘zlashgan so‘z va iboralar, turli grammatik vositalar bor.

Tillarning saqlanishi va o‘lik tilga aylanishi tashqi shart-sharoitlarga boғliqdir. Tillar o‘rtasidagi aloqalar unda so‘zlashuvchi aholining joylanishi ya`ni geografiyasi va jamoaning madaniyati, iqtisodi, urf-odati, psixologiyasi bilan boғliqdir. Ba`zi tillarda juda kam odam so‘zlashsa, boshqa ba`zisida miillionlab xalq so‘zlashadi. Tillarning hududiy tarqalishi ham juda rang-barang. Masalan, ingliz va ispan tillari turli qitqa va mamlakatlarda tarqalgan hududiy variantlariga egadir. Tillarning mahalliy farqlari aks etgan varianti uning sheva va dialektlari deb yuritiladi.

Jahondagi ba`zi tillar va ularning dialektlari o‘rtasidagi farqlar hali aniqlanmagan. Tillar o‘z qo‘llanish sohasi bilan ham farqlanadi. Masalan, lotin till fanlarning turli sohalarida, ayniqsa, tibbiyot, biologiya, kimyo, geologiya, fizika va boshqalarda qo‘llanadi. Qadimiy grek till ham fanlarning turli sohalarida qo‘llanadi. Italian tilidagi so‘zlar san`at sohasida ko‘proq qo‘llanadi.

Tilning ichki tuzilishi. Tilshunoslikning eng asosiy vazifalaridan biri tilning ichki tuzilishidir. Nutq a`zolarining harakati bilan havo titrashi va uni quloq bilan eshitib, miya bilan his etish natijasida insonlar bir-birlari bilan muloqot qiladilar. Inson talaffiiz qiluvchi tovushlar boshqa turli tirdagi tovushlardan (masalan, ko`chadagi, musiqa asboblarini chalgandagi va h.k. tovushlardan) tubdan farq qila-di. Bu tovushlar fizik va eshitilish xususiyatlari hamda nutqda birikib aniq ma`no va mazmunga ega bo`lishlari bilan farq qiladilar.

Tilning tovush tomoni uning ifoda jihatini tashkil etadi. Tovushlar va ularning birikmalari inson ongida biror psixik tushuncha bilan bo`flanadi va bu tilning mazmun jihatni deb yuritiladi. Masalan, [daryo] beshta tovush birikmasidan iborat bo`lib, so`zlovchilar ongida "katta suv havzasasi" tushunchasini keltirib chiqaradi. Daryo so`zi tildagi belgi sifatida o`zining ifoda va mazmun jihatlariga egadir. Binobarin, til - belgilarni tizimi (sistemasi) bo`lib, insonlarning muhim aloqa vositasidir. Biroq bir tovush alohida holda ma`no anglatmasa belgi bo`la olmaydi. Har bir belgi ifoda va mazmun jihatiga egadir. Biroq tildagi belgilarni ko`p bosqichli murakkab tarkibi bilan boshqa belgilardan farq qiladi. Masalan, undov belgisi shartli ravishda yo`lda ehtiyyot bo`ling ma`nosini anglatadi. Insonlarning ovozsiz turli imo-ishoralarini ham biror tushuncha bilan bo`flanadi. Biroq bu imo-ishora va mimikalarning ifoda jihatni yo`q.

Tildagi belgilarni murakkab tuzilishi, ifoda va mazmun jihatni bilan farqlanadi. Har bir til bosqichi o`zining birligiga egadir. Quyi bosqich birliklari bir-birlari bilan birikib yuqori bosqich birliklarini hosil qiladi.

Tilning eng quyi bosqichi - fonologiya bo`lib. Uning birligi - fonema hisoblanadi. Demak, tilning eng kichik ma`nosiz birligi fonemadir. Fonema biryoqlama (yoki faqat ifoda jihatiga ega) birlik bo`lgani uchun belgi bo`la olmaydi. Tilning quyi belgila-riga ega bo`lgan bosqichi - morfema bosqichidir. Morfema - tilning ifoda va mazmun jihatlariga ega bo`lgan eng kichik bel-gidir. Morfemalar ketma-ket birikib tilning kattaroq birliklarini hosil qiladilar. Morfemalar birikib so`zlarni va ularning turli shakllarini hosil qilishi mumkin. Masalan: *kuchli* so`zida *kuch* - so`zning asosi bo`lib, o`zak morfemani hosil qiladi, unga -*li* affiksi qo`shilib (uni "affiksal morfema" deb yuritiladi), yangi so`z yasaydi.

So`zlar - tilning markaziy birligi bo`lib, ularni biriktirib yana kattaroq til birliklarini hosil qilish mumkin. Bunday birliklar - so`z birikmasi va gap (jumla) hisoblanadi. Tilning so`z bosqichi ham ikki tomonlama - ifoda va mazmun jihatiga ega bo`lgan eng asosiy bosqichdir.

Tilning morfema va so`z bosqichlari yuqori bosqichlar hisoblanadi va o`z strukturasiga egadir. Tilning ifoda jihatida morfemalardan quyi bosqich fonema bosqichidir. Fonemalar ketma-ket birikib tilning yuqori bosqichlari birliklarini - morfema, so`z, so`z birikmasi va gapni tashkil etadi. Biroq barcha fonemalar bir-biri bilan tartibsiz birikmaydi. Fonemalarning birikishi har bir tilda o`z tartib va qoidalariga ega.

Fonemalarni yana ham kichik hosil qiluvchi bo`laklarga bo`lish natijasida fonologik farqlanish belgilari bosqichi tashkil bo`ladi. Fonemalarni bir-biridan artikulatsion-akustik belgilari bilan farqlashga xizmat qiluvchi belgilarni farqlanish belgilari deb yuritiladi. (Bu haqda kitobning "Fonetika va fonologiya" bo`limiga qarang).

Fonologik farqlanish belgilari tilning ifoda jihatni uchun xizmat qiladi. Tilning mazmun jihatni ham o`zining quyi bosqichi - semantik (ma`no) farqlash belgilari bosqichiga ega. Masalan, "boshliq" so`zi mazmun jihatidan "bosh" so`zi bilan bo`flanib, "-liq" boshqa so`z yasovchi qo`shimchadir.

Binobarin, bu so`z odamlarga yoki bir guruh jamoaga boshliq ma`nosini ifodalaydi va bu uning semantik farqlash belgisidir. Tilning barcha bosqichlarida ulardagini birliklar ma`lum tartibda bir-birlari bilan birikadilar.

Har bir til o`z birikuvi qonuniyatlariga ega. Bu qonuniyatlar ma`lum andozani (model) tashkil etadi. Biroq bu andoza doim ham o`zgarmas bo`la olmaydi. Masalan, ma`lum gapning andozasi turli sharoit-da, nutq holatida boshqacha berilishi mumkin.

Tillarni ilmiy o`rganish vazifalariga ko`ra tavsifiy tilshunoslik (uni ba`zan "sinxron tilshunoslik" deyiladi) va tarixiy tilshunoslik (ba`zan "dioxron tilshunoslik" deyiladi) farqlanadi. Ba`zan tilshunoslik tarixi va tilning tarixiy shakllanishi, o`zgarishi va rivojlanishi - dioxron

tilshunoslik farqlanadi. Qarindosh va qarindosh bo‘lma-gan, turli tizim va strukturaga ega bo‘lgan tillarning o‘xhash va farqli alomatlarini aniqlash qiyosiy tilshunoslikning aniqrofi, qiyosiy-tipologik tilshunoslikning vazifasidir.

Tilshunoslik aslida uyfonish davrida filologiya fani tarkibiga kiritilgan edi. Lekin keyincha XIX asr boshlarida tilshunoslik alohida fan sifatida filologiyadan butunlay ajralib chiqdi. Natijada filologiya ikkita bir-biriga bofliq bo‘lgan fan - adabiyotshunoslik va til-shunoslikdan iborat bo‘lib goldi.

Tilshunoslik birinchi navbatda nazariy fan bo‘lib, uning tatbiqiy - amaliy jihatni turli o‘quv lufatlari tuzish, savod o‘rgatish kabilalar bilan ham bofliqdir. Grammatika termini kelib chiqishi jihatdan "yozuv haqidagi fan"ni bildiradi. YOzuv esa aslida tilni amaliy o‘rganish vositasidir.

Tillar taraqqiyotidagi farqlanish va o‘xhashliklar. Tillar taraqqiyotidagi o‘zgarishlar turli yo‘nalishda bo‘lib har xil natijalarga olib keladi. Ba`zan shunday ham bo‘ladiki, tildagi qandaydir kichik o‘zgarishlar kuchayib, ularda so‘zlashuvchilarning muloqotida quyinchiliklarni keltirib chiqaradi va ba`zan bir tilning ikki variantida so‘zlashuvchilar bir-birlarini tushunmay qolishlari mumkin. Tilning taraqqiyotidagi bunday jarayon farqlanish deb ataladi. Buning aksi bo‘lgan jarayon, ya`ni bir tilning ikki varianti o‘rtasidagi farqlanish yo‘qolishi nati-jasida ularning qo‘silib ketishi integratsiva deb ataladi. Bu ikki jarayon tillarning rivojlanish davrida turlicha kechadi.

Qadim zamonlarda til qabila bilan bofliq bo‘lgan. Qabilalarning bo‘linib ketishi natijasida tillar ham bo‘linib ketgan va farqlangan. Biroq bu farqlanish jarayoni tez kechmagan. Tillarning o‘xhashligi esa o‘tmishda ko‘chmanchilik bilan hayot kechirgan xalqlarning tillarida ko‘proq ro‘y bergen. Odatda qishloq xo‘jaligi, torda va o‘rmonda hayot kechirish tillarning farqlanishini tezlatuvchi shartlardan hisoblanadi. Masalan, Afrika qitqasidagi Kamerun mamlakatida 180 dan ortiq til bor. Tojikistonning Pomir toflaridagi aholining bir necha tillarda so‘zlashuvi, hatto ular yashayotgan joy 5-6 km. uzoqlikda bo‘lsa ham turli bir-biriga o‘xshamagan tillarda so‘zlashuvi qiziqdirdi.

Bir tilning ikki tilga ajralish jarayonida aval bu tilning sheva-lahjalarga bo‘linib ketishi ro‘y beradi. Kelgusida bu shevalar alohida til bo‘lib qolishlari mumkin. Masalan, Sanskrit tili boshqa hind guruhi tillari uchun shunday yo‘lni bosib o‘tgan.

SHeva va lahjalar. Tilning malum hududdagi orzaki qo‘llanishidagi xususi-yatlarini o‘zida aks ettingan shakli sheva yoki dialekt (grekcha dialektas - til, nutq, sheva) deb ataladi. Katta sheva va dialektlarni lahja deb yuritiladi. Til va sheva o‘rtasidagi tafovut shartli bo‘lib, go‘yo milliy til va adabiy til o‘rtasidagi farqqa o‘xhashdir. Bu farqlanish turli hududlardagi bir tilning turli ko‘rinishidek tuyuladi.

Til va dialektlarning tafovuti unda so‘zlashuvchilarning madaniyati, psixologiyasi, urf-odati va milliy xususiyatlarining o‘zgachaligi bilan izohlanadi. Bir-biriga hududiy yaqin bo‘lgan shevalar o‘sha tilga o‘xhash alomatlari bilan ajralib turadi. Bir-biridan juda uzoq hududda tarqalgan shevalar esa boshqa tilga o‘xhash alomatlarga ega bo‘ladi. Masalan, oltoy tilining janubiy shevalari qirfig tiliga juda o‘xhash bo‘lsa, shimoliy shevalari shor tiliga yaqinroqdir [Shaykevich A.YA., Abdurazizov A.A., Gurdjieva E.A. Vvedenie v yazikoznanie. T., 1989, s.192]. Bir tilning turli shevalari avalo talaffuz xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, Toshkent shevasida "keldi" deb talafruz qilinsa, xorazm shevalarida "galdi", o‘zbek tilining qarluq shevala-rida "yomon", o‘zbek tilining qarluq shevalarida "jomon" deb talaffuz qilinadi. SHevalar o‘z lufati, ya`ni so‘zlar bilan farq-lanadi. Masalan, Buxoro shevasida "taxlamoq" feqli biror ishni bajarmoq ma`nosida qo‘llanadi. Bu so‘z boshqa o‘zbek shevalarida "biror narsani ustma-ust tartibda qo‘ymoq" ma`nosini beradi. Tilning shevalari o‘z grammatik alomatlari bilan ham farqlanadilar. Ko‘pgina o‘zbek shevalarida qaratqich kelishigi qo‘shimchasining tushum kelishigi qo‘shimchasi -ni bilan aytildi.

Tilning sheva va lahjalarini o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida bo‘limi *dialektlogiya* (lotincha *dialekt* - nutq va fan) deb ataladi. Tilning turli hududlardagi tarqalgan sheva va lahjalari

shu xalqning tarixi, urf-odati, madaniyat va san`ati bilan bofqidir. Odatda dialektologiya regional, ya`ni hududiy, biror region yoki mahalliy joy bilan bofqidir.

Dialektologiya lingvistik geografiya bilan boflanadi. Turli shevalardagi xususiyatlar jamlanib lingvistik atlaslar tuziladi. SHeva va lah-jalarning hududiy joylanishiga doir xaritalar tuziladi.

Endilikda turli tillardagi ayrim xususiyatlarning tarqalishiga doir xarita va atlaslar tuzilmoxda. Bunday lingvistik xarita va atlaslarni tuzish maqsadida aniq dastur va anketalar, yaqni qanday masalalar, so`z va gaplar kiri-tib, ularni tahlil qilishda uchraydigan fonetik, grammatick va leksik xususiyatlarga ahamiyat beriladi. Bunday vazifalarni bajarish uchun maxsus dialektologik ekspeditsiya uyushtiriladi.

Til va uning shevalaridagi tarqalgan turli xususiyatlaring dialektologik xaritada ko`rsatilish chegarasi izoglosslar (lotincha izo- o`zaro, gloss-til) deb yuritiladi. Bunday izoglosslami aniqlash shevalar tarixini o`rganishda yordam beradi.

Lingvistik geografiya metodlarini qo`llash natijasida turli tiilar va shevalardagi izoglosslarning tarqalishi aniqlanadi. Jamiyatning turli sinflariga mansub bo`lgan til xususiyatlarini ijtimoiy dialektlarga xos deb hisoblanadi.

Adabiy til va uning mezoni. Adabiy til biror millatning tarixiy jihatdan shakllangan umumxalq tiliga asoslanadi. O`zbek adabiy tilining asoschisi buyuk shoirimiz Mir Alisher Navoiydir.

Adabiy til u tarqalgan hududda barcha xalq uchun tushunarli bo`ladi. Bu umumxalq tilida shevalarga va kasb-hunarga xos so`zlar ham bo`ladi. Adabiy tilda boshqa tillardan o`zlashgan so`zlar ham bo`lishi mumkin. Adabiy tilni yozma tildan farqlash zarur. Adabiy til orzaki va yozma shaklda bo`ladi. Adabiy tilning orzaki shaklida uning talaffuz normasi o`z ifodasini topadi. Adabiy tilning o`z grammatickasi va leksikasi mavjud. Bular ham o`z adabiy normasiga ega. Adabiy tilda turli sohalarga doir terminlar, dialektizmlar (shevalarga xos so`zlar), kasb-hunar, madaniy-maishiy va boshqa sohalarga tegishli so`zlar mavjud bo`ladi. Adabiy tilning orzaki shakli yozma shaklidan avval hosil bo`lishi mumkin. Adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishida buyuk shoir va adiblarning xizmati juda kattadir. Ular qo`llagan so`z va iboralar va maxsus uslub (stil) adabiy tilning nufuzini ta`minlaydi.

Adabiy til milliy tilning asosida shakllanadi. Milliy tilning yozma va orzaki shakllari unda so`zlovchi xalq uchun tushunarli va umumiyo bo`lgan mezonlarga egadir. SHu sababli uni davlat tili yoki rasmiy til sifatida qabul qilinadi. Davlat tili ommaviy axborotda, matbuotda, sud va prokuraturada, barcha davlat tashkilotlari, o`quv maskanlari va boshqa muassasalarda qo`llanadi. Tilni xalq yaratgan va uning adabiy va davlat tili sifatida qo`llovchi ham xalqdir. Davlat tilining erkin rivojlanishini va uning xalq xo`jaligining turli sohalarida qo`llanishini ta`minlash til siyosatining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Adabiy tilning ma`lum situatsiyada qo`llanuvchi varianti uning funksional stil deb ataladi. Funksional stillar tilshunoslikning ifodali vositalarini o`rganuvchi bo`limi bo`lmish stilistikada o`rganiladi.

Tilning funksional stillari: rasmiy-ish stil, kundalik orzaki nutq stil, ilmiy-texnik stil, diniy stil, badi-iy stil (u poetik (nazmiy) stil, nasriy stilni o`z ichiga oladi). Ba`zan badiiy stilga nisbatan neytral stil farqlanadi.

Tillarning o`zaro ta`siri. Odatda ma`lum hududda yashovchi ko`pchilik xalqning tili umumiyo til deb ataladi. Tarixda yunon tilining Afina attik dialekti umumxalq tili sifatida qabul qilingan. Bunda Afina shahri Gretsiyaning madaniy, siyosiy va iqtisodiy markazi ekani ham hisobga olingan. Bunday umumiyo tilni koyne (grekcha koine- dialektos - "umumiyo nutq") deb ataladi.

O`zbek tilining Toshkent va Farfona shevalari "tavanch shevalar" deb ataladi va bu "umumiyo til" tushunchasiga ancha yaqin turadi. Kishilar ikki va undan ortiq tillarda so`zlasha

oladilar. SHunga ko‘ra ikki tilliylik bilingvism (grekcha bi - ikki, lingua- til) va ko‘p tilda so‘zlashish - polilingvism (grekcha poly- ko‘p, lingua - til) farqlanadi. Ikki tilda so‘zlovchilar ayniqsa ko‘p. Masalan, O‘zbekistonning Namangan viloyatida 9% aholi, O‘rta Osiyo xalqlarining 30% (1970-yil aholi ro‘yxati natijalariga ko‘ra) ikki tilda so‘zlashadilar.

Tillarning o‘zaro ta`siri natijasida ulardan biri, odatda madaniy va iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangan xalqning tili ta`sirida ikkinchi tilda ko‘pgina so‘zlar o‘zlashadi. Masalan, Afrika tillarida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar juda ko‘p. Lekin, aksincha, Afrika tillaridan arab tiliga o‘tgan so‘zlar juda kam topiladi. Bir-biriga o‘zaro ta`sir ko‘rsatgan tillarning har ikkisi ham so‘zlearning o‘zlashishi natijasida boyiydi. Masalan, qadimiy farbiy german tillarining lotin tili bilan aloqasi natijasida german tillariga hayotning turli sohalariga tegishli so‘zlar kirib keldi: ingliz, street, nemis. Strasse - "ko‘cha", ingliz. cheese, nemis. Kase - "pishloq", ingliz. toll, nemis pfund - "boj haqqi", pound, pfund "funt" kabi. O‘z navbatida german tillaridan ham lotin tiliga qator so‘zlar o‘zlashgan va ulardan ba`zilari ispan tilida saqlanib qolgan: ispan, espiar "ortidan bormoq", tregua "ke-lishuv", guardar "qo‘riqlamoq", orgullo "faxr" [SHaykevt A.YA., Abduazizov A.A., Gurdjieva e.A. Vvedenie v yazfkoznanie. T., "O‘qituvchi", 1989, s. 200-201.] kabi.

Tillarning o‘zaro ta`siri ularda so‘zlashuvchi xalqlarning yonma-yon yoki yaqin hududda yashashiga boqliq emas. Ba`zi baynalmilal so‘z va terminlarning bir yo‘la bir necha tillarda qo‘llanilishi bunga misoldir. Ko‘pincha tillarning o‘zaro ta`siri leksika sohasida, xususan, so‘z qabul qilish bilan boshlanadi va keyincha u fonetika va grammatikada kuzatiladi. O‘zbek tilida arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar ko‘pgina topiladi. Arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan ba`zi so‘zlarda fonetik hodisalar ham mavjud: toat, talqat, soat, surqat kabi. Bu so‘zlarda arabcha "ayn"ning cho‘ziqroq talaffuzi kuzatiladi. O‘zbek tilida /ts/ (tsirk, tsirkul), /J/ (juri, jurnal) fonemalari grek tilidan kirib kelgan so‘zlar bilan birga o‘zlashgan. Bir tildan ikkinchi tilga so‘z o‘zlashuvi natijasida ulardan birining tarkibida katta o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bunday, ta`sir tillardan birining yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Saqlanib qolgan tilda yo‘qolgan til unsurlarining bo‘lishi substrat (lotincha sub - "yuqori", stratum - "qat-lam") deb ataladi. Substratning ta`siri ko‘proq fonetika sohasida bo‘ladi. Masalan, german tillaridagi "yuz" va "ming" sonlari qadimiy ingliz, qadimiy sakson tillarida hund, qadimiy yuqori nemis tilida hunt, boshqa german tillarida hunda shaklida o‘zlashgan. Ming so‘zi thusundi shaklida (qadimiy ingliz tilida thousand, qadimiy friz tilida thusend, qadimiy sakson tilida thusundig, thusint kabi) o‘zlashgan. Bu so‘zlarda fonemalar almashuvi kuzatiladi. Qrimdagi gotlar tilida bu so‘zlarga sada "yuz" o‘rta osetin tilida sada, fin-ugor tillardan o‘zlashgan sada va hazar "ming" (o‘rta fors tilida hazar, venger tilida o‘zlashgan ezer shakli mavjud [Misollar olingan manba: Toporov V.N. Drevnie germanhi v Prichernomor’e. Rezul’tati i perspektivi //Balto-slavyanskie issledovaniya. 1982. M., Nauka, 1983, s. 239.].

Sintaksisda uchrovchi substratlarga turkiy tillarida gapda so‘z tartibining ancha erkin bo‘lib qolgani va teskari so‘z tartibi ham qo‘llanayotgani misol bo‘ladi: Masalan:

Ozor tilida:	Danisyr Baky!	O‘zbek tilida:	Bokudan gapiramiz!
Qirfiz tilida:	YAshasyn sulh!		YAshasin tinchlik!
	Berilet usul sprawke		Berildi ushbu ma`lumotnomma
Turkman tilida:	Mikrofon onunde joldas CHorijev		- Mikrofon oldida o‘rtoq CHoriev

(mana shu tablitsani tekshirib ko‘rish kerak) [Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Umumiyl tilshunoslik. Toshkent, O‘qituvchi, 1979, 170-bet.].

Substrat hodisalarini tilning semantikasida ko‘proq uchratish mumkin. Masalan, grek tilidagi "marble" so‘zi "mar-mar" shaklida o‘z ma`nosida o‘zbek tiliga o‘zlashgan. Bu so‘z boshqa tillarda ham mavjud.

13-ma`ruza: YOZUV VA UNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

R e j a:

1. YOzuvning paydo bo‘lishi va tarixiy ahamiyati.
2. YOzuv va uning taraqqiyot bosqichlari.
3. O‘zbek yozuvining taraqqiyot bosqichlari.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar: yozuv, yozuv bosqichlari, mnemonika, buyumli yozuv, piktografiya, logografik yozuv, ieroglif, fonografik, sillabik, fonetik yozuv, oromey-suriya, Arabiston, YUnion-evropa, Misr yozuvi, Rozetta toshi, Mesopotamiya, SHumer, Mixxat, Markaziy Osiyo, Issiq yozuvi.

1.YOzuvning paydo bo‘lishi va tarixiy ahamiyati. YOzuvning paydo bo‘lishi til qadar uzoq tarixga ega emas. Hozir bizga ma`lum bo‘lgan tillarning yozuv tarixi o‘n-o‘n besh ming yildan oshmaydi. Ba`zi tillarda hozirgacha yozuv yo‘q. Mas., Amerika qit`asidagi ayrim mahalliy aholi.

YOzuv ehtiyoj tufayli paydo bo‘ldi. Boshlanrich davrlarda xotirada saqlab qolish vositasi tabiat predmetlari bo‘lgan. Predmetlar simvolikasi shunday vazifani bajargan. Mas., qarama-qarshi qabila vakillarining navbatma-navbat trubka chekishi tinchlik simvoli bo‘lgan. Slovyan qabilalarida ilgari va hozir ham mehmonni non va tuz bilan kutib olish do‘stlik va hurmat belgisidir.

YOzuv jamiyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta rol’ o‘ynaydi. YOzuvning xabar etkazish imkoniyati tufayli turli masofadagi - dunyoning turli nuqtasida paydo bo‘lgan yirik siyosiy, ilmiy, texnikaviy va adabiy voqealar barcha xalqlarning mulkiga aylandi.

Agar yozuv bo‘limganida, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari bizgacha etib kelmagan bo‘lar edi. Xullas, harf yozuvi asosida paydo bo‘lgan ilmiy simvolika tafakkur taraqqiyotini tezlashtirishda, fikrlash, o‘ylash va isbotlashning yanada yuqori darajaga ko‘tarilishida muhim rol’ o‘ynadi va o‘ynamoqda.

Tildagi uzoq yillar mobaynida yuz bergen fonetik, grammatik yaruslardagi o‘zgarishlardan faqat yozuv tufayligina xabardormiz. Faqat yozuvgini til evolyutsiyasi to‘risidagi tasavvurimizni jonlantira olishi mumkin.

Agar yozuv bo‘limganda, Mahmud Qoshfariy, Yusuf xos Hojib, Ahmad YUgnakiy, Lutfiy, Alisher Navoiy singari buyuk siymolarning donishmandona fikrlaridan bahramand bo‘la olmas edik.

YOzuvning yutuғi: tilda bo‘limgan imkoniyatlar yozuvda yuzaga chiqadi. Ammo u tilning to‘liq aksi emas, balki shartli va sun`iy aksidir.

YOzuv tilga nisbatan kam o‘zgarib, uning vazifasi ham bir muncha chegaralangandir. Jamiyatning kelgusi taraqqiyotida radio va televizion, internet aloqa vositalari kabi yozuvdan ustunroq bo‘lgan yangi vositalar ham yuzaga kelishi mumkin.

YOzuv o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmay, balki ma`lum bir ehtiyoj va zarurat asosida fikrni uzoq masofaga etkazish yoki keyingi avlodlarga qoldirish talabi bilan yaratilgan. Uning o‘ziga xos xarakterli belgilari bor

1. YOzuv mustaqil va asosiy aloqa vositasi bo‘lolmaydi, yordamchi vosita hisoblanadi.
2. Nutqni uzoq masofaga etkazish va keyingi davrlarga qoldirish uchun xizmat qiladi.

Grafik belgilarni yozuvning asosiy qurolidir.

Demak, yozuv ko‘z bilan ko‘radigan va kishilar o‘rtasida o‘ziga xos aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladigan grafik belgilarni yozuvning jamiyatda o‘ziga xos katta o‘rnini va xizmatini bor, ya`ni yozuv ma`lum bir masofa bilan ajralgan odamlar orasidagi aloqalarni yaxshilashda, yozma adabiyotlarni va yozma adabiy tilni yuzaga keltirishda, ma`lum bir davrda yaratilgan madaniy- adabiy yodgorliklarni keyingi davrlarga etkazib berishda nihoyat darajada muhim rol’ o‘ynaydi.

Olimlar yozuvning paydo bo'lishi va ahamiyati to'frisida maxsus asarlar yozishgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy Aristotelning «Ritorika» asariga yozgan sharhida yozuv tizimi, uslubiyat haqidagi fikrlarida o'z ifodasini topgan. U tilshunoslikning mundarijasini olti bo'limdan iborat deb belgilaydi va beshinchisi «yozuv qonunlari va to'fri talaffuz (orfoepiya) haqidagi fan» ekanligini ta`kidladi. Bundan tashqari olim «Kitob fi sanoat al-kitoba» («YOzuv san`ati haqida kitob»), nomli asar yozgan.

Abu Rayhon Beruniy tilshunoslikning ko'p masalalari qatorida yozuvning ahamiyati haqida ham atroflicha fikr yuritadi. U til va yozuvning munosabati haqida shunday yozadi: «Agar insondagi so'zlash quvvati hamma joyga shamol kabi yoyiluvchi bo'limganda edi va zamonlardan zamonlarga nafaslar singari o'tuvchi xat yozish san`atini keltirib chiqarmaganda edi, o'tmish zamonning xabarini, ayniqsa, uzoq zamonlar o'tganda hozirgi zamon tillariga qanday ko'chirib bo'lar edi?» Beruniy ayrim mutaassib kishilar arab yozuvini Alloh tomonidan yuborilgan, deb ilohiy tus berayotgan bir paytda, har qanday yozuv kabi bu yozuv ham insoniyatning kashfiyoti ekanligini e'tirof etadi. Lekin bu yozuvda ancha noqisliklar bor ekanligi, shuning uchun ham grek, lotin, hind tilidagi asarlarning arab tiliga qilingan tarjimalarida ayrim nomlarni to'fri ifodalash qiyin, shu tufayli ko'p nomlar raliz berilishini bayon qiladi. Olimning aytishicha, arab yozuvida «katta baxtsizliklar» bor. Unli fonemalarning ifodalanmasligi, ko'p harflarning bir-biriga o'xshashligi va ularning ayrim nuqtalar orqaligina farqlanishi qator qiyinchiliklarga olib keladi.

V. Gumbol'dt shundan keyingi davrlarda «Harf yozuvi va uning til qurilishi bilan aloqasi haqida»(1824) kabi asarlar yozgan.

2. YOzuv va uning taraqqiyot bosqichlari. YOzuv o'zining taraqqiyotida turli bosqichni bosib o'tgan. Dastlab buyumlardan *mnemonika* yoki «eslatuvchi» vositalar sifatida foydalanish zamonaviy yozuvga olib keluvchi mashaqqatli uzoq yo'ldagi birinchi qadam bo'ldi. Ammo bu vositalar fikrni uzatmas, balki uni faqat eslatardi. Masalan, arqon, chilvir, ip, kanoplarni xilma-xil rangga bo'yash, ularga turli tugunchalar qilish bilan ayrim voqeani, fikr-istiklarni o'zlaridan uzoqda turuvchilarga nutqsiz etkazganlar. Biror narsani eslab qolish odati shundan qolgan. So'ngra buyumlarga aniq ma`no berila boshlagan. Buyumga ma`no birkitib qo'yishning bu usuli «buyumli yozuv» deb atalgan.

O'tmishda, hozirgi zamon yozuvlari bo'limgan davrlarda, odamlar ba`zi hodisalar va voqealarni uzoq masofaga etkazish niyatini yoki zamonda (vaqtida) abadiylashtirish maqsadlarini jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizish orqali amalga oshirganlar. Bunday yozuv *piktografik yozuv* deb nom olgan.

Turli voqealarni narsa-predmetlarning rasmlarini chizib, o'zlarining fikr va istaklarini bildirishgan. Ana shunday turli narsa-predmet va voqealarni bildiradigan rasmlar *piktografik* (pictus – chizilgan, grafo – yozaman) yozuv deb ataladi.

Piktografik yozuvda har bir rasm bir tushunchani ifodalaydi. Masalan, besh qayiq, baliqchi qush, otliq kishi, toshbaqa, quyosh rasmi berilgan. Uning mazmuni quyidagicha: Qabila boshlifi otda yo'l boshlamoqda. Qayiqda 50 kishi va qabila boshlirining Baliqchi ismli safdoshi bor. Ko'lda uch kun suzib, quruqlikka chiqqanlar.

Piktografik yozuv asta-sekin takomillashib, *ideografik* (idea – tushuncha, grafo - yozaman) yozuv paydo bo'ldi. Uni *logografik* (logos – so'z) yozuv deb ham yuritadilar. Bunda tildagi har bir so'z o'z simvoliga ega bo'ladi. Masalan, qadimgi arablar «yuz ming» sonini itbaliqning shakli orqali izohlashgan. Logografik yozuvning bir ko'rinishi mixxatdir. Bu yozuv qadimgi Mesopotamiyada qo'llanilgan.

Logogrammaning piktogrammadan farqi shundaki, piktogramma bevosita predmetni aks ettiradi, logogramma so'zning ma`nosini izohlaydi. Demak, logogramma bevosita predmet shakli bo'lmay, u so'z ma`nosini aks ettiruvchi shartli belgidir.

Logografik (so'z yozaman) yozuvning biroz mukammallahgan formasi *ieroglifik yozuvdir* (muqaddas yozuv). Bu yozuv qadimgi Arabistonga, hozirgi Xitoyga xosdir. Xitoy tilining to'liq lutfatlarida qirq mingga yaqin ierogliflar qayd qilingan. Hozirgi zamon matnlarida esa 2-5 ming atrofida ierogliflar qo'llanadi.

Xitoy yozuvi dunyodagi noyob yozuvlardan biri bo‘lib, hozirgi zamon kishisi foydalanadigan yozuvlar orasida eng qadimiysi (miloddan avvalgi XII asr). Qadimgi Misr ierogliflariga va SHumer mixxatiga tengdosh bo‘lgan bu yozuv o‘ziga xos taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lganligi uchun ham shu paytga qadar saqlanib kelmoqda. Har bir ieroglif alohida bir so‘zni bildiradi. So‘zlar qanday ohangda talaffuz etilishiga qarab, mutlaqo boshqa-boshqa ma`noni bildiradi. So‘zlar past, balandlashib boruvchi, baland ohangga qarab uch xil ma`noni ifodalaydi.

YOzuvning ommaviylashuvi uchun uni, albatta, osonlashtirish, soddalashtirish va qulaylashtirish kerak edi. Uning soddalashish jarayoni bir necha yo‘llar bilan amalga osha boshladi:

-yangi tushunchalarni mavjud logogrammalar yoki ierogliflar kombinatsiyasi orqali ifodalash. Mas., xitoy yozuvida: *ko‘z yoshi tushunchasi- ko‘z va suv ramzi ifodasi*. Unumsiz rivojlandi;

-logogrammalarini o‘zak sifatida qoldirib, grammatik ma`nolar uchun yangi logogrammalar o‘ylab topish;

-fonografik yozuvga o‘tish.

YOzuvni soddalashtirishning eng unumli va progressiv usuli fonografik yozuvga o‘tish bo‘ldi.

Fonografik yozuv. Ayrim yozuvlar, masalan, *piktogramma*, *sillabogramma* (*bo‘zin yozuv*) va *ideogrammalar* (shartli belgi, simvol) evolyutsiyasi natijasida harflar paydo bo‘ldi yozuv taraqqiyotida *harf-yozuv davri* boshlandi. Hozirgi vaqtida jahon aholisining taxminan to‘rtadan uch qismi mana shu yozuvdan foydalanadi. Harf tovush yozuvi hozirgi vaqtida, asosan, yirik to‘rt xil yozuv sistemasidan iborat. Lotin yozuvi asosidagi yozuvdan jahon aholisining 30%, slaviyan-krillitsa yozuvidan 10%, arab yozuvidan 10%, hind yozuvidan 20% aholi foydalanadi.

Fonografik yozuv ko‘p ko‘rinishlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

1. Sillabik yoki bo‘fin yozuvi. Bu yozuv qo‘shma so‘zlarni mayda qismlarga bo‘lish usuli bilan paydo bo‘ldi. Mayda qismlar bo‘finlarga to‘fri keladi. U yoki bu so‘zni yozish lozim bo‘lsa, ana shu bo‘finlarni bir-biriga qo‘shish usuli bilan tuzishar edi. Bu yozuvga qadimgi hind yozuvi devanagari yaxshi misol bo‘la oladi. Bo‘finlarning soni turli tillarda turlichha bo‘lgan. Masalan, Kipr orolidagi qadimgi grek tilida 65ta bo‘fin birligi, Gvineya orolidagi vaylar tilida 226ta bo‘fin birligi bo‘lgan.

2. So‘z shakllarini fonetik birliklar – tovushlar orqali ifodalash. Dastlabki alifbeli yozuv Nil daryosi vodiysiga bostirib kelgan giksoslar tarafidan yaratilgan. Giksoslar misrliliklarning atoqli ismlarini yozishdagi tajribasidan foydalanganlar: ular Misr ieroglifik yozuvlaridan yigirmatasini olib, shular orqali o‘z tilining unli va undosh tovushlarini ifodalaydigan alifbeni yaratganlar. Alifbe so‘zi giksoscha *alif – ho ‘kiz, be < bet – uy* demakdir.

Eramizdan bir yarim ming yil ilgari giksoslar alifbesini finikilar o‘zgartirib, o‘z tilining tovushlariga moslashtirib olganlar. Dunyodagi ko‘p tillarning fonetik yozuvlari finikilarning yozuvi asosida vujudga kelgan. Keyinchalik finikilarning bu alifbosi uch tarmoqqa bo‘linib rivojlandi: 1. Oromey – suriya tarmofi, u SHarqqa qarab tarqalgan. 2. Janubiy Arabiston tarmofi, u Janubga tomon tarqalgan. 3. YUnion-evropa tarmofi, u Farbga qarab tarqalgan.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ularning bevosita qadim oromey yozuvi ta`sirida shakllanib, rivoj topganligining guvohi bo‘lamiz.

Miloddan avvalgi V-IV yuz yilliklar va milodning boshlarida oromey xati takomillashib, uning negizida birin-ketin arab, parfeniy, boxtariy, avesto, turk-run, xorazmiy, surd, uyfur alifbelari shakllangan.

Dunyo mamlakatlari ichida Misr qadimgi tarixga ega. Misr yozuvi miloddan avvalgi IV ming yillikning ikkinchi yarmida yaratilgandir. Keyinchalik u batamom unutildi.

Jahon madaniyati uchun eng muhim ahamiyatga molik bo‘lgan hodisa 1799 yil 2 avgustda sodir bo‘lgan. SHu kuni frantsuzlar inglizlarning dengiz tomondan bo‘layotgan hujumini daf etib, sohilni qo‘lda saqlab turganlar. Rozettadan etti kilometr naridagi qadimiy Rashid qal’asini himoya qilayotgan askarlar xandaq qazayotib yozuvlar bitilgan qop-qora tosh topib oladilar (uni Rozetta toshi deb atashadi). Kattaligi stol taxtasicha keladigan bu toshdagи yozuvlar uch (misr, suriya, yunon) tilda o‘n to‘rt satrlik yozuv qolgan. Bu yozuv ko‘p asrlar mobaynida jumboq bo‘lib keldi.

Rozetta toshi topilgandan so‘ng ierogliflar jumbofini echishga bo‘lgan ishtiyoq yanada kuchayib ketdi. Ana shu toshlarni o‘rganishga A.Kirxer, S.de Sasi, D.Okerblad, T.Yung kabilar kirishganlar. Ierogliflarning ieratik va demotik turlari haqida dastlabki ma`lumot bergenlar, lekin oxiriga etkazmaganlar.

Ushbu jumboqni echishda (16 yoshida) frantsuz Grenobl’ akademiyasining akademigi bo‘lgan J.SHampol’ onning hissasi kattadir. U o‘z hayotini Misr sirlarini ochishga barishlagan. J.SHampol’ onning Misr bo‘yicha to‘plagan materiallari 20 jilddan iborat.

Qadimgi madaniyat o‘choqlaridan yana biri Mesopotamiya (ikki daryo – Dajla va Frot oralifidagi er) sanaladi. Bu yurtda ossuriy-bobil yozuvining xilma-xil mixxat lavhalari yaratilgan. e.de Sarzek, L.Vulli, K.Nibur, G.Grotefend, F.Myunter, D.Smit, O.Sulaymonovlar shumerlarning bu mixxat lavhalarini o‘rganib o‘z nazariy fikrlarini bayon etganlar.

Semit akkadlari milodgacha uch ming yilliklarda Mesopotamiyaga kelib, ular madaniy xalq shumerlarga duch keladi. SHumerlar tomonidan kashf etilgan mixxatni keyinchalik akkadlar, xetlar, qadimgi forslar, elamiylar qabul qildilar.

SHumer mixxatlari Ur, SHuruppak xarobalaridan topildi. 1840 yilda ingliz olimi Leyard Osuriya poytaxti Nineviya xarobalarini o‘rganish jarayonida 20 ming sopol kitobga ega bo‘lgan shumerlar kutubxonasini qo‘lga kiritdi. Ana shu sopol kitoblarda «Bilgamish» dostoni yozilgan.

Akkadlar o‘zlariga notanish, shumer tilining birinchi lufatini yaratganlar.

YOzuv madaniyati tarixiga nazar tashlansa, Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar orasida yagona alifbe bilan cheklanib qolgan ulusning o‘zi yo‘q. CHunonchi, surd tili o‘z tarixi mobaynida oromey, milliy surd, moniy, suryoniy yozuvlardan foydalanganlar. Qadimgi xorazmiy adabiy tili uchun xorazmiy, arab alifbelari amalda bo‘lgan. Bular ba`zi ishlarda «Avesto» tili va yozuvi, xorazm tili va yozuvi, baqtriya tili va yozuvi, surd tili va yozuvi, sak tili va yozuvi degan nomlar bilan ataladi.

Turkiy xalqlarning ota-bobolari 22 harfli oromey yozuvidan foydalanib, o‘zlarining 26 harfli turk-run (sak tili va yozuvi)ni kashf etganlar.

Biz turk-run yozuvining oromey yozuvi asosida shakllanganligini inkor etmagan holda, sak tili va yozuvi asosida Urxun-Enasoy yozuvi shakllangan, degan fikrdan yiroqmiz. CHunki 1970 yilgacha turkiy yozuv eramizning VI-VII asrlarida paydo bo‘lgan, degan fikr etakchi edi. Unga nisbatan Urxun-Enasoy atamasini ishlatganlar. Qadimgi turkiy yozuv uchun Urxun-Enasoy yozuvi atamasi qo‘llanilgan bo‘lib, undan voz kechish vaqtি etdi. Turkiy yozuv Urxun-Enasoy tomonidan Farbga emas (chunki bunda 38 harfiy belgi bor), Markaziy Osiyodan (bunda 26 harfiy belgi bor) SHarq tomon tarqalgandir. Urxun-Enasoy atamasi yozuv yodgorliklarining mahalliy guruhinigina anglatadi.

1970 yili Olmoti yaqinidagi Issiq qo‘rfonini tekshirganda undan miloddan oldingi ko‘plab buyumlar qatori kumush kosa topildi. Uning sirtida qadimgi sak (turkiy) yozuvi bor edi.

Issiq yozuvi nomi bilan mashhur bo‘lgan bu yozuv (26 harfli)ni A.S.Omonjo‘lov o‘qib talqin etgan. Olim bu qadimgi turkiy yozuvning ildizlarini ikki yarim ming yillik o‘tmishdan izlamoq kerakligini ta‘kidlaydi. Xuddi Issiq yozuviga o‘xhash yozuv Farrona vodiysining Isfara, Quva, Qal`ai bolo, Lo‘mbitepa, Surxondaryoning Xolchayon, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Affonistonning Dashti Novur kabi joylaridan ham topildi. Bu yozuvlarni A.N.Bernshtam, YU.A.Zadneprovskiy, S.G.Klyashtorniy lar o‘qigan va ma`lumot bergen.

3. O‘zbek yozuvining taraqqiyot bosqichlari. O‘zbek xalqi qadimda turli yozuvlardan foydalanib kelgan. Asosiy yozuv tizimini fonografik, ya`ni tovush yozuvi, harfiy yozuv yoki alfavit tashkil etgan. O‘zbek xalqi oromiy, yunon, surd, xorazm, ko‘shon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uyfur, arab, lotin, rus grafikasiga asoslangan yozuvdan foydalangan.

Eramizdan oldingi UI-IU -klinopis, mix yozuv, oromiy yozuvi.

III-I yunon, karoshta.

Eramizning I asridan surd

II—III xorazm

V-VIII urxun-runik (rus xizm.Remezov-XVIII, shved Iogann Stralenberg, XIX asr Grigor'yan Spasskiy,1891 akad. V. V. Radlov, daniyalik Vilgilm Tomsen, keyinchalik P.M.Melioranskiy, S. E. Malov).

VI-VIII asrlar uyfur, VII-VIII arab, 1929 lotin, 1940 rus, 1993 02.09.lotin (26 harf, 3 harf birikmasi va 1 tutuq belgi).

Rus grafikasi asosidagi o'zbek alfavitida 33 ta harf va ikkita maxsus belgi bor. Ularning yutuq va kamchiliklari. Unlilar sistemasi. Singormanizm. YAngi alfavit. Uning siyosiy ahamiyati.

YOzuvning xalqlar tili va madniyati taraqqiyotidagi ahamiyatini quyidagi faktdan ham bilsa bo'ladi: Tillarning *standart tillar*, *klassik tillar*, *mahalliy tillar* tarzida tasniflanishi bevosita bu tillar yozuvi mavqeiga asoslangan. 1. Adabiy til me'yoriga ega bo'lgan, jamiyatda davlat tili, adabiy til sifatida xizmat qiluvchi tillar *standart tillar* sanaladi. Masalan, o'zbek, rus, tojik, turkman, ukrain kabi tillar. 2. YOzuvga ega bo'lib, o'z davrida mukammal takomiliga etgan, buyuk asarlar yaratilgan tillar *klassik tillar* sanaladi. Klassik tillar o'z davri uchungina emas, balki tillarning keyingi taraqqiyoti uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday tillarning adabiy tillardan farqi shundaki, ular o'lik tillardir. Masalan, lotin tili, sanskrit tili, sufd tili, xorazmiy tili. 3. Son jihatidan ko'p bo'limgan kichik xalqlarga xizmat qiluvchi, o'z yozuviga ega bo'limgan tillar *mahalliy tillar* sanaladi. Masalan, Amerika mahalliy hindularining tili.

Qo'shimcha material:

Sunnatulla Jumaqulov «Dulbarchin talqinlari» / «Zarafshon», 2011 yil 11yanvar'

-o'z qadrini bilgan so'z qardini biladi.

-qadimgi turkiy (urxun-enasoy) yozuvining istifodadan chiqib ketishi tarixi tarixiy zaruratga boqliqmi, uning yo'qolib ketishiga nima sabab bo'lgan?

-akad.Bartol'd: turk tili tabiatiga xos, ayniqsa, singarmonizm qonuniga moslashtirilgan bu yozuv, uning o'rmini egallagan uyfur va arab yozuvlariga nisbatan ancha mukammal edi.

-bu yozuvni dastlab XVII asrda Evropa olimlari ko'rishgan va «run yozuvi» - sirli yozuv deb atashgan.

-eramizning VI asrida Ettisuv va SHarqiy Turkistondagi turkiylarni birlashtirgan Istami hoqon Vizantiya imperatori Uostin II ga ana shu yozuvda xat yozgan. Demak, u davlat miqyosida qo'llangan.

-ibn Arabshoh «Ajoyib ul-maqdur finavoyibi Taymur (Temur falokatlarida qismat o'yinlari)» asarida «Xitoya turklarning «dulbarjin» deb atalgan yozuvini ko'rdim, harfi – qirq bitta», deb fikr bildirgan (F.A.AR.Qadimgi turkiy til).

-Klosan J.: Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan bitiklarning ijrochilari Yuoiq-tegin va boshqalar maxsus mакtabda o'qitilgan. Bu mакtabning asosiy vazifasi saltanat idorasi uchun – oddiy yozuvdan farqli o'laroq chiroyli va qulay alfavit yaratish edi.

-«dulbarchin» yozuvining topilishi ham antiqa. Bu haqda dastlab (1962) amsterdamlik olim N.Vidzen xabar bergan. 1772 yilda D.Megsershmidt buni kel't yozuvi, P.Pallas uni enasoy dashtlaridagi ko'chmanchi qadimi got qabilalariniki, deydi.

-oradan bir asr o'tgach, farang olimi J.Abel'-Remyuzi Xitoy yilnomasidagi bir jumлага asoslanib, bu yozuvlar turkiylarga xos, u enasoy qirfizlariga aloqador, deydi. J.Abel'-Remyuzining to'ri taxmini XIX asr o'rtalariga kelib tamoman rad etildi.

-rus xitoyshunos V.Vasil'ev munosaraga yakun yasadi. Sibir yozuvlarining turkiyligi ayon bo'ldi. Mufulistondan topilgan yozuvlarni V.Tomsen o'qidi va tarjima qildi.

- J.Abel'-Remyuzining fikri nima uchun inobatga olinmad? CHunki arab yozuvining mavqeい baland edi. Arab istilochilari M.Osiyoga o'zlarini bilan madaniyat, ilmu urfon emas, balki mo'fullar kabi dahshat, yonfin, forat olib keldi, kutubxonalarga o't qo'yishdi. eng tubanligi toshga bitilgan yozuvlarni «begona yozuv» deb ularni muttasil yo'qotib yuborishdi. Boburning arab yozuvini isloh qilish, uni turkiylashtirishga bo'lgan orzulari sarobga aylandi.

-«dulbarchin» yozuvi sharqu farbda hamon o'rganilmoqda.

14-ma`ruza: TILSHUNOSLIK NAZARIYALARI VA TILNI ILMIY TADQIQ QILISH METODLARI

Reja:

1. Tilshunoslik nazariyalari uchun zarur tushunchalar. Sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, paralingvistika, etnolingvistika, antropololingvistika.
2. Tilshunoslik metodlari. Qiyosiy-tarixiy metod. Tarixiy metod. Qiyosiy metod. Tavsif qilish metodi. Distributiv metod. Transformatsiya metodi. Komponent tahlili metodi. Maydon metodi.

Hozirgi davr tilshunoslida ko'pgina ilmiy taqlimot va nazariyalar hamda tillarni ilmiy tadqiq qilish metodlari va tillarni amaliy o'rghanish metodikalari mavjud. Ularni asta-sekin tilning har sathini o'rghanish jarayonida o'rghaniladi. SHu sababli tilshunoslik nazariyalariga doir eng zarar ma'lumotlarni keltirib, uning ilmiy tadqiq qilish metodlarini izohlab beramiz.

2.Tilshunoslik nazariyalari uchun zarur tushunchalar. Tilshunoslik nazariyalari uchun eng zarur tushunchalar tilning sistemasi va strukturasidir. Tilning sistemasi undagi barcha birliklar va bosqichlar (sathlar) o'rtasidagi o'zaro ichki borlanishlar va munosabatlarning majmui sifatida izohlanadi.

Tilning strukturasi esa shu borlanish va munosabatlarning qay tarzda ekanligini ifodalaydi. Ba`zan sistema va struktura tushunchalari farqlanmaydi. Aslida til sistemasi boshqa fanlar sistemasi kabi o'z strukturasiga ega. Ko'pincha "struktura" tushunchasini "tarkib" sifatida qaraladi. Lekin aslida tarkib tildagi bosqichlar, hodisa va jarayonlar tarkibi bilan chegaralanib qoladi. Struktura tushunchasi tarkibni ham qamrab oladi va fonemalar, morfemalar, gap tarkibi kabilarni o'z ichiga olib, ularning o'rtasidagi bo'flanishlarni va shu jumladan til bosqichlarining (sathlari) o'zaro munosabatlari qanday tarzda tuzilganini izohlaydi. Sistema va struktura tushunchalari bir mavzuga - tilga qaratilgani birisiz ikkinchisi bo'lmasligini ko'rsatadi. SHu sababli til - sistemaviy – strukturaviy tuzilma sifatida qaraladi. Tilning har bir bosqichi (fonologiya, mor-fologiya, sintaksis, leksika, stilistika) ham o'z sistemasiga, to'rirofi "kichik sistema"sigi ega.

SHu sababli til butun bir sistemalar sistemasi sifatida izohlanadi.

Tilshunoslikda ko'p qo'llanadigan yana bir tushuncha "ramziy belgi"dir. Tilshunoslikda strukturalizm oqimining poydevorini yaratgan shvetsariyalik buyuk olim Ferdinand de Sossyur: "Til - tushunchalarni ifodalovchi belgilarni sistema-sidir" - deb taqrif bergan edi. CHunki tildagi tushunchalarni ifodalovchi belgilarni undagi barcha birliklarni (fonema, mor-fema, so'z, so'z birikmasi, gap) qamrab oladi. Belgilar sistemasini va shu jumladan tildagi belgilarning umumiy va xususiy xususiyatlarini o'rGANUVCHI fan - semiotika (grekcha semi - belgi, tika - fan) deb ataladi (Ba`zan uni "semiologiya" deyiladi). Tildagi belgilarni o'zining ikki jihat bilan ajralib turadi: a) eshitilish (ofzaki nutq) yoki ko'rish mumkinligi (yozma nutq belgilari) va b) ma'no jihat. So'z tilning markaziyligi birligi sifatida eshitilishi - akustik tomoni, yozuvda alohida belgilarni yozilishi bilan ajralib turadi. Tildagi bu sunqiy belgilarni hayotimizdagi tabiiy belgilardan farqlash zarur.

Turli sohalarga tegishli shartli belgilarni, xususan ko'cha qoidalarini ifodalovchi belgilarni, matematikadagi turli funksional va differensional hodisalarini ifodalovchi belgilarni va h.k. Tilshunoslikda til belgilari sistemasi o'ziga xos murakkabligi bilan izohlanadi. Tildagi belgilarni sodda va murakkab, erkin va ramziy, to'ri va yordamchi, tematik va notematik, statik (tinch) va dinamik (rivojlanishda), sharoitga bo'fliq va bo'fliq emas, ochiq va yopiq kabi turlarga bo'linadi.

Ko'rindaniki, til murakkab belgilarni sistemasi hisoblanadi. Hozirgi davr tilshunoslida an'anaviy va struktural hamda bularning har ikkisidan foydalanib alohida tilshunoslik nazariyalarini ishlab chiqilgan.

Struktural tilshunoslik oqimlari jahondagi turli mamlakatlarda o'ziga xos ko'rinishda mavjud. Ular qatorida Praga tilshunoslik taqlimoti (V.Matezius, N.S. Trabetskoy, V.Vaxeck va boshqalar), Amerika Qo'shma SHtatlaridagi deskriptiv (L.Bluemfield, Z.Harris, G. Glison va boshqalar), tagmemika (K.Payk), stratifikatsion (S.M.Lamb), generativ tilshunoslik (N.CHomskiy, S.SHein, M.Xalle va boshqalar) oqimlari bor. Bulardan tashqari Fransiya, Germaniya, Angliya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda ham nom qozongan ilmiy tilshunoslik taqlimotlari bor. Bu tilshunoslik yo'naliishlarini keyinchalik "Umumiy tilshunoslik" kursida o'rGANILADI.

Hozirgi davr tilshunoslida eng dolzarb yo'naliishlar qatorida sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, paralingvistika, etnolingvistika, antropololingvistika kabilarni ko'rsatish mumkin.

Sotsiolingvistika. Til va jamiyat, til va tafakkur (ong) o'rtasidagi bo'flanish eng murakkab va doimo dolzarb hisoblanadi. Tilning jamiyatdagisi xizmatini o'rghanish sohasi sotsiolingvistika (lotincha *sotsio-jamiyat, tika - fan*) deb ataladi. Sotsiolingvistika tilning jamiyatdagisi o'rni va xizmati, uning jamiyatning turli tabaqalari va kasb egalari tomonidan qo'llanishidagi xususiyatlarni irmly tadqiq qiladi. Sotsiolingvistika

tillarning jamiyatda qo‘llanishiga ko‘ra rasmiy, davlat, elat, qabila tillarini farqlaydi. Odatda umummilliy tillar davlat va rasmiy tillar sifatida qabul qilinadi.

Ba`zi davlatlarda ikki, uch va undan ortiq tillar rasmiy til deb eqlon qilingan. Hindistonda tillar ko‘pligi tufayli 14 ta til rasmiy deb eqlon qilingan va ikkinchi rasmiy til sifatida ingliz till qabul qilingan.

O‘zbekistonda o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega va bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida ko‘rsatib qo‘yilgan.

Kognitiv tilshunoslik (inglizcha cognize - bilmoq, anglamoq, tushunmoq) falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur (ong) bilan boflab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Kognitiv tilshunoslik psixologiyadagi tushuncha va kontsept birliklari bilan ish ko‘radi. Kontsept tushunchasi asosida ma`no va obraz yotadi va ular bilim ummumlashmasi sifatida "kvant" deb ataladi. Kontsept - ong - belgi o‘rtasidagi boflanish miya faoliyati orqali boshqariladi.

Masalan, yaxshilik kontsepti barcha yaxshi narsa, belgi, xislat, odat va boshqalarni ifodalab, o‘z "tushunchalar maydoni"ni tashkil etsa, "yomonlik" kontsepti buning aksini ifodalaydi.

Psixolingvistika - psixologiya va tilshunoslik o‘rtasidagi boflanishlar asosida hosil bo‘lgan sohadir. "Psixolingvistika" termini 1946-yilda birinchi marta AQSHda N.Pronko tomonidan uning maqolasida qo‘llangan va keyincha 1953-yilda Indiana Universitetida o‘tkazilgan ilmiy anjumanda keng qo‘llangan. Hozirgi davrda psixolingvistika sohasida jahoning turli mamlakatlarida qo‘llanilayotgan nazariya va metodlar mavjud.

Psixolingvistika nutqning hosil bo‘lish va eshitib his etish jihatlanni nutq faoliyatining jamiyat va shaxsnинг rivojlanishi bilan boqliq ravishda murakkab sistema va struktura sifatida ilmiy tadqiq etadi. Psixolingvistikaning asosiy o‘rganish mavzusi nutqning hosil bo‘lishi, uning ongli eshitib his qilinishi va bolalar nutqining shakllanishidir [Belyanin V.P. Psixolingvistika. M.: Flinta, 2003, s. 11].

Psixolingvistikaning xorijda-gi taqlimotiga ko‘ra boshqacha taqrif ham mavjud. "Psixolingvistika til va nutqning inson ongidagi tabiat va strukturasiga ko‘ra ko‘zgusi" deb ta]rif beradi T.Skove [Scovel T. Psycholinguistics. Oxford Univ. Press, 1998, p.4]. Psixolingvistika so‘zlovchi va eshituvchining psixologiyasi, uning sharoitga boqliqligi oddiy va ehtirosga berilgan holati, matnning struk-turasi bilan munosibati, turli nutq buzilishi bilan boqliq kasalliklar (afaziya)ni ilmiy o‘rganadi.

Lingvokulturologiya - til va madaniyat, o‘zaro madaniy aloqa masalalarini ilmiy tadqiq etadi, chunki: "Til madaniyat bilan juda zich boflangan, u madaniyatga etib boradi, unda rivojlanadi va uni ifodalaydi" [Maslova V.A. Lingvokul’turologiya. 2-izdanie. M.: Akademiya, 2004, s. 9]. Bu soha faqat madaniyat bilan emas, balki u orqali turli milliy urf-odatlar, diniy hodisalar, mil-lij kontseptlar, dunyoning til orgali ongli his qilish vositalarini o‘rganadi. Dunyoning til xaritasi umuman ularning insonlar ongidagi mantiqiy ifodasi bilan mos keladi. Bu masalani keng va chuqur ilmiy o‘rganish lingvokulturologiya va lingvokog-nitologiya bilan boqliqidir.

Etnolingvistika - tilshunoslik, etnografiya va sotsiologiya bilan boqliq bo‘lib, tilning etnos (xalqning kelib chiqishi) bilan aloqasi va uning jamiyatdagи o‘rnini o‘rganadi. etnolingvistikada til vositalari va kategoriyalarining etnik va ijtimoiy jarayonlarni o‘rganishda qo‘llanishi o‘rganiladi. Bu soha: - xalq va etatlarning kelib chiqishi (etnogenet va etnik tarix); - xalqlarning moddiy va madaniy tarixini (narsalar, odatlar, tushunchalar, belgilar, ramzlar va h.k.); - xalq tafakkuri tarixining shakllanishi; - til siyosati; - tilning tarqalish jarayoni va boshqalarni o‘rganadi [Gerd A.S. Vvedenie v etnolingvistiku. Izd. Sankt-Peterburgskogo Universiteta. 2005, s. 7].

Antropolinguistika - yozuviga ega bo‘lmagan tillarni o‘rganish sohasidir. SHu bilan birga u etnolingvistika va sotsiolinguistika bilan boqliq bo‘lib, tilning inson madaniyati va ishonchiga doir andozalar (modellar) yordamida o‘rganadi.

Antropolinguistika nutq jamoasini ijtimoiy, diniy, hududiy va qarindoshlik guruhlari sifatida farqlashda lisoniy xususiyatlarning o‘zgarishlarini o‘rganadi. Bunda turli ijtimoliy sharoit, kundalik muloqot, urf-odat, nutq madaniyati va savod kabilar eqtiborga olinadi.

Paralingvislika - (grekcha para - atrof, lingvistika - fan, ya`ni "lingvistika tevaragidagi fan" ma`nosini anglatadi) tilni boshqarib borishda qo‘llanuvchi vositalarni o‘rganadi. U uchgа bo‘linadi: 1) Kinesika, ya`ni imo-ishora, mimika, inson organizmidagi biror muravatni qimirlatish vositasida biror tushunchani ifodalash; 2) Fonatsiya - inson ovozidagi o‘zgarishlar, masalan, bo‘fizni qisish, "oh", "uh", "voh" kabi turli ehtiroslarni ovoz yordamida ifodalash;

3) *Paragrafemika* - yozuvda shaxsiy belgilar yordamida turli tushunchalarni bildirish. Paralingvistik vositalar turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar tomonidan har xil ifodalanadi. Ofzaki va yozma nutqda ifodalanadigan turli paralingvistik vositalar doim bir-biriga to‘ri kelmaydi. Masalan, qosh va ko‘zning

vositasida ifodalanadigan tushunchalar tildagi so‘zlar va gaplardan ko‘ra kuchliroq mazmunni bera olishi mumkin. Paralingvistik vositalar milliy, shaxsiy, diniy, psixologik, etnik, urf-odat va madaniyat bilan bofqil.

2. Tilshunoslik metodlari. Tilshunoslikda metodologiya, metod va metodika tu-shuncha va terminlari farqlanadi. Metodologiya - (grekcha methodos - bilish yo‘llari, ilmi) qanday nazariya va prinsiplar asosida ilmiy tadqiq qilish poydevorini yaratishdir.

Metod - har bir fan uchun xususiy va barcha fanlar uchun umumiy bo‘lgan (masalan, qiyoslash metodi), manbaqlarni to‘plash va tasnif qilish, ulardagi eng asosiy xususiyatlarni o‘rganish uchun tildagi barcha birliklar, sathlar va rivojlanish jarayonlarini, o‘zgarishlarni bilish va aniqlash uchun qo‘l7 lanadigan uslub va yo‘llar majmuidir. Metodika - ilmiy metod natijasida aniqlanganlarni amalda tadbiq etishdir. SHu mazmunda xorijiy tillarga o‘rgatish ham o‘z metodikasiga ega. Ularni interaktiv metodika, tarjima vositasida tilga o‘rgatish metodikasi va hakoza deb ataladi.

Endi tilning turli bosqichlarini o‘rganishda qo‘llanadigan metodlarni izohlab chiqamiz.

Qiyosiy-tarixiy metod - XIX asr boshida taklif etilgan bu metodning vazifasi qarindosh bo‘lgan tillardagi qonuniyatlarni aniqlashdan iborat. Bu metod yordamida eng qadimiy qarindosh tillardagi so‘zlar va ularning shakllarini tiklash uchun harakat qilingan (Tillarning geneologik tasnifiga qarang). Masalan, “ikki” so‘zi lotincha duo, grekcha duo, uels tilida dau, inglizcha two, islandcha tveir, datcha tvee shaklida bo‘ladi.

Tarixiy metodni ko‘pincha qiyosiy tarixiy metoddan farqlaydilar. Bizningcha bu ikki metodni birlashtirish mumkin. CHunki tarixiy metod ham timing har bir sathidagi o‘zgarish-larni o‘rganadi. Bu ayniqsa so‘zlar va ularning shakllarini ichki tiklashda ko‘rinadi. Tarixiy tilshunoslikda ichki tiklash metodi yordamida so‘z va ularning shakllaridagi fonetik va semantik o‘xshashliklari aniqlanadi va ular bir o‘zakdan paydo bo‘lganli-gi taxmin qilinadi.

Tavsif qilish metodi tildagi turli hodisa va ma`lumotlarni, uning sathi va birliklarini izohlab beradi. Bu metod yordamida turli tillarning fonetika va stilistikasi sharhlab beriladi.

Qiyosiy metod - tillarning qarindoshligini hisobga olmay, ulardagi o‘xshashlik (uni "izomorfizm" deyiladi) va farqlanish-larni (uni "allomorfizm" deyiladi) aniqlaydi. Bu metodning asosiy vazifasi ikki va undan ortiq tillarning sistema va strukturasini turli til bosqichlari bo‘yicha qiyoslashdir. Ba`zan bu metodni qiyosiy-tipologik, chorifishtirma, kontrastiv, konfronta-tiv nomlari bilan ataydilar. Aslida qiyosiy metod tillarni tipologik o‘rganish metodining bir qismi hisoblanadi. Tillar tipologiyasi o‘nlab va yuzlab tillarni qiyoslaydi, qiyosiy-tipologik metod ikki yoki uch tilni qiyoslash bilan chegaralanadi.

Qiyosiy tilshunoslik tillarni tipologik o‘rganishdan farqlanib, bir yo‘la nazariy va amahy (lingvodidaktik) vazifalarni qamrab oladi [YUsupov U.K. Teoreticheskie osnovы sopostavitel’noy lingvistiki. Tashkent, Fan, 2007, s. 13]. Tillarni qiyoslashda ulardagi kichik sistemada qanday o‘xshashlik va farqlar borligini tashqi jihatdan (unli va undoshlar soni, kelishiklar soni kabi) farqlarini topib, so‘ngra ulardagi ichki o‘xshash va farqli belgilar aniqlanadi. Odatda ikki tilni qiyoslashni mantiqiy jihatdan binar qiyoslasb deb ham yuritila-di. Tillarni qiyoslashda yaxshiroq o‘rganilgan tilni etalon (andoza) qilib olib, unga to‘ri keluvchi xususiyatlarni ikkinchi tilda topib tahlil qilinadi. Ba`zan esa biror tipologik belgini qiyoslanayotgan tillarda aniqlashga harakat qilinadi [Arakin V.D. Sravnitel’naya tipologiya angliyskogo i russkogo yazrfkov. L.: 1979, s.]. Qiyoslash metodi nazariy va amaliy jihatdan juda foydali bo‘lib, u xorijiy tillarni o‘rganishning lisoniy asoslarini yaratishda katta ahami-yatga ega.

Oppozitsiya - qarama-qarshi qo‘yish, zidlov metodi tildagi birliklarning paradigmatic tasnifi uchun qo‘llaniladi. Tildagi barcha birliklar bir-birlariga qarama-qarshi bo‘lib, o‘zaro so‘z, morfema, so‘z birliklari, turli grammatik konstruktsiyalarni va gaplarni farqlaydi. Oppozitsiya metodi yordamida tildagi birliklar o‘rtasidagi turli qarama-qarshiliklarning umumiy turlarini aniqlash mumkin (bir o‘lchovli - a: b; ko‘p o‘lchovli- a: b:c:d: kabi). Bu zidlovlarning a`zolari o‘rtasidagi munosa-batlarni proporsional va vakkalangan. privativ (+, - belgisi bo‘yicha), poronali (gradual) (masalan, |i-a|o‘rtada |e|ni "sakrab" o‘tiladi, yoki qaratqich kelishigi bilan chiqish kelishi-gi oppozitsiyasi o‘rtasidagi boshqa kelishiklarni tushirib qoldirishga asoslangan), teng huquqli (ekvipotent) oppozitsiya (masalan, jp-t||t-k|bir hil belgili: portlovchi, jarangsiz) sifatida qaraladi [Bu oppozitsiyalar lisoniy va mantiqiy jihatdan asoslangan. Qarang: Trubehkoy N. S. Osnovi fonologii. M.: 1960, s. 31-84.].

Distributiv metodi (inglizcha distributsiya - taqsimot) yordamida tildagi birlik va elementlarning qo‘llanish o‘rnлari va holati tushuniladi. Tildagi biror unli tovushning distributsiyasi uning so‘zning boshi, o‘rtasi va oxirida, urfuli yoki urfusiz holatda, ochiq yoki yopiq bo‘finda bo‘lishini ko‘rsatadi. Biror elementning umumiy distributsiyasi deganda, uning barcha qo‘llanish holatlari va boshqa elnmentlar bilan birikib kelishi tushuniladi.

Odatda to‘rt turli distributsiya farqlanadi:

1. Ikki elementdan biri uchragan o'rinda ikkinchisi uchramasa, ular bir-birlariga nisbatan to'ldiruvchi distributsiyada bo'ladi. Masalan, |p,t,k| undosh tovushlari unlilardan oldin, ikki unli o'tasida so'z oxirida kelganda, aspiratsiyali, boshqa o'riniarda, undoshlar biian yonma-yon kelsa, aspira-tsiyasisiz tovushlar hisoblanadi. Demak, aspiratsiyali |ph,th,kh| tovushlar uchragan o'rinda aspiratsiyasisiz |p,t,k| tovushlari uchramaydi. SHu sababli bu tovushlar |p,t,k| fonemalarining ikki turli allofonlari hisoblanadi.

2. Kontrast distributsiya go'yo zidlovni eslatadi. Bir o'rinda qo'llanib, ma`noni farqlashga xizmat qiluvchi elementlar kontrast distributsiya deyiladi: tok-pok-nok so'zlari boshidagi undoshlar kontrast distributsiya bo'lib, shu so'zlarni farqlaydi. Bunday so'zlar minimal juftlikdagi so'zlar deyiladi. So'z boshidagi |p,t,k| tovushlari fonemalarning allofonlaridir.

3. Erkin variatsiya. Bir xil o'rinda uchrasa ham ma`noni farqlay olmaydigan elementlar erkin variatsiyada bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida |e| unlisi so'z boshida ochiq (eshik, echki kabi) va boshqa hoiatlarda yarim ochiq talaffuz etilishi uning turli variatsiyalarini ko'rsatadi. Bu distributsiya ba`zan ekvivalent (muqobil) distributsiya deb ataladi.

4. Qisman ekvivalent distributsiya ikki turli element bir o'rinda ba`zan ishlatilishi, lekin ma`noni farqlay olmasligi bilan izohlanadi. Masalan, "taroq" so'zi |taroq| va |tarof|, "cholfu" so'zi |cholfu| va |chalfu| kabi talaffuz etilishi shu so'zlarning ma`nolarini farqlamaydi. Aslida esa, talaffuzda almashilgan tovushlarning har biri turli fonemalarning allofonlaridir.

Transformatsiya metodi tildagi elementlar va birliklarning turli gaplarda boshqacha yo'l bilan qayta tuzishda qo'llaniladi. Tranformatsiyaning sintaksisdagi elementlarni o'zgartirishda qo'llanuvchi oddiy turlari: o'rin almashtirish, qo'shish, qisqartirish va tushirib qoldirishdir. Bu metodni AQSH olimi Z.Xarris taklif etgan va keyincha uni shogirdi N.CHomskiy alohida ilmiy tadqiq etgan. Bu metod matematika va mantiqdagi ba`zi tushuncha va tamoyillardan foydalanadi [Zasorina L.N. Vvedenie v strukturnuyu lingvistiku. M.: 1974, s. 252].

Agar bir turdag'i elementlarga ega bo'lgan ikki va undan ortiq konstraktsiyalar bir xil o'rinda uchrasalar, ularni transfor-malar deyiladi. Masalan, quruvchilar Toshkentda juda ko'p chiroyli binolar qurdilar - gapida transformalar quyidagicha bo'lishi murakin: Toshkentdagi juda ko'p chiroyli binolar quruvchilar tomonidan qurildi (passiv konstruktsiya). Juda ko'p Toshkentdagi chiroyli binolarni quruvchilar qurdilar. Juda ko'p chiroyli binolarni Toshkentda quruvchilar qurdilar va h.k.

YUqoridagi transformalar gapning biror ma`nosini o'zgar-tirishga ham xizmat qiladilar. Agar shu gap asosida dialog tuzsak, undagi elementlar o'z o'mmini o'zgartiradi, tushib qoladi va to'ldiradi. -*Binolarni kim qurgan? -Toshkentdami? -Ha, ularni quruvchilar qurgan. -Ha, o'sha chiroyli binolarni...*

Tranformatsiya metodi faqat sintaksisda emas, balki stilistik transformatsiya shaklida ham qo'llanmoqda. Unda sintaktik stilistika uchun eng zarariy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Komponent tahlili metodi ko'proq semantikada so'zlarning ma`nolarini chuqurroq o'rganishda qo'llanadi. Bunda so'zlarning ma`nolari ularning farqlanuvchi semantik belgilari - semalar yordamida tahlil qilinadi. Masalan, chelak va butilka so'zlarining senia tarkibini tahlil qilsak, chelak - aylana shaklda, qo'l ushlagichi bor, oyori yo'q, qopqori bor yoki yo'q, bo'yni yo'q idish bo'lsa, butilka - oynadan qilingan, suyuqlik solinuvchi, chuqur, qo'l ushlagichi va oyori yo'q idish hisoblanadi. Komponent tahlil asosida tildagi so'z turkumlarining va hatto gap tarkibida ishtirot etgan bo'laklarning semantik belgilari aniqlanishi mumkin.

Maydon metodi. Bu metodni leksik-semantik maydon yoki grammatic-lexic maydon [Guliga E.V., SHendel's E.N. Grammatiko-leksicheskie polya v nemetskom yazike. M., 1968, - s. 5-17] va ba`zan maydon nazariyasi [Our G.S. Teorii polya v lingvistike. M., 1974], deb yuritishadi. Albatta, uning qo'llanishiga ko'ra nomini atash mumkin. Jumladan, so'zning barcha ma`nolarini aniqlashda semantik maydon metodi qo'llanadi. Grammatikada turli so'z turkumlarining ma`nolari o'rganilsa, ularni grammatic-lexic maydon metodi yordamida o'rganiladi. Bunda eng ko'p qo'llanuvchi leksik-grammatik birlikning ma`nosi uning, yadroси, kam qo'llanuvchilarini pereferiyasi deb nomlanadi.

Tilshunoslikda hali noma'lum bo'lgan tillarni ilmiy o'rganishda qo'llanuvchi "maydon tilshunosligi" ni maydon metodi bilan aralashirmslik kerak. Maydon tilshunosligi o'rganilayotgan til ona tili bo'lgan shaxsni (uni odatda "informant" deyiladi) turli anketa va testlar yordamida savollarga javob olish yo'li bilan material to'playdi, fonetik transkriptsiya qo'llaydi, tildagi asosiy fonologik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarni to'plab tahlil qiladi, ba`zi taxminiy fikrlarini keltiradi va zarur bo'lsa tarjimadan foydalanadi.

Maydon tilshunosligida qo'llanuvchi tamoyil va vositalar tillarni qadimiy o'rganish yo'llarini eslatadi. Bu usullar qalam va qoroz yordamida tilni biluvchi shaxslarning talaffuziga quloq solib, ularagi xususiyatlarni aniqlashni yodga soladi. Tilni o'rganishda, umuman, kuzatish, tavsif qilish, qiyoslash, tajriba (eksperiment) o'tkazish, distributsiya, tranformatsiya, ma`no maydonini aniqlash, xarita tuzish (til yoki shevaning tarqalgani haqida - uni *lingvogeografiya* deyiladi), turli til birliklari, elementlari va vositalarini statistik tekshirish yordamida qancha va qaerda uchrashi metod va tamoyillari qo'llanadi. [Kibrik A.E. Metodika polevfx issledovaniy (k postanovke problemf). Izd. MGU, 1972, s. 179].

Адабиётлар

1. *Азизов О.* Тилшуносликка кириш.- Тошкент: Ўқитувчи, 1996, 148-166 - бетлар.
2. *Абдуазизов А.А.* Тилшуносликка кириш, I қисм. Фонетика ва фонология. Маъруза матни. – Т.:Университет, 1999. –72 б.
- 3.
4. *Абдуазизов А.А.* Тилшуносликка кириш, II қисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика. Маъруза матни. – Т.:Университет, 1999. –58 б.
5. *Ирисқұлов М.* Тилшуносликка кириш.- Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
6. *Миртожиев М.* Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Т.,2000.
7. *Миртожиев М.* Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: «Mumtoz so'z», 2010. – 288 б.
8. *Содиқов А, Абдуазизов А., Ирисқұлов М.* Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи, 1981. 194-199 - бетлар.
9. *Элтазаров Ж.* Сўз туркumlари ҳақидаги лингвистик назариялар. - Самарқанд: СамДУ нашри, 1996. –128 б.

Кўшиимча адабиёт

1. *Хожиев А.* Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.- Тошкент: Ўқитувчи, 1985.
2. *Абдурасолов Ё.* Туркий тилларнинг қиёсий-тариҳий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009.
3. *Rasulov R.* Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2006. -70 б.
4. Грамматик категория, грамматик маъно, грамматик форма.- Самарқанд, 1991.
5. *Ҳамидов З.* Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар. – Тошкент: Адолат, 2004. - 36 б.
6. *Ўринбоев Б., Йўлдошев Б.* “Тилшуносликка кириш” курсидан методик тавсиялар.- Самарқанд, 1988, 56-57 - бетлар.
7. *Abdullayev Y. Sovg'a.* – Toshkent: “O’qituvchi”, 1996. -80 b.
8. *Ҳасан Ато Абуший.* Туркий қавмлар тирихи. – Тошкент: «Чўлпон» нашриёти, 1993. -240 б.
9. *Махмудов Н., Бегматов Э.* Тилимизнинг кеча ва кундузи / Ўзбек тили ва адабиёти, 2010, №5, 3-11-бетлар